

Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi
Ilmiy-uslubiy jurnal

Bosh muharrir:
Sattorov Abdusamat
Umurqulovich
Bosh muharrir o'rinbosari:
Qobulov Eshbolta Atamuratovich
Mas'ul kotib:
Allamuratov Shuxrat Ashurovich
Dizayner:
Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

**Jurnal har chorakda bir marotaba
chop etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligining
2023-yil 1-martdagi
№ 066379- raqamli guvohnomasi
bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal "PRINTWELL" MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri
Muqimiy ko'chasi, 170/14

Bosishga ruxsat etildi:
30.05. 2024.
Qog'oz bichimi: 60x84 1/8
"Times New Roman" garnitiruasi.
Ofset bosma.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i: 11.
Adadi 100 nusxa.
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan
<https://scientific.tues.uz>
web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:
Surxondaryo viloyati,
Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)
L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)
Vohidov Sh.X. – t.f.d., prof. (Tojikiston)
Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.
Jo'rayev A.S. – i.f.d., prof.
Hatamov O.Q. – i.f.d., prof.
Tursunov S.N. – t.f.d., prof.
Xoliqova R.E. – t.f.d., prof.
Eshov B.J. – t.f.d., prof.
G'afforov.SH.S. – t.f.d., prof.
Mirsabirov M. – f.-m.f.d., prof.
Allakov I. – f.-m.f.d., prof.
Turayev E.Y. – f.-m.f.d., prof.
Turayev X.X. – k.f.d., prof.
Qulmamatov D. – f.f.d., prof.
Bakirov P.U. – f.f.d., prof.
Raximov G'.X. – f.f.d., prof.
Umurqulov B. – f.f.d., prof.
Mahmudov Y.G'. – p.f.d., prof.
Qodirov U.D. – psix.f.d., prof.
Otamurodov F.A. – tib.f.d., dots.
Otamurodov Sh.N. – i.f.d., dots.
Eshqurbonov F.B. – k.f.d., dots.
Tursunov N.N. – t.f.d., dots.
Xudayberdiyev U.T. – t.f.f.d. (PhD).
Xayrullayev I.N. – f.-m.f.n., dots.
Rasulov H.M. – s.f.n., dots.
Yormatov F.J. – t.f.n., dots.
Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.
Eshkarayev S.Ch. – k.f.f.d. (PhD)
Bazarov S.B. – f.f.f.d. (PhD)
Sattorova Y.A. – f.f.f.d. (PhD)
Eshkurbanov S.B. – t.f.f.d. (PhD)
Saloxitdinova N.M. – p.f.f.d. (PhD)
Madiyeva M.Y. – f.f.f.d. (PhD)
Babamuratov B.E. – t.f.f.d. (PhD), dots.
Turopova S.K. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Xoliyorov E.Ch. – f.-m.f.n., dots.

MUNDARIJA

KIRISH

J. M. PARDAYEV

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Yangi O'zbekistonning ilmiy taraqqiyoti uchun xizmat qilmoqda.....4

TARIX FANLARI

E. A. QOBULOV, M. M. PARDAYEV

Surxon vohasi tog'oldi dehqonchiligida irrigatsiya tizimi.....7

SH. S. G'AFFOROV

"Temur tuzuklari" - muhim tarixiy manba.....11

A. Q. TO'XTAYEV

Mustaqillik yillarida sariosiyo va uzun tumanlari tibbiyot tizimi.....16

SH. A. ALLAMURATOV

Pattakesar kechuvining savdo aloqalaridagi o'rni (XIX asrning oxiri - XX asrning boshlari)21

IQTISODIYOT FANLARI

L. F. PARDAYEV

O'zbekiston tashqi savdosining tarkibi va iqtisodiy hamkorlik yo'nalishlari.....28

O. R. MUSTAFOQULOV

Turizmning rivojlanishida tarixiy obidalarining o'rni.....33

FALSAFA FANLARI

M. J. NORQOBILOV

Vatanparvarlik ijtimoiy kapitalning muhim tarkibiy aspekti.....38

FILOLOGIYA FANLARI

M. Y. MADIYEVA

National and cultural features of brand names.....45

G. S. AKABIROVA

Семантический анализ музыкальных терминов в русском и узбекском языках.....52

Z. M. ALLAYEV

The main aspects of oneirosphere: narrative and symbolic dreams.....55

PEDAGOGIKA FANLARI

T. X. AVLIYAQULOV

Jamiyatda gender tenglikning ahamiyati.....59

O. CH. XOLOV

Aksiologik ongni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari63

M. A. BABAYEVA

Elektron ta'lim tizimini tatbiq etish orqali integrativ yondashuvni amalga oshirish imkoniyatlari.....67

A. A. XAITOV

Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani rivojlantirishning pedagogik shartlari.....72

D. I. DJUMAYEVA

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida ekologik ta'limni rivojlantirishda xalq og'zaki ijodi hamda ajdodlar merosini tabiiy fanlar darsligi asosida shakllantirish.....77

KIMYO FANLAR

SH. X. CHARIYEVA, M. K. UROZOV

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonidagi chiqindilardan achitqi shtammlarini olish.....83

TIBBIYOT FANLARI

Y. M. KENJAYEV,

D. SH. ALIMUXAMEDOV

Chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini xodimlarining sog'lig'ini tiklash uchun profilaktik ratsionning gigiyenik tahlili.....88

R. X. ERDANAYEV

Tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmatining hozirgi holati tahlili (Surxondaryo viloyati misolida).....95

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

E. CH. KHOLIYAROV,

M. Y. ERNAZAROV, A. X. TOYIROV,

D. SH. TURAYEV

Birjinslimas muhitlarda suyuqliklar sizishining koeffitsiyentli teskari masalalarini sonli yechish.....100

SH. X. MEYLIQULOV

Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion bulutli texnologiyalarni qo'llash.....112

PSIXOLOGIYA FANLARI

S. B. ALMARDONOVA

Shaxsning ma'naviy-psixologik shakllanishida tafakkurning rolini o'rganish.....120

KIRISH





**TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS
UNIVERSITETI YANGI O'ZBEKISTONNING
ILMIY TARAQQIYOTI UCHUN XIZMAT
QILMOQDA**

Annotatsiya: Yangi O'zbekistonda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan o'tkazilayotgan islohotlarning barchasi insonning munosib turmush kechirishiga qaratilgan. Davlatimiz rahbarining oliy ta'limga, ilm-fan rivojiga qilgan e'tibori tufayli keyingi yillarda xususiy ta'lim, jumladan xususiy nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari soni ortib bordi. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston strategiyasida oliy ta'limga qamrov darajasini 50 foizga oshirish, nodavlat oliy ta'lim muassasalari sonini oshirib borish belgilangan.

Kirish


Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2022-yil 16-noyabrdagi Ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasining lisenziyasi asosida o'z faoliyatini boshladi. O'tgan qisqa davr mobaynida yangi tashkil etilgan universitetda bir qator ishlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda dunyoda shiddat bilan rivojlanib borayotgan o'zgarishlar va yangiliklarga munosib bo'lish davr talabidir. Dastlabki o'quv yilida 8 ming nafarga yaqin abituriyent talabalikka qabul qilingan bo'lsa, bu yil ularning soni 2 barobarga ortdi. Bugungi mediamakon tezkorlik bilan

rivojlanayotgan davr har tomonlama professional kadrlarni yetishtirib berishni taqozo qiladi. Bu borada qisqa muddatda bo'lsa-da, qator ishlar amalga oshirishga harakat qilinmoqda. Hozirda ta'lim dargohida bakalavriat bo'yicha 20 ta, magistratura bo'yicha 4 ta yo'nalishda mutaxassislar tayyorlanmoqda

Universitetning moddiy texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha amaliy natijalarga erishilmoqda. 2023-yilda oliygohning 3 ming o'rinli yangi zamonaviy binosi foydalanishga topshirilgani bu yerda sifatli va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoniyatini yaratdi. Universitet o'z imkoniyatlarini kengaytirgan holda 2024-yil mart oyida Termiz shahar Yulduz mahallasi hududida yangi o'quv binosi ishga tushirildi. Mazkur bino 7 qavatdan iborat bo'lib, 10 ming kishilik sig'imga ega. Unda universitet professor-o'qituvchilarining va talabalari uchun barcha zamonaviy sharoitlar yaratilgan.

Oliy ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalardan biri xalqaro hamkorlar bilan tajriba almashish maqsadida xorijdagi nufuzli oliygohlar bilan aloqalar o'rnatishdir. 2022/2023 o'quv yilida 10 nafar professor-o'qituvchi va 16 nafar talaba xorijiy davlatlar oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida malaka oshirish va stajirovka o'tash uchun yuborildi. 2023 yilda 16 nafar professor-o'qituvchi va 19 nafar talaba xorijiy



davlatlarning oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida malaka oshirish va stajirovka o'tab kelishdi.

2023 yilda 3 nafar universitet professor-o'qituvchisi xorijiy oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida ma'ruza qildi (E.Qobilov-Xo'jayli universiteti (Turkiya); S.Eshqarayev, B.Bobomurodov - Janubiy Qozog'iston davlat universiteti).

Universitet Turkiyaning Xo'jateppa universiteti (Hacettepe University), Xo'jayli Sog'liqni saqlash va texnologiya universiteti (KOSTU) hamda Chexiyani Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti bilan anglashuv meorandumlari tuzilgan bo'lib 2024/2025 o'quv yilidan talabalar akademik almashinuvini yo'lga quyish rejalashtirilgan. Universitetni Turkiya oliy ta'lim kengashining tan olingan universitetlar ro'yxatiga kiritish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Bundan tashqari, universitet xalqaro iqtisodiyot va biznes yo'nalishda ta'lim beruvchi oliy o'quv yurtlarini attestatsiya o'tkazuvchi International Accreditation for Business Education (IACBE) (Biznes ta'limi uchun xalqaro akkreditatsiya) hamda Accreditation Council for Business Schools and Programs (ACBSP) tashkilotiga a'zo bo'ldi. Shuningdek, "Xalqaro ta'lim akkreditatsiya jamiyati" (INTEAS) akkreditatsiya o'tkazish bo'yicha shartnoma tuzildi. O'tgan davr mobaynida oliygoh professor-o'qituvchilarining ilmiy tadqiqot yo'nalishidagi faoliyatiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Universitetning ilmiy pedagog-kadrlar tayyorlash ishiga alohida e'tibor tufayli ilmiy salohiyat oshib bormoqda. Bugungi kunda universitetda mavjud professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati 45,1 foizni tashkil etadi.

2023 yilning o'zida universitetning

12 nafar tadqiqotchisi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Shu bilan birgalikda universitet o'zining matbuot guruhi uchun tashkil etilgan studiyasiga ega bo'lib, "TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi" jurnalini hamda "TISU xabarnomasi" gazetasini har oyda o'quvchilarga taqdim etib bormoqda. TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi" jurnali Google Scholar xalqaro ilmiy bazasida indekslanadi.

Iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash, ichki turizmni rivojlantirish maqsadida 2023 yilda 200 nafarga talabalar professor-o'qituvchilar hamrohligida Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva shaharlariga sayohatga borib qaytishdi.

Sport yo'nalishida ham ushbu yutuqlarimiz talaygina talabalarimizning 3 nafari O'zbekiston chempioni, 1 nafari O'zbekiston kubogi sohibi va yana 1 nafari Osiyo chempioni bo'lishdi. Samarqand shahrida o'tkazilgan 4-Samarqand xalqaro olimpiyadasida 5 nafar talabamiz turli xil nominatsiyalarda g'oliblikni qo'lga kiritishdi. Oliy ta'lim muassasalari, korxonalar va tashkilotlar hamda uyushmagan yoshlar o'rtasida "Janub zukkolari" ko'rik tanlovining yarim final bosqichida Termiz iqtisodiyot va servis universitetining "Megapolis" jamoasi ishtirok etib, viloyat chempionligini qo'lga kiritishdi.

Bu kabi yutuqlar, erishilgan natijalarning ro'yxati uzun. Faqat ularga qarab, bir narsani qisqa muddat ichida Termiz iqtisodiyot va servis universitetining oliy ta'lim tizimida o'rin egallashi, "Eng yaxshi nodavlat oliygoh" sifatida tanilishi uchun 365 kunning har lahzasi imkoniyat bo'lganligini ko'ramiz. Eng muhimi biz ana shu bir yil ichida katta oila bo'loldik va bu oila sharqona qadriyatni o'zida mujassam etgan zamonaviy ta'lim muhitiga aylandi. Yutuqlarimiz zamirida esa, universitet professor-o'qituvchilari, bilimdon va fidoyi talabalari hamda barcha hamkorlarning hissasi beqiyosdir.

07.00.00

TARIX

FANLARI





“TISU ilmiy
tadqiqotlari
xabarnomasi”
ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Qobulov Eshbolta Atamuratovich, Termiz iqtisodiyot va servis universitetining ilmiy ishlar va innovatsiya prorektori, tarix fanlari doktori, professor;
Pardayev Mirzohid Muzaffarovich, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tadqiqotchi

SURXON VOHASI TOG' OLDI DEHQONCHILIGIDA IRRIGATSIYA TIZIMI

Annotatsiya: Maqolada azaldan dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan Surxon vohasining tog' oldi hududlarida irrigatsiya tizimi haqida ma'lumot berilgan. Ma'lumki, tog' relyefining murakkabligi dehqonchilik qilishda murakkabliklarni yuzaga keltiradigan, ammo, mavjud suv zahiralardan (soy, jilg'a), ular mavjud bo'lmagan yerlarda korizdan (oqar quduq) obikor dehqonchilikda foydalanilganligi arxiv hujjatlari, og'zaki tarix, manbalar va tarixiy adabiyotlar materiallari ilmiy qamrovga olingan.

Tayanch so'zlar: relyef, soy, jilg'a, koriz, tarnov, teshma, quduq, astrolibiya.

ИРРИГАЦИОННАЯ СИСТЕМА СУРХАНСКОГО ОАЗИСА В ГОРНОМ СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ

Аннотация: В статье приводится информация о системе орошения в горных районах Сурханского оазиса, которая издавна применялась в сельском хозяйстве. Известно, что рельефы горного хребта создавали сложности в сельском хозяйстве. Но из существующих архивных документов, устной истории, источников и материалов исторической литературы была получена научная информация о том, что для полива при выращивании на землях где ее практически не было воды, использовались запасы воды обикора из кориза (ручья-колодца) полученные путем (soy, жугара).

Ключевые слова: рельеф, соя, жугара, кориз, tarnov, прокалывание, скважина, астролибия.

IRRIGATION SYSTEM OF SURKHAN OASIS IN MOUNTAIN AGRICULTURE

Abstract: The article provides information about the irrigation system in the mountainous areas of the Surkhan oasis, which have long been engaged in agriculture. It is known that the complexity of the mountain topography creates difficulties in farming. But from existing water supplies (soybean, jugar), the fact that they were used in the cultivation of obikor from koriza (stream-well) on lands where they did not exist, archival documents, oral history sources and materials of historical literature, scientific inclusivity was obtained.

Key words: relief, soybean, zhugara, koriz, gutter, piercing, well, astrolibia.

Kirish. Surxon vohasining shartli sug'oriladigan tog'oldi dehqonchiligida irrigatsiya kam rivojlangan. Tog' tabiati (murakkab relyef), tik yonbag'irlarida joylashgan tuproq qatlamlari xususiyatlari, suv berishning qiyinligi irrigatsiya tizimi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Dehqonchilikda soy-adirlar, past tog'lar. o'rtacha baland tog'lardan boshlanadigan oqar suvlardan foydalanilgan. Umuman, voha tog' obikor dehqonchiligida muhim o'rin tutuvchi soy va jilg'alar soni 2200 dan ortiq bo'lib, ularning suv resursi Surxondaryoning yillik suvidan 6 barobar ko'proqdir [1. 14].

O'rta Osiyoda dehqonchilik qilishda koriz tizimidan juda qadimdan foyalanib kelishgan. O'rta asr geografi Istaxriy Marv ko'handizini tasvirlab, koriz haqida shunday yozadi:” ...u

tepalikda joylashgan, ammo tepalik bo'lishiga qaramasdan, undan yer osti kanallari o'tgan, oqayotgan suv bog'dorchilik, polizchilik va boshqa dehqonchilik ishlarida foydalaniladi" [2. 172]. Koriz haqidagi ma'lumot "Mafativ al-ulum" da kazaim, ya'ni yer osti bo'ylab oquvchi suv deb keltiriladi [3. 24,25].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tarixnavislik ilmida qabul qilingan usullar, ya'ni tarixiy tahlil, qiyosiy taqqoslash, xronologik ketma-ketlik tamoyillariga tayanib, Surxon vohasi tog' oldi dehqonchiligida mavjud irrigatsiya tizimlari ilmiy adabiyotlar va dala tadqiqotlarida to'plangan ma'lumotlar bilan taqqoslanib, ilmiy muomalaga kiritildi.

Denov bekligi Sina amlokligiga qarashli To'xtamish, Lo'kka, Xo'jasoat, Bodihavo, Zardaqo'l qishloqlari dehqonchiligida G'oir, Xonxo'ja, Chinor, Ayiqsoy, Oyjig'a, Intizor, Tomchi, Shakar, Qaynar, Zarang [4. 268,274], Boysun bekligi Poshxo'rd amlokligiga qarashli Poshxo'rd, Zarabog', Qorabog', Sherjon, Vandob qishloqlarida 26 ta buloq [5. 376], Panjob qishlog'ining o'zida 114 ta buloq: Hazorxon, Kachdara, Tovsang, Chashmai olbunak, Chashmai sanjiti jangjoli, Chashmai qosim, Chashmai sharsharai Abduvohid, Chashmai Binirez, Chashmai kamarak, Chashmai Kabutak, Chashmai hovli eshon, Chashmai xoki shirin, Chashmai gurgur [6. 36,37], Sherobod bekligiga qarovchi Xomkon qishlog'ida 200 dan ortiq buloq, Konbeshbuloq ko'li va tuya ko'llar [7. 9], Darbandda Qaxtiy, Ganbus, Lochin, Chashmai Halima, Mirzoshoh, Kadu [8. 25] buloq suvlaridan foydalanilgan. Soy va buloqlar suvini

tartibga solish maqsadida kichik-kichik, oddiy va betartib ariq tarmoqlari tashkil etilgan. Poshxo'rd amlokligiga qarashli Poshxo'rd qishlog'i aholisi asosan Dabilsoy suvidan foydalangan. Dabilsoydan Poshxo'rd qishlog'iga qadar bir necha chaqirimli ariq qazilgan.

XIX asr tarixiy manbalarida koriz haqida ancha to'laqonli ma'lumotlar bor. Ularda koriz bu yer osti suvlarini yuqoriga chiqarib beruvchi kanaldir deb ta'rif beriladi [9. 162]. Ilk korizlar gidrogeolog olim Chepmanning ma'lumotiga ko'ra, miloddan avvalgi

512 yillarga to'g'ri keladi [10. 16]. Koriz murakkab gidrotexnik qurilma bo'lib, uni qazish uchun yer osti suvlarining qatlami, yil mavsumlarida suv sathida bo'ladigan o'zgarishlar va koriz qaziladigan joy rel'yefidagi nishablikni aniq belgilash talab etiladi. XVI-XVII asr mualliflaridan Baxouddin Omuliyning "Xulosatul hisob" asarida yozilishicha, koriz qazishda usturlub, shoqulli tarozi kabi asboblardan foydalanilgan [11. 58,59].

Tahlil va natijalar. Surxon vohasining tog'oldi qishloqlarida sug'orma dehqonchilik ishlarida koriz tizimidan unumli foydalanilgan. Rus olimi N.A.Mayev vohada odamlar qadimdan irrigatsiya inshootlarini qurib, undan foydalanish texnologiyalarini o'zlashtirib olganliklari to'g'risida quyidagicha yozadi: "Osiyoliklar azaldan quruq cho'l iqlimi, suvsizlikdan aziyat chekib kelganlar. Shunga qaramasdan, quyosh nuridan foydalangan holda cho'l iqlimida ekin o'stirganlar. Ular suvni tejashni, undan samarali foydalanishni yaxshi bilganlar. Umuman olganda suvsiz joylarga ham suv chiqarish texnologiyasini o'rganib olganlar. Tog'liklar o'z yerlariga suv chiqarish maqsadida barcha qiyinchiliklarni yengib o'tadilar. Baland tog' cho'qqilaridan tushirilgan tarnovni ko'rib hayron qolishingiz mumkin. Sherobod hududidan uncha uzoq bo'lmagan Sherobodaryodan o'tuvchi tor Gumdahanada yog'ochdan yasalgan tarnov bo'lib, u daryodan 2 – 3 sarjin balandlikda joylashgan. Bu qurilma orqali Sheroboddan sharqdagi ekin maydonlariga suv yetkazib berilgan. Agar biron-bir tog' bulog'idan ariq o'tqazishning iloji bo'lmasa, yer osti ariqlari – korizlarni qurib, korizlar orqali



qishloqlarga hayot bag'ishlaganlar [12. 310,311].

Xususan, Sherobod bekligiga kiruvchi tog' qishloqlarida koriz tizimidan unumli foydalanilgan. Bu haqda N.Mayev: "Xatak qishlog'idan pastda 2 – 3 chaqirimdan so'ng Laylagon qishlog'i boshlanadi. Uning dalalari tog' tagidan sizib chiqqan ariqlardan suv ichadi. Laylagonga koriz hayot bermoqda", – deb yozadi [13. 306]. Ayniqsa, koriz qudug'i suvlari Oqtosh, G'oz, Chorbog' qishloqlari dehqonchiligida qo'l kelgan. Koriz oqar quduq, ya'ni yer osti suv qurilmasi bo'lib, qadimdan tog'oldi qishloqlari dehqonchiligida keng qo'llanilgani ma'lum [14. 141]. Koriz quduqlarining oraliq masofasi yerning tuzilishiga qarab, har xil o'lchamda, masalan, 7 – 10 metrdan, Surxon vohasida 20 – 25 metrgacha borgan [15. 21]. Korizlarning uzunligi ham har xil bo'lgan. Ayrim korizlarning uzunligi 3 km gacha borgan. Chuqurligi 1,5 sarjindan 7 sarjingacha yetadigan quduqlar maxsus yo'laklar orqali birlashtirilgan [16. 32]. Murakkab yer osti qurilmasi sanalgan korizlarning qazilishi va unda bajariladigan rasm-rusmlar hamda xo'jalikdagi ahamiyatini bugun Oqtosh, G'oz qishloqlarida istiqomat qilayotgan keksa avlod vakillari xotirasida saqlanib qolgan [17].

Yuqorida nomlari zikr etilgan qishloqlarda 7 – 8 tadan koriz bo'lgan. Bular Zindon koriz, Qizilboy koriz, Oqtosh koriz, Tolkoriz, Chorbog' koriz, Kultepa koriz, Yomon koriz va yana ikkita mayda koriz. Albatta, har bir korizning o'z nomi, nomlanish tarixi mavjud. Zindon koriz-korizlar ichida eng chuquri bo'lgani uchun shunday nomlangan. Qizilboy koriz dastlabki

davrda Yoqub koriz deb atalgan. Yoqub degan kishi korizni qazdirgan va ish boshida turgan ekan. Keyinchalik bu korizlardan suv ichuvchi qishloq Qizilboy deb atalgan [18]. Dehqonlar korizlarni hamma yerdan ham qazishavermagan. Ular yer sharoitini, suv sathini bilib, keyin ishga kirishishgan. Korizlar yerning tepa, baland qismidan qazilgan. Birinchi navbatda, korizning diametri olingan. Asta-sekin qazilib, chuqurlashgan sari uni qazish og'irlashgan. Ana shundan keyin korizlarning diametriga gorizonta va vertikal holatda bir necha yog'och qo'yib, aylanib harakatga keladigan asbob yasashgan. Bu asbob chig'iriqdur. Koriz ichidagi tosh, qum va loylarni tepaga

chiqarish uchun chelak yasalgan. Chelak, asosan tuyening terisidan tikilgan. Arqonni tuya, ho'kiz terisidan maxsus tayyorlaganlar. Koriz ichidagi qum, toshlarni tepaga chiqarishda otdan foydalanilgan.

Tog' qishloqlari xo'jaligida korizlarning ahamiyati katta bo'lgan. Chunki, ular ekinni, chorvani va aholini ichimlik bilan ta'minlagan. Koriz suvi bilan sug'orilgan bug'doy, arpadan yuqori hosil olingan. Ayniqsa, koriz suvi bilan sug'orilgan "ko'kcha" nafaqat o'zining shirinligi bilan, shuningdek uzoq vaqt saqlanishi bilan ham boshqa beklalarda ekilgan qovunlardan farq qilgan [19. 107]. Qolaversa, koriz suvlaridan jo'xori, beda, poliz ekinlarini sug'orishda ham foydalanilgan. Ko'hitang tog'oldi qishloqlarida bog'dorchilikda, asosan mevali daraxtlar yiliga ikki marta: qishki chilla va yozgi chilla davrida sug'orilgan. Ta'kidlash lozimki, Ko'hitang tog'oldi qishloqlarida paxta ham yetishtirilgan. Bu davrda paxtaning "movrig'o'za" navi ekilgan. Bu paxta hozirgidek egatlab emas, balki pol qilib ekilgan. Oqtosh, G'oz qishloqlarida yashayotgan qariyalar koriz suvi bilan qancha ekin maydonini sug'orishganini ham bilishadi. Ularning aytishicha, Qizilboy korizi suvidan, asosan Qizilboy qishlog'i aholisi foydalangan. Qishloq ahlining 12 paykal yeri bo'lgan. Demak, qishloqning umumiy ekin ekiladigan yeri 50 – 60 gektarni tashkil qilgan [20. 133]. Qishloq aholisi koriz suvini 1 sutkada navbati bilan olgan. Koriz suvlari yilning sentyabr, oktyabr oylariga kelib

ko'paya boshlagan, iyun oyida esa kamaygan. Suvi yer yuzasiga yaqin korizlarning suvi ko'paygan yoki kamaygani bilinmagan, yozmi, qishmi bir xil miqdorda bo'lgan. Ular jumlasiga Qizilboy korizi, Kultepa korizi, Chorbog' korizi, Yomon korizlarni kiritish mumkin. Zindon korizi chuqurligi sababli kuzda ko'paygan, yoz oylarida kamaygan, qishda esa suvi yer yuzasiga ancha yaqin kelib qolgan. Koriz quduqlari har bahorda tozalab turilgan. Hozir zamonaviy suv tortish texnikalari ko'pligi sababli ayrim koriz quduqlari ishdan chiqib qolmoqda, ammo Qizilboy, Tol korizlardan hanuzgacha foydalaniladi.

Bundan tashqari, tog'oldi va dashtli hududlarda shartli bir martalik sug'orish, ya'ni sel suvidan samarali foydalanilgan. Bahorda Surxondaryoning Qanikonsoy, Belisiniq, Darvozakan, Selga, Tammasoy, Bo'risoy kabi soylarida suvlarni qator ariqchalar shaklida to'plab tekislik tomon oqizganlar. Dehqonchilikda suvdan foydalanishning bu turi "selovakorlik" deb nomlanadi [21. 134].

Xulosa: Surxon vohasi jahon sivilizatsiyasi tarixida ilk dehqonchilik madaniyatiga asos solingan hududlardan biri bo'lib, tabiiy sharoiti va iqlimining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, sun'iy sug'orish tizimida o'ziga xos maktabga asos solingan. Vohada sun'iy sug'orish tizimi dastlab daryo bo'ylarida, shuningdek buloqlar, korizlar va soy irmoqlariga yaqin past tekisliklarda paydo bo'lib, dehqonchilik madaniyati rivojlanib borishi natijasida daryolarning o'zanlari, suv chiqarish imkoni bo'lgan qulay qirg'oqlar atrofida dastlabki ariqlar, kanallar, to'g'onlar qurilib, sun'iy sug'orish tizimi asta-sekin rivojlantirilgan. Xullas, mahalliy xalq vakillari dehqonchilik qilish uchun sun'iy sug'orish tizimining barcha usullaridan foydalanganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Саидов А. Тоғ сойлари – суғориш манбаи. – Тошкент, 1974. – Б. 14.
2. Истахри // МИТ, Т.1.- С.172.
3. Вяткин В.Л. Материалы к исторической географии Самаркандского вилайета. СКСО, Вып.Х. –Самарканд, 1902. – С. 24-25.

4. Кап. Стеткевич. Бассейн Каратаг-дарьи. – С. 268 – 274; Дала ёзувлари. Олтинсой тумани кишлоқлари, 1999.
5. Полк. Галкин. Военно-статистический очерк средней и южной частей Сурханской долины // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Вып. 57. – СПб., 1894. – С. 376.
6. Қаландаров Р. Панжоб ва панжобликлар тарихи. – Термиз:Жайхун, 1997. – Б.36-37.
7. Файзуллаева М., Кичкилов Ш. Хомкон. – Тошкент, 2022. – Б.9.
8. Шоимов П. Дарбанд- қадимий макон. – Қарши: Насаф, 1999. – Б.25
9. Арадаренко Г.А. Досуги в Туркестане. –С, 162; Радлов В.В. Средняя Зерафшанская долина // ЗРГО по отделению этнографии. Т.6. – СПб., 1880. – С.9.
- 10.Чепман Р.Е. Геология и вода. – Ленинград: Недра, 1983. –С.16.
11. Муҳаммаджонов А. Ўзбекистоннинг қадимги гидротехника иншоотлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 58-59.
12. Маев Н.А. Материалы для статистики Туркестанского края. – С. 310 – 311; Арандаренко Г. К вопросу о каризах // ТВ. – 1874. №29; Цимбаленко Л.И. Кяризы Закаспийской области. – СПб., 1896.
13. Маев Н. Очерки Бухарского ханства //Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. V. – С. 306.
- 14.Федченко А. Карись (подземный арык близ Пяджикента) // Туркестанский сборник, 60 т. – С. 141. Муфассал қаранг. Муҳаммаджонов А.Ўзбекистоннинг қадимги гидротехника иншоотлари. – Б. 56 – 62.
15. Кабулов Э.Кяризная система орошения на юге Узбекистана // Социосфера.– 2016. № 3. – С.21.
16. Мазов С. Восточная Бухара, Бадахшан и северный Афганистан. – С. 32.
17. Дала yozuvlari.SHerobod tumani qishloqlari. 2008 yil.
18. Дала yozuvlari. SHerobod tumani qishloqlari. 2008 yil.
19. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими. – С. 107.



“TISU ilmiy
tadqiqotlari
xabarnomasi”
ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

G'afforov Shokir Safarovich,
Samarqand davlat universiteti professori,
tarix fanlari doktori

“TEMUR TUZUKLARI” - MUHIM TARIXIY MANBA

Annotatsiya: Maqolada buyuk davlat arbobi, mashhur askarboshi, vatanimizda mo'g'ullar hukmronligiga barham berib, markazlashgan davlat barpo etib, unga qonunlar bergan – Amir Temurbekning tuzuklari ijtimoiy-huquqiy jihatdan tadqiq etiladi. Tuzuklardagi axloqiy g'oyalar temuriylar davri ilm-marifat, ma'naviyat va madaniyat rivojida muhim o'rin tutishini hamda boy tarbiyaviy-axloqiy ahamiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Jahon tarixida odil hukmdor va mohir sarkarda sifatida nom qoldirgan, badiiy asarlarda ham buyuk saltanat va taxt sohibi deb tilga olingan Amir Temurning hayotiy tajribalari, axloqiy, falsafiy qarashlari ko'rsatib berilgan “Temur tuzuklari”da boshqaruv odobi, diplomatik etiket, muomala odobiga doir masalalar tizimli tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: davlat, hudud, siyosat, qonun, tuzuk, huquq, harbiy qo'shin, soliq, savdo, iqtisod, axloq, vatanparvarlik, madaniyat, adabiyot.

“TEMUR TUZUKLARI” ВАЖНЫЙ ИСТОРИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК

Аннотация: В статье с социально-экономической точки зрения исследуются “Уложения Темура” Амира Темура, великого государственного деятеля, известного полководца, положившего конец господству монголов в нашей стране, создавшего централизованное государство и давшего

ему законы. Этические идеи в тузуках показывают, что тимуридский период занимает важное место в развитии науки, духовности и культуры и имеет богатую воспитательную и нравственную ценность. В «Уложении Тимура», в которой системно анализируются вопросы, связанные с управленческим этикетом, дипломатическим этикетом.

Ключевые слова: государство, территория, политика, право, конституция, право, армия, налог, торговля, экономика, мораль, патриотизм, культура, литература.

“TEMUR TUZUKLARI” - AN IMPORTANT HISTORICAL SOURCE

Annotation: From a socio-economic point of view, the article examines Temur's Codes by Amir Temur, a great statesman, a well-known commander who put an end to the rule of the Mongols in our country, created a centralized state and gave it laws. Ethical ideas in tuzuks show that the Timurid period occupies an important place in the development of science, spirituality and culture and has a rich educational and moral value. In the Code of Timur, which systematically analyzes issues related to managerial etiquette, diplomatic etiquette.

Key words: state, territory, politics, law, constitution, law, military, tax, trade, economy, morality, patriotism, culture, literature.

Kirish. Ma'lumki, o'zbek xalqi qadimiy xalqlar



TARIX EANLARI

qatorida ming yillar avval taraqqiyot eshiklarini ochib, dovrug‘i dunyoga tanilgan yirik davlat tuzilmalarini bunyod etdi. Bu davlat tuzilmalarida milliy davlatchilik asoslari mavjud. Ulug‘ ajdodlarimizning qadimiy tajribalarini o‘rganish milliy davlatchilik an‘analari tiklanayotgan bugungi davrda muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimda ajdodlarimiz Baqtriya, Xorazm, So‘g‘diyona, Dovon, Qang‘, Qushon kabi juda ko‘plab yuksak taraqqiyotga erishgan jahonda, o‘z davrida kuchli sanalgan davlatlar tuzdilar. «Qat‘iy qonunlar» degan ma‘noni anglatuvchi «Avesto» kitobi milliy tariximizga oid eng qadimiy siyosiy-iqtisodiy, huquqiy va ma‘naviy ta‘limotlar majmuidir. Mug‘ tog‘idan topilgan qadimgi So‘g‘diyona davlati tarixiga tegishli manbalar ham azaldan bizda kuchli va mukammal davlatchilik asoslari yaratilganidan dalolat beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Milliy tariximizda zalvorli, milliy davlatchiligimiz har taraflama taraqqiy etgan davrlaridan biri - Amir Temur va temuriylar davridir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov Amir Temurning davlatchilik tajribasiga yuksak baho berib, jumladan: «Buyuk strategik, mohir siyosatchi, eskirgan ijtimoiy munosabatlarning qat‘iy islohatchisi, savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniyatning homiysi bo‘lgan Amir Temur qonunlar va urf-odatlariga asoslangan davlatni barpo etdi», -deb uning mustahkam davlat tuzganligini alohida ta‘kidladi.

«Temur tuzuklari» ilmiy jamoatchilikni deyarli 500-600 yil mobaynida qiziqtirib kelmoqda. Shu bois, Birinchi Prezidentimiz I.Karimov o‘z asarlari va chiqishlarida «Sohibqiron tuzuklari» va «o‘g‘itlari» ga tez-tez murojat qiladi, zero kelajagi buyuk davlat qurayotgan ekanmiz, o‘tmishning ma‘naviy tamoyillari bizni adolatli yo‘llardan yuksak taraqqiyotga olib borishi, shubhasiz. Xuddi shu ma‘noda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov yozuvchilar bilan bo‘lgan suhbatida bu haqda zo‘r mamnuniyat bilan quyidagilarni ta‘kidladi: “Amir Temur tuzuklarini o‘qisam, xudi bugungi zamonning katta-katta muommolariga javob topgandek bo‘laman,

shuning uchun strategiyani juda puxta o‘ylash kerak. Balki ota-bobolarimiz qoldirgan merosdan foydalanib o‘zimizga xos, o‘zimizga mos strategiyani ishlab chiqish kerak bo‘ladi” [1, B.2.].

«Temur tuzuklari» da Amir Temurning tarjimai holidan tashqari, davlat va qo‘shinlar tuzilishi, ularni boshqarish, shuningdek, Chig‘otoy ulusining 50 yildan

ortiq davr (1342-1405) dagi tarixiga doir qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan. Amir Temurning o‘z farzandlari va nabiralari, ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyatlariga nasihat sifatida bayon etilgan. Bu asar tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lib, dastlab eski o‘zbek tilida yozilgan. «Temur tuzuklari»da asar xalqaro miqyosida keng jamoatchilik e‘tiboriga tushganligi tufayli, 1783 yil ingliz, 1785 va 1791 yillarda hind, 1868 yilda fors, 1787 yilda fransuz, 1830 yilda yana ingliz, 1845 yilda urdu, 1894, 1934 yillarda rus va 1835, 1857 yillarda (ammo to‘liq emas) eski o‘zbek tilida, 1991, 2011 yillarda o‘zbek tilida nashr etilgan.

«Temur tuzuklari» ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi Amir Temurning davlat boshqaruvini tashkil etish, uni mustahkamlash hamda mukammal qurollangan qudratli qo‘shin tuzish borasidagi rejaları va qarorlaridan iboratdir. Asarning 13 kengash (qism) dan iborat ikkinchi qismida esa Sohibqironning davlat va qo‘shin qudratini oshirish, dushmanlarni bartaraf etish yuzasidan o‘tkazgan kengashlari va amalga oshirgan ishlari o‘z ifodasini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur



maqolada qator metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, Amir Temurning davlat boshqaruvi, harbiy sarkardalik mahorati, din peshvosi va adolatparvarligi hamda ilm-fan olimu-peshvolariga homiylik qilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar “Temur tuzuklari” asarida o‘z aksini topgan.

Tahlil va natijalar. “Tuzuklarda” bayon etilishicha, Amir Temur davlatining asosini 12 ta ijtimoiy toifa tashkil etgan bo‘lib, bu toifalar quyidagilardan iboratdir; 1. Sayyidlar, ulamo, shayxlar; 2. Bilimdon, fozil kishilar, 3. Duogo‘y, taqvodorlar, 4. Amirlar, qo‘shin boshliqlari; 5. Sipoh va raiyat (qora xalq); Saltanat ishlari bo‘yicha kengashishga loyiq kishilar; 7. Vazirlar, sarkotiblar va devon bitikchilari; 8. Hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislar; 9. Muhaddislar (hadis olimlari) va roviylar (tarixshunoslar); 10. So‘fiylar va oriflar; 11. Hunar va san‘at ahli; 12. savdogar va sayyohlar [2, B.64-65].

“Tuzuklar” da ta’kidlanishicha, davlatni idora qilishda vazirlar, olimlarning roli katta bo‘lgan. Shuning uchun ham Amir Temur ularni tanlashga alohida e’tibor bergan. Ular sadoqatli, axloqiy pok, adolatpesha, tinchliksevar va tashabbuskor bo‘lishi lozim edi. “Tuzuk” ga ko‘ra, vazirlar to‘rt sifatga ega bo‘lishi shart edi: 1. Toza nasllik va ulug‘vorlik; 2. Aqlu farosatlilik; 3. Sipoh va raiyat aholini, ulardan xabardor bo‘lish va g‘amxo‘rlik qilish; 4. Sabru bardoshli, xushmuomalali bo‘lish [2, B.74-75].

“Tuzuklar” da ta’kidlanishicha, Amir Temur bir cheti Chinu Mochinga, ikkinchi cheti Shomga borib taqalgan ulkan mamlakatni quyida vazifalari ko‘rsatilgan 7 nafar vaziri yordamida boshqargan. 1. Mamlakat va raiyat vaziri; 2. Sipoh vaziri; 3. Daromad va xarajatlar vaziri; 4. Saltanat ishlari yurituvchi vazir; 5. Qozi kalon; 6. Jalol ul-islom-favqulodda huquqlarga ega bo‘lgan vazir; 7. Vaziri devoni insho – boshqa mamlakatlar bilan yozishmalar devoni boshlig‘i [2, B.85]. El-yurt obodligi, xalqning farovanligi, saltanatning ustivorligi

ko‘p jihatdan shu vazirlarning ishbilarmonligi va rahbarlik qobiliyatlariga bog‘liq bo‘lgan.

“Tuzuklar” da ko‘rsatilishicha, Amir Temur soliq tizimi va obodonchilik ishlariga ham alohida e’tibor bergan. “Amir qildimki, -deb yozadi sohibqiron, - hosil pishib yetilmasdan burun raiyatdan molu jihot olinmasin. Hosil yetilgach, hosilni uchga bo‘lib olsinlar. Agar raiyat soliq to‘plovchi yubormasdan, soliqni o‘zi keltirib bersa, u holda u yerga soliq to‘plovchi yubormasinlar. Agarda oliq-soliq olishga yuborishga majbur bo‘lsalar, ular soliqlarni buyruq berish va yaxshi so‘z bilan olsinlar; kaltak arqon ishlatib, ishni urish, so‘kishgacha olib bormasinlar... amr etdimki kimda-kim biron sahroni obod qilsa yoki koriz (yer osti suvlarini tortib chiqaradigan inshoot) qursa, yoki biron bog‘ ko‘kartirsa, yoxud biron xaroba bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili o‘z roziligi bilan bergan narsalarni olsinlar, uchinchi yili qonun-qoidaga muvofiq xiroj olsinlar” [2, B.99]. Amir Temur soliq solish tartibi, miqdori va uni undirish ishlarini ham kuzatib borgan. Soliq va o‘lpon yig‘uvchilarning faoliyati ustidan doimiy nazorat o‘rnatgan.

Amir Temur qo‘shinlari yaxshi qurollangan, tashkiliy jihatdan mukammal, jang paytida taktika va strategiya usullaridan yaxshi

xabardor bo'lgan. U tashkil qilgan qo'shinlar tizimi O'g'izxon va Chingizxon qo'shinlarinikiga o'xshasada, davr talabiga ko'ra ancha takomillashgan edi. Qo'shinlar otliq va piyoda askarlardan iborat bo'lib, harbiy safarbarlikka chaqirilgan piyoda sipoh o'zi bilan qalqon, qilich, bolta, nayza kamon, 30 dona o'q va bir oyga yetarli ozuqa bilan kelishi lozim bo'lgan. Otliq suvoriylar harbiy safarbarlik davrida o'zlari bilan birga ikkitadan ot, soyabon, bel, o'roq, arra, bolta, juvoldiz, 100 dona igna, arqon, charm mesh, qozon olishgan. Har 10 kishiga bitta chodir olingan.

Amir Temurning olijanob xislatlaridan biri boshqalarning gunohlarini kechira bilishi edi. "Menga yomonliklar qilib - deyiladi "Tuzuklar" da, - boshim uzra shamshir ko'ratib, ishimda ko'p ziyon-zarar yetkazganlarni ham iltijo bilan tavba-tazarru qilib, kelgach hurmatlab, yomon qilmishlarini xotirimdan o'chirdim. Martabalarini oshirdim, ular bilan muomalada shunday yo'l tutdimki, agar xotiralarida menga nisbatan shubhayu qo'rquv bo'lsa, butunlay unut bo'lardi. Shuni ham ta'kidlash joizki, Amir Temur gunoh qilgan kishilarni faqat uch marotabagacha kechirgan. Amir Temur xiyonatkor, ochko'z, nafsi buzuq, ziqna va xushomadgo'y kishilardan nafratlanagan. «Qaysi bir sipohiy tuz haqi va vafodorlikni unutilib, - deyiladi "Tuzuklarda – xizmat vaqtida o'z sohibidan yuz o'girib, ming oldinga kelgan bo'lsa, unday odamni o'zimga eng yomon dushman deb bildim [2, B56-57]. "Tuzuklarda" do'stlik, vafodorlik, iymon va e'tiqod, insonparvarlik va boshqa insoniy fazilatlariga rioya qilish, fuqorolarning shariat qonun-qoidalariga bo'ysunishi uqtirib o'tiladi. Qozilarning qonunlarga to'la amal qilishi, tartib buzarlarni jazolash, sipohlar va askarlarni saqlash, ularni oziq-ovqat va maosh bilan ta'minlash masalasi, vazirlar va ularning vazifalari, amirlar, sipohlar va boshqalarning xizmatlarini taqdirlash tartiblari

kabi turli masalalar bo'yicha mufassal ma'lumotlar beriladi. Xulosa qilib aytganda, «Temur tuzuklari» Amir Temurning og'ir va murakkab hayoti, o'zining xukumronligi davrida xalq va jamiyat manfaati uchun jon kuydirishi, qudratli davlati va qo'shinlarini boshqarish haqida ma'lumotlar bilan bir qatorda jamiyatni idora qilish haqida zarur saboqlar beradi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, xalqiga muruvvatli bo'lgan sohibqiron bemavrid, bo'lar-bo'lmasga mol-xiroj kabi soliqlar solinishiga qarshi bo'lgan va imkoniyat darajasida xalqni soliqlar to'lashdan ozod qilib turgan. Bu haqda "Tuzuklar"da shunday deyiladi: "Amir etdimki raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish (davlat) xazinani kambag'allanishga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa, sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqoqligi, o'z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi" [2, B.98.].

Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson savdogarlari Osiyo mamlakatlari, ayni zamonda Buyuk ipak yo'li orqali Yevropa mamlakatlari bilan ham savdo aloqalar o'rnatishgan. Savdo-sotiq aloqalarida Temur va temuriylar tomonidan zabt etilgan kumush, mis tangalar katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ular Movarounnaxrda savdo-sotiq muomalasini tartibga solishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Temuriylar davrida sivilizatsiya yangi bosqichga ko'tarildi. Avvalo davlatchilik qonun-qoidalar puxta shakllandi. Sohibqiron fan, madaniyat,



san'at, ma'morchilikning ibratli homiysi bo'ldi. Samarqand, Buxoro, Turkiston, Xirod va boshqa shaharlarda rasadxonalar, masjid, madrasalar qurildi, maktablar ochildi. San'at va adabiyotga e'tibor kuchaydi. Ayniqsa, kutubxonachilikni rivojlantirishga, nodir qo'lyozmalarni saqlashga doir ishlar e'tiborga loyiqdir. Temuriy shahzodalardan Mirzo Ulug'bek, Mirzo Shoxruh, Mirzo Boysung'ur va Husayn Boyqarolarning kutubxonalarini ham noyob turli adabiy-badiiy, ilmiy kitoblarga boyligi bilan Amir Temurning Samarqanddagi kutubxonasidan qolishmagan. Birgina Ulug'bek rasadxonasi qoshidagi kutubxonada qariyb 15 ming kitob saqlangan.

Mirzo Ulug'bek va uning atrofida jipslashgan olimlar – Qozizoda Rumiy, Jamshid al-Koshiy, Muhammad Havofiy, Ali Qushchi kabi olimlar astronomiya, matematika va boshqa aniq fanlar sohasida muhim kashfiyotlar qildilar. Ulug'bek ilmiy maktabining eng katta yutug'i, avvalo, astronomiya, matematika, geometriya kabi fanlar sohasida muhim kashfiyotlar qiladi. Ulug'bek rasadxonasida 1018 ta yulduzning katalogi tuzilib, ularning xarakati o'rganildi. Ulug'bekning yulduzlar jadvali jaxon astranomlari uchun muhim manba sifatida ko'p madaniy markazlarda, xususan London, Parij, Danchigda, 1917 yili Vashingtonda va boshqa shaharlarda ilmiy izohlar bilan chop etildi.

Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Sakkokiy, Lutfiy, Koshifiy, Behzod kabi noyob iste'dod egalari buyuk gumanistik asarlar yaratgan bo'lsalar, Nizomiddin Shomiy, Sharofiddin Ali Yazdiy, Hafizu Abru, Mirxond, Xondamir va boshqalar vatanimiz tarixiga oid muhim ma'lumotlar qoldirdilar. Ulug [2, B.85.].

Donishmand, davlat arbobi sifatida shuhrat qozongan Alisher Navoiy o'zining butun ijodiy faoliyatini o'zbek adabiy tilini takomillashtirish bilan bir qatorda, jamiyat farovonligi, inson baxt- saodati, yurt obodligi, bilim, aqlli va zakovatli kishilarni yetishtirishga bag'ishladi, ko'plab shogirdlar yetishtirdi. Uning asarlarida saltanatni halokatga olib keluvchi sabablar ko'rsatilgan. Alisher Navoiy xukmdorlar va amaldorlarning mamlakat

obodonligi va farovonligini ta'minlashga undagan.

Xulosa. Amir Temur va Temuriylar davridagi moddiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotning o'lka xalqlari birligini ta'minlash va xalqimiz hayotida tutgan o'rnini inobatga olib, bu davrni asosli ravishda mamlakatimizdagi ikkinchi renessans (uyg'onish) davri deb hisoblash maqsadga muvofiqdir. Amir Temur tomonidan yozilgan "Tuzuklar" Amir Temur va temuriylar davrida davlatchilikni rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan va bu muhim asar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Elni Vatan ma'rifati birlashtiradi. I.A. Karimovning bir guruh yozuvchilar bilan ucharashuvi. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi 30 aprel № 8. 1993. B.2.
2. Temur tuzuklari. Toshkent: "G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi", 1991. B.64-65.
3. Temur tuzuklari. Toshkent: "G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi", 1991. B.74-75.
4. Temur tuzuklari. Toshkent: "G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi", 1991. B.85.
5. Temur tuzuklari. Toshkent: "G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi", 1991. B.99.
6. Temur tuzuklari. Toshkent: "G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi", 1991. B.56-57.
7. Temur tuzuklari. Toshkent: "G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi", 1991. B.98.



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

To'xtayev Abdug'ani Qilichovich,
Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti,
tarix fanlari nomzodi

MUSTAQILLIK YILLARIDA SARIOSIYO VA UZUN TUMANLARI TIBBIYOT TIZIMI

Annotatsiya: Maqolada Mustaqillikning ilk davrlarida Sariosiyo va Uzun tumanlarida iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi tufayli davlat budjetida sog'liqni saqlash ulushining kamayishi, uning moddiy-texnik bazasini yangilash, yangi dorilar va davolash usullarini o'zlashtirish jarayonlarining pasayishiga olib kelganligi natijasida viloyat hokimining “Viloyat sog'liqni saqlash ishlarining samaradorligini oshirish hamda tibbiy yordam sifatini yaxshilash to'g'risida” gi 1993 yil 27 fevral qarori asosida bu sohada bir qator dolzarb vazifalar belgilanishiga asosan, aholining sog'lig'ini saqlash borasida miqdor ortidan quvish emas, balki tibbiy xizmatning pirovard natijasiga qarab harakat qilish vazifalari belgilanib olinishi natijasida bu ikki tumanda tibbiyot sohasida erishilayotgan yutuqlar va muammolar aniq malumotlar asosida ko'rsatib berilgan.

Tayanch so'zlar: Tibbiy kadrlar, tibbiy asbob-uskunalar, ich terlama, qizamiq, quturish kasalligi, gemodializ, tomografiya.

МЕДИЦИНСКАЯ СИСТЕМА САРИАССИНСКОГО И УЗУНСКОГО РАЙОНОВ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация: В статье рассматривается сокращение доли здравоохранения в государственном бюджете в связи со снижением темпов экономического роста в Сариассинском и Узунском районах в первые периоды независимости, обновлением его материально-технической базы, сокращение процессов освоения новых лекарственных средств и методов лечения, в результате принятия хакимом области “Повышения эффективности работы здравоохранения

области” и на основании постановления от 27 февраля 1993 г. “О повышении качества медицинской помощи”, на основе определения ряда неотложных задач в этой области достижения в области медицины в этих двух округах определялись в результате определения задач не гнаться за количеством в плане сохранения здоровья населения, но действующие по конечному результату медицинского обслуживания, а задачи представляются на основе конкретных данных.

Ключевые слова: Медицинский персонал, медицинская техника, диарея, корь, бешенство, гемодиализ, томография.

THE MEDICAL SYSTEM OF SARIASIA AND UZUN DISTRICTS DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Abstract: In the article, the reduction of the share of health care in the state budget due to the decrease in economic growth rates in Sariasia and Uzun districts in the early periods of independence, which led to a decrease in the process of updating its material and technical base, assimilation of new drugs and treatment methods, the regional governor's "Improving the efficiency of regional health care work and on the basis of the decision of February 27, 1993 "On improving the quality of medical care", based on the determination of a number of urgent tasks in this field, the achievements in the field of medicine in these two districts were determined as a result of the determination of the tasks of not chasing after the quantity in terms of maintaining the health of the population, but acting according to the final result of the medical service and problems are presented based on specific data.

Key words: Medical personnel, medical



equipment, diarrhea, measles, rabies, hemodialysis, tomography.

Kirish. Yangi O'zbekiston sharoitida inson qadri va salomatligi yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar asosida tibbiyot tizimida ham ulkan o'zgarishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholi salomatligini muhofaza qilish yuzasidan respublikada amalga oshirilgan tadbirlar xalqaro jamoatchilik tomonidan e'tirof etildi. Shuningdek, respublikada onalik va bolalikni muhofaza qilish, aholini o'rtacha umr ko'rish darajasini oshirish, aholini dori-darmon vositalari bilan ta'minlash, tibbiyotda xususiy sektorning o'rnini oshirish, zamonaviy tibbiy diagnostika va davolash vositalarini sohaga tadbir qilish bilan bog'liq qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqillikning ilk davrlarida Sariosiyo va Uzun tumanlarida iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi tufayli davlat budjetida sog'liqni saqlash ulushining kamayishiga, uning moddiy-texnik bazasini yangilash, yangi dorilar va davolash usullarini o'zlashtirish jarayonlarining pasayishiga olib keldi. Sariosiyo va Uzun tumanlaridagi kasalxonalar, poliklinikalar, ambulatoriyalar va dorixonalar ixtisoslashmagan binolarda joylashib, asosiy qismida kanalizatsiya va issiq suv yo'q edi. Bu holatlar ayniqsa, qishloq joylarda nihoyatda achinarli ahvolda edi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mustaqillik davrida O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimi tarixi tarixchi olimlar tomonidan ham tadqiq etilib, monografiya, maqola ko'rinishidagi ilmiy ishlar nashr etildi. Bunda ayniqsa M.Maxmudov, B.Umrzoqov [1], A.Qodirov [2], Sh.Iskandarova [3] va G.E.Mo'minova [4] larning izlanishlari diqqatga sazovordir. Mustaqillik yillarida sog'liqni saqlash tizimini o'rganishga bag'ishlangan bir qator dissertatsiya ishlari ham himoya qilindi. G.E.Mo'minova [5], S.A.Djumanov [6], O.R.Ochilova [7], A.Z.Xujanazarov [8] kabilarning dissertatsiya ishlari shular jumlasidandir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umumiy qabul qilingan metodlar – xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida Surxondaryo viloyati Sariosiyo

va Uzun tumanlarida mustaqillik yillarida sog'liqni saqlash sohasidagi o'zgarishlar bayon etilgan.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda aholiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar sifati tubdan oshirilib, tibbiyot muassasalarining resurslar salohiyatini yaxshilashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Sog'liqni saqlashning milliy tizimini jadal rivojlantirish ishlarini tizimli va sifatli tashkil etish uchun umumiy amaliyot vrachlarining, patronaj tibbiyot hamshiralarning, qishloq vrachlik punktlari, shoshilinch va tez tibbiy yordam xizmati, shu bilan birga, mamlakat sog'liqni saqlash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish zarur bo'lgan sharoitda tibbiyot sohasini boshqarishning innovatsion modelini joriy etish masalalari davlatning diqqat markazida turibdi. Sog'liqni saqlashga ajratilgan mablag'ning kamligi kasalxonalar va poliklinikalarni zamonaviy texnika va asbob-uskunalar bilan ta'minlash darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Agar 1980-yillarda shifoxonalardagi o'rinlar sonini oshirishga zo'r berilib, har bir o'rinni uskunalar bilan ta'minlashga o'rta hisobda to'rt ming so'm sarflangan bo'lsa, bu ko'rsatkich Sariosiyo va Uzun tumanlarida 2,0 ming so'mni tashkil etgan edi.

Jahon amaliyotining dalolat berishicha, tibbiy xizmat ko'rsatish sifati faqat kasalxonalardagi o'rinlar va vrachlar soni bilangina o'lchanmaydi. Masalan, 1992 yil ma'lumotlariga ko'ra, viloyatda har 10 ming aholiga 32 nafar vrach to'g'ri kelgan bo'lsa (respublikada 34 nafar), bu raqam Turkiyada-10, Angliyada-19, Fransiyada-24, AQSH da-26, hamda Germaniyada-31 nafarni tashkil qilgan edi.

Kasalxonalardagi o'rinlar soni viloyatda har 10 ming aholi hisobiga 115 ta bo'lsa (respublikada-121 ta), bu raqam Turkiyada-21, AQSH da-55, Angliyada esa-

75 tani tashkil qilgan edi [9]. Demak, bu sohada ilg'or davlatlar qatoridan o'rin egallashimizga qaramasdan, bemorlarga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatining darajasi bunga nomutanosib ekanligi ayon bo'ldi. Shuning uchun tibbiyot sohasida islohotlar asosan ambulatoriya-poliklinika, qishloq vrachlik punktlarini rivojlantirishga qaratilishi lozim ekanligi anglab yetildi.

1991 yil viloyatda vrachlar soni 3315 nafar, hamshiralar soni 11153 nafarga yetib, mavjud 107 ta kasalxonada 1576 o'rin bor edi [10]. 1990 yilda oliy ma'lumotli vrachlar Sariosiyoda 331 nafarni, Uzunda esa 165 nafarni tashkil etdi. 1989 yilning 1 iyul holatiga ko'ra, Boysun, Gagarin (Muzrabot), Denov, Sariosiyo, Termiz hamda Sherobod tumanlarida 11 ta FAP (feldsher-akusher markazlari) va 19 ta qishloq vrachlik ambulatoriyalari qurilmasdan qoldi [11].

Surxondaryo viloyatining ayrim joylaridagi aholining ijtimoiy sharoiti og'irligi tufayli yuzaga kelayotgan sil kasalligiga qarshi kurash qoniqarli darajada uyushtirilmadi. Natijada bu turdagi kasalliklarning faqat 51 foizini aniqlash imkoniyati bo'ldi xolos [12]. Boshqa turdagi o'tkir yuqumli kasalliklar borasida ham viloyat og'ir ahvolda bo'lib, 1990 yilda viloyat bo'yicha ichterlama kasalligi qariyb 2,5 martaga, qizamiq 26 foizga, difteriya va quturish kasalliklari bir necha baravarga ortganligi kuzatildi [13].

Surxondaryo viloyati tibbiyot sohasida yuqorida qayd etilgan hamda boshqa nuqson va kamchiliklarga barham berish maqsadida, viloyat hokimining "Viloyat sog'liqni saqlash ishlarining samaradorligini oshirish hamda tibbiy yordam sifatini yaxshilash to'g'risida" gi 1993 yil 27 fevral qarori asosida bu sohada bir qator dolzarb vazifalar belgilandi [13].

Unga asosan, aholining sog'lig'ini saqlash borasida miqdor ortidan quvish emas, balki tibbiy xizmatning pirovard natijasiga qarab harakat qilish; ambulatoriya-poliklinika muassasalarining moddiy-texnikaviy zaminini mustahkamlab, ularning nufuzini oshirish; aholi salomatligini mustahkamlash va kasalliklarga chalinishning oldini olish maqsadida, dispanserizatsiya sifatini har taraflama yaxshilash; aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish maqsadida, barcha mutasaddi idoralar xodimlarining ko'magida tadbirlar ishlab chiqish; eng muhimi, bu sohada mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimining sifatini oshirish kabi vazifalar

belgilandi.

Sariosiyo va Uzun tumanlarida tibbiyot mutaxassislariga bo'lgan e'tibor mustaqillik yillarida bir muncha o'sdi. Ularning tajribalari umumlashtirilib, Respublika ilmiy-uslubiy markazlari bilan aloqasi mustahkamlandi. Sariosiyo va Uzun tumanlarida tibbiyot xodimlarining soni oshib borishi aholiga bo'lgan xizmatni yaxshilash bilan birga, yangi davolash bo'limlarining tashkil topishiga, tibbiyot xizmati sifatini oshirishga ham imkoniyat yaratdi.

Tibbiyot sohasiga bo'lgan e'tiborning kuchayishi natijasida viloyatdagi ko'pgina kasalxonalar qayta ta'mirdan chiqarildi. Aholiga bo'lgan tibbiyot xizmatini yaxshilash maqsadida xorijiy mamlakatlardan zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalar keltirildi. Yaponiya, Finlyandiya, Fransiya, AQSH hamda Germaniyadan keltirilgan tibbiy asbob-uskunalaridan foydalanish, bioximik analizatorlar va boshqa zamonaviy apparaturalar shifokorlarga yanada samarali ishlashlari uchun qulay imkoniyatlar yaratdi.

Shuningdek, Germaniyaning "Simens" firmasidan "Seraskop SX" modeli rentgenodiagnostik apparatidan ikki dona olib kelib o'rnatildi. Eng muhimi, viloyat aholisining sog'lig'ini saqlash uchun sun'iy buyrak, gemodializ, suvni filtrlaydigan va odam organizmi uchun mos suyuqlik yetkazib beradigan filtrlash apparatlari bir necha o'nlab avtoklavlar, kardiomonitor va stomatologik komplekslar qurib foydalanishga topshirildi [14].

Sariosiyo va Uzun tumanlarida o'rta ma'lumotli tibbiyot xodimlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalariga katta e'tibor berildi. Bu ishlarni amalga oshirishda



Termiz, Denov va Sherobod tibbiyot bilim yurtlarining hissasi katta bo'ldi. O'z navbatida Toshkent va Samarqand tibbiyot institutlari malaka oshirish va uslubiy ishlari bilan yordam berdi. 1992 yil viloyatda o'rta ma'lumotli tibbiyot xodimlari 13 ming 283 tani tashkil etdi. Tumanlarda bu holat quyidagicha bo'ldi: Sariosiyo tumanida 107 nafarni, Uzun tumanida 602 nafarni tashkil etdi [15]. 1991 yilning oxirida viloyatda har o'n ming aholiga to'qson nafar tibbiyot xodimlari to'g'ri keldi yoki meyoriga nisbatan 29,5 foizni tashkil etdi, xolos. Bundan ko'rinib turibdiki, viloyatda aholining o'sib borishi natijasida o'rindiqlar soni foiz hisobida aholi jon boshiga kam o'rinni tashkil etgan edi [16]. Yuqorida qayd etilgan raqamli ko'rsatkichlar 1992 yilda Sariosiyoda 87,3 foiz, Uzunda 47,3 foizni tashkil etdi [17].

1992-1993 yillarda malakali mutaxassislarni ishga qabul qilish va ularni moddiy-ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun bir qator tadbirlar o'tkazildi. 1992 yili Sariosiyo tumanida 271 nafar oliy ma'lumotli tibbiyot xodimlari aholiga tibbiy xizmat ko'rsatdi [17].

Viloyat tumanlarida oliy ma'lumotli vrachlar soni yildan-yilga ma'lum darajada qisqardi. Mutaxassislarning ishlashi va yashashi uchun yetarli darajadagi imkoniyatlarning kamligi, moddiy manfaatdorlikning yo'qligi, ayniqsa, tibbiyot xodimlarining majburiy mehnatga jalb etilishi bunga sabab bo'ldi. Ayniqsa, yosh mutaxassislarni rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash ishlarining o'z holiga tashlab qo'yilishi natijasida ularning ishga bo'lgan qiziqishi susayib qoldi.

Shunday vaziyatda Respublika hukumati qator amaliy tadbirlarni amalga oshirdi.

Jumladan, «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi va «O'zbekiston temir yo'llari» davlat aksiyadorlik kompaniyasi hamkorligida 2015 yil may oyida Surxondaryo viloyatiga «Salomatlik poyezdi» jo'natildi. Xayriya aksiyasi davomida Uzun va Sariosiyo tumanlarida yetti yuzdan ortiq kishi tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, kasallik aniqlangan bemorlarga zarur tavsiyalar berildi. Keng jamoatchilik ishtirokida uchrashuvlar tashkil etilib, sog'lom turmush tarzining mazmun-mohiyati atroflicha tushuntirildi. Sog'lig'i pand berayotgan yigirmaga yaqin keksa avlod vakillarining xonadonlariga borib, kasallik sabablari o'rganildi. O'nga yaqin nogironlik aravachasi tarqatildi.

2023 yil yanvarda Sariosiyo tuman tibbiyot birlashmasi tarkibidagi yangi tashkil etilgan qo'shma shikastlanishlar va o'tkir qon-tomir kasalliklari markaziga Germaniya va Xitoydan gemodializ hamda MSKT (kompyuter tomografiyasi) tibbiy uskunalari keltirildi.

Endilikda surunkali buyrak yetishmovchiligi bilan og'rikan, shuningdek, nogironligi bo'lgan Sariosiyo va Uzun tumanlarida istiqomat qiluvchi fuqarolarga gemodializ va tomografiya bilan bog'liq tibbiy xizmat ko'rsatiladigan bo'ldi [18].

Xulosa. Shunday qilib, so'nggi yillar mobaynida uzoq muddatli samaraga millatimizning genofondini yaxshilashga, oilada tibbiy madaniyatni, aholi hayoti sifatini oshirishga hamda uzoq umr ko'rishiga erishish maqsadida sog'lom avlod tug'ilishi va uni tarbiyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish yuzasidan izchil chora-tadbirlar ro'yobga chiqarildi. Eng muhimi aholiga zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatish joriy etilib, bemorlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratilib, dori-darmon va tibbiyot uchun zarur bo'lgan zamonaviy texnik asbob uskunalar bilan ta'minlanmoqda. Respublikadagi shifoxonalar to'la qayta ta'mirlanib, jahon andozalariga mos tibbiy xizmat ko'rsatish tashkil etilmoqda. Mana shu tufayli yurtimizda «Sog'lom ona sog'lom bola» konsepsiyasi hamda Ona va bola sog'lig'ini muhofaza qilish milliy modeli yaratildi.

Xulosa qilib aytganda, sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va o'zgarishlar mamlakatimizning barcha hududlarida aholi salomatligi, tibbiy xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan bo'lib, bu boradagi manzilli davlat dasturlari

sohani rivojlantirish uchun xizmat qilmoqda. Ijtimoiy hayotning o'zida sohada amalga oshirilayotgan islohotlar o'z samarasini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Махмудов М., Умрзаков Б.Х. Здравooхранения Узбекистана. –Тошкент.: Ибн Сино, 1991.
2. Қодиров А.А. Тиббиёт тарихи. – Тошкент: Ибн Сино, 1993.
3. Искандарова Ш.Т., Кариева М.Т. Ўзбекистон Республикасида соғлиқни сақлаш тизимини ислох қилиш. Талабалар учун методик қўлланма. – Тошкент., 2012.
4. Мўминова Г.Э. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизими тарихи (1917–1991 йиллар). – Тошкент: Yangi nashr, 2015. –336 б.
5. Муминова Г.Э. Медицина и здравоохранение Узбекистана: проблемы и последствия (1946–1990 гг.) (На примере южных областей Узбекистана): Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 2000; История системы здравоохранения в Узбекистане в советский период (1917-1991 гг.): Автореф. дис. ... докт. ист. наук. – Ташкент, 2018.
6. Джуманов С.А. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизими асосий йўналишларининг ривожланиши тарихи (1991–2015 йй.): Тарих фан. бўй. фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019.
7. Очилова О.Р. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш соҳасини ривожлантиришда халқ таъбатининг ўрни.: Тарих фан. бўй. фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Қарши, 2022.
8. Хужаназаров А.З. О'zbekistonda tibbiyot tizimi taraqqiyoti: natijalar va tahlillar (Surxondaryo viloyati misolida, 1991-2020 yy.): Tarix fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) ... diss. – Termiz, 2023.
9. Surxondaryo viloyati hokimligi joriy arxivi. Viloyat Kengashining XXI/XIII sessiyasi materiallari. 1993 yil. 15 may. - B. 4.
10. Ленин байроғи. 1991 йил, 29.08, 131-сон, 2-б.
11. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 313-fond, 1-ro'xat, 11-ish, 13-varaq.
12. Surxondaryo viloyati hokimligi joriy arxivi. Viloyat Kengashining XXI/XIII sessiyasi materiallari. 1992 yil. 20 yanvar. - B. 17.
13. Surxondaryo viloyati hokimligi joriy arxivi. Viloyat

Kengashining XXI/XIV sessiyasi materiallari. 1993 yil. 2 fevral. - B. 21.

14. Surxondaryo viloyati hokimligi joriy arxivi. 1998 yilgi ma'lumotnoma. VXISB. 2-kitob. - B. 34.

15. Surxondaryo viloyati hisoblash markazi ma'lumoti, 1990-1993 yy. VXISB. - Termiz. 1994 yil. - B. 123-124.

16. Surxon tongi. 1991 yil, 5 dekabr.

17. Surxondaryo viloyati hisoblash markazi ma'lumoti, 1990-1993 yy. - Termiz. 1994 yil. 123-124 b.

18. Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati telegramm kanali. 2023 yil, 26 yanvar.



PATTAKESAR KECHUVINING SAVDO ALOQALARIDAGI O'RNI (XIX ASRNING OXIRI - XX ASRNING BOSHLARI)

Annotatsiya: Maqola XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Pattakesar kechuvi tarixi va kechuv orqali Sharq mamlakatlari bilan olib borilgan savdo aloqalariga bag'ishlangan. Shuningdek, Pattakesar kechuvi – bojxona punktida Rossiya imperiyasi nazoratining o'rnatilishi, ushbu kechuv orqali olib ketilgan, olib kelingan turli tovarlar miqdorlari tarixiy hamda arxiv materiallar asosida o'rganilib, tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: Amudaryo suv yo'li va kechuvlari, Amudaryo flotiliyasi, Pattakesar bojxona punkti, savdo-sotiq.

РОЛЬ ПАТТАКЕСАРСКОГО ПЕРЕПРАВА В ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ (КОНЕЦ XIX - НАЧАЛО XX ВЕКА)

Аннотация: Статья посвящена истории Паттакесарской переправы конца XIX века – начала XX века и торговой связи с Восточными странами через переправы. А также установление контроля Российской империи на таможенном пункте – Паттакесарской переправе, также на основе исторических и архивных материалов, сделан анализ о количества ввозимых и вывозимых различных товаров, через этой переправы.

Ключевые слова: водные пути Амударьи и переправы, флотилия Амударьи, Паттакесарской таможенный пункт, торговля.

THE ROLE OF PATTAKESAR CROSSING IN TRADE RELATIONS (END OF XIX - BEGINNING OF XX CENTURY)

Annotation: The article is devoted to the history of the Pattakesar crossing at the end of the 19th century - the beginning of the 20th century and trade relations with the Eastern countries through the crossings. As well as the establishment of control of the Russian Empire at the customs point - Pattakesar crossing, also on the basis of historical and archival materials, an analysis was made on the amount of imported and exported various goods through this crossing.

Keywords: Amu Darya waterways and crossings, Amu Darya flotilla, Pattakesar customs point, trade.

Kirish. Amudaryo, nafaqat, daryo bo'yidagi hududlar, shaharlar, savdo markazlari bilan aloqa vositasi uchun qulay suv yo'li bo'lgan, balki Amudaryoni kesib o'tuvchi savdo (karvon) yo'llarini bog'lovchi daryo hamdir. Amudaryoning boshlanish qismidan to quyi qismiga qadar daryoning ikkala qirg'og'ida yashovchi aholi o'rtasida aloqalar uchun doimiy va mavsumiy kechuvlar mavjud edi. Daryodagi kechuv joylarni tanlash daryoning tor va qulay tabiiy o'tish joylari, yaqin aholi manzillari yoki vohalar bo'ylab keluvchi savdo yo'llariga bog'liq bo'lgan. Aynan Amudaryo suv yo'li va uning kechuvlari Buxoro amirligining Sharq davlatlari bilan olib borgan savdo aloqalarida muhim o'ringa ega bo'lgan. Ushbu kechuvlardan Pattakesar – Termizning Amudaryo qirg'og'iga tutashgan, Buxoro amirligining Afg'oniston bilan chegara chizig'idagi manzilgohi edi. Pattakesar kechuvi savdo-iqtisodiy jihatdan qulay bo'lgan strategik hudud ham edi. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida

mintaqaning Amudaryo suv yo'li va kechuvlari orqali olib borgan savdo munosabatlarida Pattakesar kechuvining o'рни haqidagi ma'lumotlar O'zbekiston Milliy arxivi (keyingi o'rinlarda – O'z MA) ning I-1, I-2, I-3, I-126-fondlarida uchraydi. Maqolani yozishda arxiv hujjatlaridan tashqari, aynan tadqiq qilingan davrda o'lkaga kelgan, o'rgangan va xizmat qilgan – S.Mazov, A.Bikov, Galkin, Vasilyev, M.V.Grulev, R.Yu.Rojevitsa, D.N.Logofet, A.F.Gubarevich-Radobilskiy, N.A.Benselevich va I.A.Remez kabi elchilar, sayyohlar, sharqshunoslar, tarixchilar, boshqaruv ma'muriyati xodimlari hamda harbiy idoralarning amaldorlari tomonidan e'lon qilingan xotira esdaliklari, hisobot to'plamlar, risola asarlari, davriy nashrlardagi ma'lumotlardan foydalanildi.

XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida Surxon vohasidagi Pattakesar kechuvining Amudaryo savdo aloqalaridagi o'rniga doir ma'lumotlar S.N.Tursunov [1], E.A.Qobulov [2], F.B.Ochildiyev [3], Sh.Allamuratovlarning [4] dissertatsion tadqiqotlari, monografiyalari va bir qator maqolalarida uchraydi

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar - tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida Surxon vohasidagi Pattakesar kechuvining savdo aloqalaridagi o'рни tadqiq etilgan.

Tahlil va natijalar. Pattakesar kechuvi – Surxondaryoning Amudaryoga quyilish joyida, shu nomdagi bojxona,

rus aholi punkti va rus garnizoni joylashgan Termiz qal'asi qarama-qarshisida joylashgan. Pattakesar kechuvi Hisor vohasini Afg'oniston bilan bog'lovchi yo'lda bo'lib, Hisordagi Qoratog' shahridan Surxondaryo bo'ylab kelgan savdo yo'li ushbu kechuv orqali Mozori Sharif o'tgan [5]. Kechuv joyida daryo eni 250, 630-690 sarjindan 2 verstgacha bo'lib, oqim tezligi sekundiga 3-5 futgacha edi. Bu yerda daryoning chuqurligi 5-7 futdan 9 futgacha bo'lgan [6, C.16; 7, C.27; 8, C.60; 9]. Kechuvga qo'shilib ketgan Amudaryoning o'ng qirg'og'i qiya nishablikdagi tekislikdan iborat edi. O'ng qirg'oq ochiq bo'lgan. Afg'on qirg'og'i qisman ochiq va qattiq qiyali tuproq, qum barxanlari hamda o'simliklar bilan qoplangan. Kechuvda afg'on qirg'og'idan o'tish yengil bo'lib, teskari yo'nalishda buxoro qirg'og'iga o'tish qiyinroq bo'lgan. Kechuvdan Buxoro qirg'og'iga o'tishda suv yo'li bo'ylab

dastlab yuqoriga 3 verstgacha afg'on qirg'og'i orqali suzib, keyin o'ng qirg'oqqa o'tilgan. Suv o'zanining tez-tez o'zgarishi va sayozliklarning paydo bo'lib turishi sababli kechuvning g'arbiy chekkasida daryo farvarteri 0,75 - 1 verstni tashkil etgan [8, C. 60-61]. XIX asrning 90 yillari boshida Pattakesar qishlog'ida 500 ta xonadon istiqomat qilgan [10].

Kechuv qayiqlar orqali amalga oshirilgan va bir qirg'oqdan boshqa qirg'oqqa o'tishga 20 daqiqa sarflanardi [7, C.27]. Buxoro amirligi va Afg'oniston savdo aloqalarida muhim ahamiyat kasb etuvchi Pattakesar kechuvda XIX asr 70-80 yillarida har ikkala qirg'oqda bittadan (bittasi Buxoro, bittasi afg'onlarga tegishli), jami 2 ta qayiq bo'lgan [6, C.5; 10; 11, C.381]. XIX asr 80 yillar o'rtalarida S.Mazov kechuvda 200 bosh qo'yni bir yo'la ko'tara oladigan 2 ta afg'on qayig'i bo'lganligini ta'kidlaydi [7, C.27]. XIX asrning 90 yillari oxirida esa kechuvda 4 ta qayiq bo'lib, ularning 2 tasi Buxoroga, 2 tasi Afg'onistonga tegishli edi [8, C.61]. Ularning yillik daromadi 3 ming rublni tashkil etgan. Sherobod begi Pattakesar amlokdari orqali kechuvdan yiliga 1500 rubl yig'im olgan [12].

Pattakesarga daryo bo'ylab yuqori oqimdagi paroxodlar keladigan asosiy pristan ham bo'lgan. Pattakesarda qulay pristan va bir



qancha transport idoralari bo'lgan uchun g'arbiy va sharqiy Buxoro o'rtasida asosiy savdo markaziga aylangan. Bandargoh va kechuv Buxoroning Sherobod, G'uzor, Shaxrisabz shaharlari bilan Afg'onistonning Mozori Sharif shaharlari oralig'idagi savdo yo'llarida joylashib, Afg'oniston bilan tovar ayrboshlovida muhim rol o'ynagan. Rus garnizoni va savdo idoralarining vakolatxonalari joylashuvi Pattakesarga savdogarlarni jalb etib, savdo aloqalarini kuchaytirishga xizmat qilgan [13, C.103-104]. Buxoro amirligining Afg'oniston va Hindiston bilan savdo aloqalarida Termiz hamda Sherobod shaharlari muhim o'rin tutgan. Ma'lumotlarga asosan, yiliga 6 mingdan ortiq tuyalarda Afg'onistondan har xil mahsulotlar olib o'tilgan [14]. Birgina 1886 yilda Hindistondan 8 mingdan ortiq tuyalarda har xil turdagi mollar Buxoro xududlariga olib kelingan. Hisob-kitoblarga ko'ra, bu mahsulotlarning umumiy narxi 5 mln. 475 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, Buxorodan Hindistonga 427 ming so'mlik mahsulot eksport qilingan [15]. Shuning uchun ham Rossiya imperiyasi o'zining buyuk strategik maqsadlarini amalga oshirish, O'rta Osiyoning ichki hududlariga kirib borish, Afg'oniston va Hindiston bozorini zabt etish, quruqlik yo'llari bilan bir qatorda suv yo'llarini ham yaxshi o'rganganlar, xususan Amudaryo kechuvlarga alohida e'tibor qaratishgan. Sababi Rossiyadan keltirilgan tovarlarning bir qismi daryo orqali Termizdan Afg'onistonga yetkazilgan. Aynan Surxon vohasida

Amudaryo suv yo'lining muhim kechuvlari - Pattakesar, Eski Termiz, Yorgoh (Sho'rob), Cho'chqaguzar, Qorakamar tashqi savdoda muhim o'rin tutgan bo'lsa [16], Xotinrabot, Burguttepa, Ayritom, Maymunto'qay, Sassiqlik va Boldir kechuvlari esa mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan [17, C.49.]. Bu kechuvlar XIX asr oxirida Amudaryo flotiliyasi tashkil etilgandan (1887-yil) keyin ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Podsho hukumati Buxoro amirligi ustidan o'z protektoratini o'rnatgandan so'ng Sharq davlatlari bilan bo'ladigan savdo aloqalarida Rossiya manfaatlarini ustunligini ta'minlash choralarini ko'rdi. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi bilan Buxoro amirligi o'rtasida 1873-yil 28-sentyabrda tuzilgan shartnomadan keyin unga e'tibor yanada ortdi. Ma'lumki, shartnoma 17 moddadan iborat bo'lib, uning 3-moddasida: "Buxoro amirligiga qarashli Amudaryo qismida Buxoro kemalari va rus paroxodlari, shuningdek boshqa flot kemalari qatorida hukumat hamda shaxsiy kemalarga erkin suzishga ruxsat beriladi" deyilsa, shartnomaning 4-moddasida "Kerak va qulay bo'lgan Amudaryoning Buxoro qirg'oqlarida ruslar o'zining to'xtash joyi va tovar omborlari qurishga xaqlidir", deb yozilgan [18, C.217].

1888-yil 23-iyunda imzolangan shartnoma moddalari qayta ko'rib chiqiladi va rus fuqarolari uchun Yangi Buxoro, Chorjo'y va Kerki hududlari asosiy yashash joy sifatida tanlanadi. Bundan tashqari, Amudaryo chegara chizig'i bo'ylab manzilgohlar barpo etish ko'zda tutiladi. Xususan, Termizning Amudaryo qirg'og'iga tutashgan Pattakesar qishlog'i yonida ruslar istiqomat qilishi uchun yashash joylarini qurish boshlanadi. Ayniqsa, Amudaryo suv yo'lida paroxodchilik tashkil etilganidan so'ng ishlar yanada rivojlanadi.

1893-yil 15-yanvarda Termiz Buxoro amiri tomonidan Rossiya podshosi ixtiyoriga berilganidan so'ng bu yerda harbiy qismlarni joylashtirish ishlari olib borila boshlandi. Bu xududni rivojlantirish uchun Rossiya hukumati barcha tadbirlarni amalga oshira boshladi. Shuningdek, Rossiya imperiyasi hukumati Surxon vohasi hududlarining Afg'oniston davlati bilan chegaradoshligi va bu davlat orqali inglizlarning Buxoro amirligi hududlariga nisbatan g'arazli talablari oshib borayotganligini hisobga olib, Termiz shahrini mustahkam o'rnatish olish choralarini ko'rdi.

Harbiylar bilan birgalikda bu yerga savdogarlar ham kelib joylashadi va uylar qurib, o'z do'konlarini ochishadi [19, C.202-203].

Buxoro amirligini rus bojxona tizimiga kiritish to'g'risidagi qonun 1894-yil 6-iyulda qabul qilinib, rasman shu yilning 15-noyabridan kuchga kirdi. 1895-yil boshlarida Kerki, Kelif, Cho'chqaguzar, Pattakesar va Ayvoj bojxonalarini ish boshladi. Shu tariqa rus – afg'on chegarasidagi savdoni nazorat qilish 1895- yil 1-iyuldan to'la Rossiya imperiyasi ta'siriga o'tdi [20]. O'rta Osiyoning yagona bojxona tizimiga binoan Surxon vohasi hududidagi muhim Amudaryo kechuvlari hisoblanmish Pattakesarda uchinchi darajali bojxona tashkil etildi.

Termizda bo'lgan Imperator geografiya jamiyati vakili sayyoh R.Yu.Rojevitsa Amudaryo bo'yida Pattakesarda qurilgan Termiz tabiiy chegarasi, Pattakesardagi bozor, unda sotilgan mollar, Armaniston, Eron va boshqa davlatlar savdogarlari haqida ma'lumot berib o'tadi [21, C.48]. Yana shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, Pattakesar Afg'oniston bilan savdo aloqalar yaxshi rivojlanishida muhim o'rin tutgan. Chunki asosiy bojxona posti shu yerda joylashgan bo'lib keltirilgan mollar shu yerda qadoqlangan va chegara posti orqali afg'on savdogarlariga yetkazilgan [22].

Shimoliy Afg'oniston (Chorviloyat, Andxo'y, Maymana) bilan savdoda Pattakesar kechuvi Kerki bojxonasidan keyingi o'rinda turgan. Pattakesar bojxonasi Mozori Sharif – Toshqo'rg'on savdo yo'lida joylashib, umumiy yuk aylanmasi 715 ming rublni tashkil etgan. Savdo aloqalari rivoji natijasida Pattakesar kechuvi orqali

Hindistonning ko'pgina mahsulotlari - choy, doka, nil bo'yog'i, marjon kabilar bir yilda 0,5 mln rubl summadan ziyod hajmda tashib o'tilgan [23, C.8].

Pattakesar kechuvi orqali 1891-1892-yillarda 118 ming pud kishmish mayiz, 27,5 ming bosh chorva mollari, 41,4 ming pud paxta, 12,4 ming pud urug'lik chigit, 13 ming pud har xil bo'yoqlar Buxoroga olib o'tilgan bo'lsa, 11,1 ming pud shakar, 0,5 ming pud sham, 2,2 ming pud sopol buyumlar, 2,6 ming pud kerosin, 7,4 ming pud metall, 25,7 ming pud mato va 2,2 ming pud boshqa mahsulotlar Afg'onistonga eksport qilingan [24, C.37]. Keyingi yillarda, Pattakesar va Cho'chqaguzar kechuvlaridagi bojxonalar orqali 1896-yilda 145532 rubl, 1900-yilda 60521 rubl, 1904-yilda 38770 rublli tovarlar Afg'onistonga eksport uchun o'tkazilgan bo'lsa, xuddi yillarga mos ravishda 1896-yilda 439749 rubl, 1900-yilda 167080 rubl, 1904-yilda 549135 rublli tovarlar olib kelingan [25, C.120-128].

Rus flotiliyasi tashkil qilingandan so'ng Pattakesar kechuvining yuk tashishdagi ahamiyati ham oshib borgan. Bu yerda yangi ulgurji savdo omborxonalarining qurilishi va Afg'onistondan keladigan paxtani qayta ishlaydigan paxtatozalashkorxonasining qurilishiga imkon berdi [26]. Termiz – Pattakesar bojxonasining savdo-sotiq aylanmasida muhim o'rin tutganini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin [26, 27].

Pattakesar kechuvi orqali olib ketilgan va olib kelingan tovarlar turlari hamda miqdorlari

Yillar	1896	1900	1904	1906	1907	1908	1909	1910
Olib chiqib ketilgan tovarlar (pud hisobida)								
Ip gazlama	466	568	-	14	139	36	681	7086
Oq qand	4	5	3224	39	-	3	3	20
Shakar	-	-	664	10	-	-	-	-
Gugurt	-	-	23	-	3	-	-	-
Metall buyumlar	-	177	1686	1684	2088	2590	3276	4401
Yigirilgan ip	21	-	-	-	23	-	19	88
Attorlik mollari	-	-	-	5	2	3	11	148
Kerosin	-	-	-	-	-	-	102	60
Chinni idishlar	-	2	18	-	-	-	193	319
Yozuv qog'ozi	-	1	10	-	160	97	121	72
Yog'li shamlar	-	17	98	81	5	94	304	115
Olib kelingan tovarlar (pud hisobida)								
Qorako'l terisi	9	76	290	2	46	29	345	107
Movut - jun	1115	1521	894	1779	1460	605	2834	2489
Ishlov berilmagan teri	16	490	-	715	1475	74	1745	3177
Oshlangan mayda charm	17	-	-	-	-	-	-	-
Quruq mevalar	573	3183	1726	5110	9395	5160	11294	9218
Kunjut va zig'ir	445	86	54	54	917	2276	3012	15240
Paxta (g'o'za)	-	-	2576	-	-	-	4278	30090
Jun gazlamalar	-	161	-	-	-	-	-	121
Jun gilamlar	49	80	-	1	12	10	-	-
Chorva mollari (soni)	52000	-	75960	43693	34083	43659	107484	-

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan shunday xulosaga qilish mumkin, Buxoro vositachiligida eksport qilinayotgan Rossiya tovarlaridan ayniqsa, manufaktura



mahsulotlari - tayyor ip-gazlamalar, metall buyumlar, kerosin, attorlik mahsulotlari va shamlar miqdori yilma-yil oshib borgan, import hisobida kirib kelayotgan xomashyolar va deyarli barcha qishloq xo'jaligi mahsulotlarining salmog'i esa o'sgan. Bu davrda amirlik savdosini nazoratga olgan Rossiya imperiyasi ko'proq chetdan zarur xom ashyolar keltirilishini oshirib, o'zining tayyor sanoat mahsulotlari orqali Afg'oniston bozorlariga chiqishga harakat qilganligini ham kuzatish mumkin.

XX asr boshlarida ham Termiz shahri orqali chet davlatlarga chiqariladigan mahsulotlar hajmi ham sezilarli darajada o'sgan. Masalan, 1903 yilda shahar orqali 23 mln. rubllik turli xil mahsulotlar chetga chiqarilgan. Shundan 2 mln. rubli Rossiyaga, 500 ming rubli Afg'onistonga, 70 ming rubllik mahsulotlar esa Eron, Hindiston va boshqa mamlakatlarga eksport qilingan [28]. Bu davrda birgina Termiz shahrida Shalman, Baxtadze, Mgaloblishvili, Avonov, Karimov, Axnazarov, Aganosov, Aryutyunov, Ayrapetov, Gozarov, Davidovlarning savdo do'konlarida chetdan keltirilgan turli xildagi sanoat mollari sotilgan [29].

Xulosa. XIX asr va XX asrning boshlarida Amudaryo kechuvlari o'zining oddiy foydalanish tartiblariga qaramay mintaqaning ichki va tashqi davlatlar bilan bo'ladigan aloqalarida muhim ahamiyat kasb etgan. Sababi mintaqada yildan-yilga o'sib borayotgan ichki va tashqi savdo aloqalarini nazoratga olish, Amudaryobo'yi hududlaridan boy xom ashyoni tashib ketish, shuningdek, Afg'oniston bilan chegaralarni muxofaza qilish bevosita Amudaryo suv yo'li hamda kechuvlariga bog'liq edi. Buxoro amirligi va Afg'oniston chegarasida Amudaryo bo'ylab yagona bojxona tizimi (chizig'i) ning o'rnatilishi natijasida mintaqada davlatlari, shu jumladan, Amudaryo kechuvlarining savdo-sotiq ishlari Rossiya imperiyasi manfaatlariga bo'ysundirildi.

Shunday qilib, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Pattakesar Samarqanddan Qobul

va Hindistonga boradigan asosiy savdo yo'lidagi muhim kechuv joyi bo'lgan. Pattakesar nafaqat asosiy savdo hududi, balki Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi Afg'oniston bilan chegara chizig'idagi muhim harbiy - strategik manzili ham edi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Tursunov S., Qobilov E., Pardayev T. va boshq. Surxondaryo tarix ko'zglasida. – Toshkent: Sharq, 2001; Tursunov S., Qobilov E., Murtazoyev B. va boshq. Surxondaryo tarixi. – Toshkent: Sharq, 2004.

2. Qobulov E.A. Surxon vohasi xo'jaligi. – Toshkent: Akademnashr, 2012; Место долины Сурхан в торговых сношениях России с восточными странами // Universum: Общественные науки: ЭНЖ. – 2015. № 1-2 (12); XVIII asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Surxon vohasi xo'jaligi. Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019.

3. Ochildiyev F.B. XIX-XX asr boshlarida Janubiy O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy hayot (Surxon vohasi misolida): Tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2007; Ochildiyev F.B. Surxon vohasi bekliliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari). – Toshkent: ABU MATBUOT-KONSALT, 2008.

4. Allamuratov Sh.A. Surxon vohasining Amudaryo suv yo'li va kechuvlari orqali tashqi savdo munosabatlari (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) // "Surxondaryoda ilm va fan" jurnali. №1 (01), 2020. – Termiz, 2021. – B.52-59; Markaziy Osiyo kommunikatsiyasi va savdo tranzit tizimida Amudaryoning o'rni (XIX- XX asr boshlari). Tarix fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) ... diss. – Termiz, 2022; Amudaryo

suv yo'li va kechuvlari tarixi (XIX-XX asr boshlari). Monografiya. – Toshkent: – “Innovatsiya-Ziyo”, 2023; Surxon vohasining tashqi savdo munosabatlari (Amudaryo suv yo'li misolida) // TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi. №1/2023. – B.58-68.

5. Xoliqov Z. Surxon vohasining so'nggi o'rta asrlardagi ichki va tashqi savdo-karvon yo'llari // O'zbekiston moddiy madaniyati tarixi. – Samarqand, 1997. № 28. – B. 201-202.

6. Капитан Быков. Очерк переправ через реку Амударья (рекогносцировка 3- Западно-Сибирского Линейного батальона Штабс-капитана Быкова). – Ташкент, 1879.

7. Мазов С. Восточная Бухара, Бадахшан и северный Афганистан // Туркестанский сборник. Том 404. – СПб., 1883. – С. 5-26.

8. Грулев М.В. Некоторые географико – статистические данные, относящиеся к участкам Аму-Дарьи между Чорджуем и Патта-Киссаром // Известия Туркестанского отдела русского географического общества. Том 2, Выпуск I. – СПб., 1900. – С. 5-87.

9. Логофет Д.Н. Переправы на Аму-Дарье и Пяндже Амударье // Туркестанские ведомости. – 1906. № 106.

10. Капитан Васильев. Маршрутное описание дороги от Калифа до Патта-Кессара 1893 г. // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Выпуск LVII. – СПб., 1894. – С. 403-404.

11. Полковник Галкин.

Военно - статистический очерк средней и южной частей Сурханской долины // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Выпуск LVII. – СПб., 1894. – С.364-384.

12. O'zbekiston Milliy arxivi (keyingi o'rinlarda – O'zMA), I-3-fond, I-ro'uxat, 296-ish, 76-varaq.

13. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Том I. – СПб.: В.Березовский, 1911.

14.O'z MA, I-126-jamg'arma, 1-ro'uxat, 29-ish, 1-varaq.

15.O'z MA, I-1-jamg'arma, 11-ro'uxat, 504-ish, 3-varaq.

16.Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – Toshkent, 1997.

17.Бенцелевич Н.А. Водные пути Туркестана. – СПб., 1914.

18.Логофет Д.Н. Страна безправия. (Бухарское ханство и его современное состояние) – СПб., 1909.

19.Логофет Д.Н. На Границах Средней Азии Русско-Афганска граница книга II СПб., 1909.

20.O'z MA, I-1-fond, 11-ro'uxat, 1319-ish, 2-varaq.

21.Рожевица Р.Ю. Поездка в Южную и Среднюю Бухару в 1906 г.// Туркестанский сборник. Том 504.

22.Туркестанский ведомости. № 204, 1910 г. 12 сентябрь.

23.Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Том II.– СПб., В.Березовский, 1911.

24.Ремез И. А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны. – Ташкент, ЦСУ Туркеспублики, 1922.

25.Губаревич-Радобыльский А.Ф. Значение Туркестана в торговле России с сопредельными странами Азии//Материалы для изучения хлопководства. Выпуск II. – СПб., 1912.

26.O'z MA, I-1-fond, 27-ro'uxat, 408-ish, 13-varaq.

1.28 2.57

IQTISODIYOT FANLARI

08.00.00

IQTISODIYOT

FANLARI





“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Pardayev Lochinbek Farxod o'g'li,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrasida katta o'qituvchisi, Termiz (O'zbekiston)
E-mail: lochinbek.pardayev@mail.ru

O'ZBEKISTON TASHQI SAVDOSINING TARKIBI VA IQTISODIY HAMKORLIK YO'NALISHLARI

Annotatsiya: Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi jahon tajribasini e'tiborga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning o'ziga xos va mos yo'lini tanlab, uni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Iqtisodiy islohotlar natijasida erishilgan muvaffaqiyatlar, tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, eng muhimi, islohotlarga bo'lgan yondoshuv jahon hamjamiyati tomonidan tan olinib, e'tirof etilmoqda. Maqola O'zbekiston tashqi savdo aloqalarining hozirgi holati statistik ma'lumotlar asosida tahlil etilgan hamda iqtisodiy hamkorlik yo'nalishlarida Markaziy Osiyo davlatlarining o'rnini haqida, uning ijobiy hamda salbiy tomonlarini ochib berishdan iborat.

Tayanch so'zlar: Tashqi savdo, eksport, import, Markaziy Osiyo mamlakatlari, saldo, Tovar va xizmatlar.

СОСТАВ ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ УЗБЕКИСТАНА И НАПРАВЛЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА

Аннотация: Сегодня Республика Узбекистан, учитывая мировой опыт, выбрала уникальный и правильный путь социально-экономических реформ и шаг за шагом реализует его. Успехи, достигнутые в результате экономических реформ, коренных социально-экономических изменений, а главное, подхода к реформам признаны мировым сообществом. В статье на основе статистических данных анализируется современное состояние внешнеторговых связей Узбекистана и раскрывается роль стран Центральной Азии в сфере экономического сотрудничества, его положительные и отрицательные стороны.


Ключевые слова: Внешняя торговля, экспорт, импорт, страны Центральной Азии, баланс, товары и услуги.

COMPOSITION OF FOREIGN TRADE OF UZBEKISTAN AND DIRECTIONS OF ECONOMIC COOPERATION

Annotation: Today, the Republic of Uzbekistan, taking into

account world experience, has chosen a unique and correct path of socio-economic reforms and is implementing it step by step. The successes achieved as a result of economic reforms, fundamental socio-economic changes, and most importantly, the approach to reforms are recognized by the world community. The article, based on statistical data, analyzes the current state of foreign trade relations of Uzbekistan and reveals the role of the Central Asian countries in the field of economic cooperation, its positive and negative aspects.

Kirish. Globallashuv bugungi kunda jahon xo'jalik tizimi rivojlanishining asosiy tendensiyalaridan biri hisoblanadi. Xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiyani chuqurlashtirish, mamlakatlar o'rtasida texnologiyalar almashinuvini rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omiliga aylanmoqda. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uni texnik jihatdan qayta qurollantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshlik darajasini



oshirish vazifalarini hal etar ekan O'zbekiston turli davlatlararo kooperatsiyalarda ishtirok etish, boshqa mamlakatlar bilan umumiy iqtisodiy makon barpo etish orqali xalqaro mehnat taqsimoti taqdim etadigan imkoniyatlardan maksimal foyda olishga intilmoqda. Dunyo mamlakatlarida ham huddi shunday vaziyatlar nomoyon bo'lib, jahon xo'jaligidagi davlatlar tashqi savdo aloqalarini qaytadan tashkil etish, ayrim tarmoq va sohalarda tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish zarurati borligi ayon bo'ldi[1, B 150]. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida tashqi savdoning o'ziga xos xususiyatlari, milliy xo'jaliklarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvining nazariy va amaliy muammolari, eksport salohiyatini oshirishning barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi roli MDH olimlari – V.I.Famichev, I.V. Kakushkina, M.S. Varonin, A.P. Kiriyeu, M. Dabrovki, E.F. Avdokushin, L.I. Abalkin, J.M.Adilov, A.Amriv, O.V.Ibragimov, I.Yu. Benke, va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. O'zbekistonning jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuvining asosiy yo'nalishlari, mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-amaliy jihatlari, eksportsalohiyatini oshirish imkoniyatlari respublikamiz iqtisodchilari – N.Sirajiddinov, A.V Vaxabov, A.M.Alimov, T.M.Ahmedov, Sh.Arifxonov, A.Sh. Bekmuradov, A.K. Bedrinsev, A.Isadjonov, V.V. Kindalov, E.X. Maxmudov, A.F. Rasulov, E.F. Trushin, N.T. To'xliiev, S.H. J. Ermamatov F.X. Xakimov, N.B. Xolmatov,

R.X.SHodiev, B.Ergashev, A.S.Yusupov va boshqalarning ilmiy ishlarida keng yoritib berilgan. Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot davomida iqtisodiy-statistik, tizimli tahlil, taqqoslash, monografik kuzatish va boshqa zamonaviy ilmiy o'rganish usullaridan foydalanildi. Tahlil va natijalar. Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida tashqi savdo aloqalarining roli ahamiyatlidir. Raqobatbardosh, tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish, import qilinayotgan tayyor sanoat mahsulotlarini mahalliyashtirish va tashqi savdoning tarkibiy qismi bo'lgan eksportda ijobiy saldoga erishish muhimdir. Mustaqillik yillarda O'zbekiston tashqi savdo munosabatlarini erkinlashtirish borasida chuqur islohatlar amalga oshirilishi natijasida tashqi savdoning geografik va tovar tarkibida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. O'zbekiston bugungi kunda 45 dan ortiq mamlakatlar bilan ikki tomonlama savdo aloqalariga ega. Tashqi savdo aylanmasi 1991-yilda 2,1 mlrd. dollarda 2023-yilda 62,6 mlrd hajmiga yetdi, ya'ni 29,8 martaga oshdi. Ayni vaqtda tashqi savdo balansida -13 715,0 mlrd. dollarlik salbiy saldo qayd etilgan[2, B 86]. Bu ko'rsatgichlarning barchasi, avvalo, eksport tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan raqobatdosh tayyor mahsulotlar ulushining izchil oshishi, birinchi navbatda, iqtisodiyotning o'sib borayotgan salohiyati va imkoniyatlaridan dalolat beradi. Jumladan, 2022-yilda mamlakat eksporti tarkibida sanoat tovarlari 22,2% ga, oziq-ovqat mahsulotlari 8,3% ga va xizmatlar sohasi 22,6% ga yetgan bo'lsa, ushbu ko'rsatgichlar 2023-yilga kelib mos ravishda 16,6% 7,3% va 21,2% ni tashkil etdi (1-jadval). Mamlakatimiz eksportning geografik tarkibida MDH mamlakatlarining ulushi 2013-yil yakunlariga ko'ra 43,4%ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 39,3%ni tashkil qildi. 2023-yilda mamlakatimiz korxonalarining eksportining 40,8% Rossiya Federatsiyasi, 16,9% Qozog'iston, 7,0% Qirg'iziston hissasiga to'g'ri keldi. Jami eksport tarkibida uzoq xorij mamlakatlarining ulushi 2023-yilda 56,6% ni tashkil etdi[3].

IQTISODIYOTKANLARI

1-jadval

O'zbekiston eksportining tovar tarkibi, foizda

Eksport tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati %da		Umumiy hajmga nisbatan %da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	19732,6	24426,2	118,4	123,8	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1631,5	1777,6	118,9	109,0	8,3	7,3
Ichimliklar va tamaki	111,0	123,0	3,1	110,7	0,6	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	393,6	324,9	77,2	82,5	2,0	1,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1215,2	940,5	132,8	77,4	6,2	3,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	21,2	14,2	13,9	66,9	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1307,7	1314,4	115,0	100,5	6,6	5,4
Sanoat tovarlari	4383,5	4058,7	101,2	92,6	22,2	16,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	973,7	1305,2	140,4	134,0	4,9	5,3
Turli xil tayyor buyumlar	1106,1	1195,6	141,7	108,1	5,6	4,9
Boshqa tovarlar	4132,3	8192,6	96,0	198,3	20,9	33,5
Xizmatlar	4456,7	5179,7	172,6	116,2	22,6	21,2

Manba: <http://stat.uz//> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan 2023-yilda respublikamiz importi tarkibida ham ijobiy siljishlar ro'y berdi. Mamlakatni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish tadbirlarining keng miqyosda amalga oshirilishini ta'minlash jami importning tovar tarkibida mashina asbob-uskunalar importi ulushining jadal o'sishiga olib keldi. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 38 141,2 mln. AQSH dollarini va 2022-yilning mos davriga nisbatan 24,0 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalar (39,2 %), sanoat tovarlari (16,6 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (12,8 %) hisobiga to'g'ri keldi. (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston importining tovar tarkibi, foizda

Eksport tarkibi	Mln. AQSH dollari		Ozgarish sur'ati %da		Umumiy hajmga nisbatan %da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	30	38	120,6	124,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3 392,9	3 495,7	135,2	103,0	11,0	9,2
Ichimliklar va tamaki	139,2	191,6	154,8	137,6	0,5	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 283,6	1 125,3	111,2	87,7	4,2	3,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 795,1	2 633,6	115,3	146,7	5,8	6,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	400,9	425,4	97,5	106,1	1,3	1,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	4 372,2	4 864,5	117,1	111,3	14,2	12,8
Sanoat tovarlari	5 746,9	6 322,8	122,1	110,0	18,7	16,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	9 695,7	14 935,2	117,4	154,0	31,5	39,2
Turli xil tayyor buyumlar	1 330,9	1 489,8	101,9	111,9	4,3	3,9
Boshqa tovarlar	62,9	90,9	5,4p	144,5	0,2	0,2
Xizmatlar	2 547,5	2 566,4	144,1	100,7	8,3	6,7

Manba: <http://stat.uz//> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2023-yilning import hajmi 38 141,2 mln. AQSH dollarini va 2022-yilning mos davriga nisbatan 24,0 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalar (39,2 %), sanoat tovarlari (16,6 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (12,8 %) hisobiga to'g'ri keldi[4].

Mamlakat importining geografik tarkibini ko'rib chiqadigan bo'lsak, uzoq xorij mamlakatlarning ulushi 67,3% ni tashkil etgan bo'lsa, o'z navbatida MDH mamlakatlarning ulushi mos ravishda 32,7% ni tashkil etgan. Bunda mamlaktimizning import tarkibida mashina va asbob uskunalarining hajmini oshganligini asosiy sabab qilib keltirishimiz mumkin. Shu o'rinda mamlaktimiz tashqi savdosida quyidagi mamlakatlarning ulushini ko'rishimiz mumkin.

3.1.3-jadval

Tashqi savdoning mamlakatlar guruhi bo'yicha ma'lumot

Yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar	MDH mamlakatlari	Yevropa mamlakatlari	Boshqa mamlakatlar
AQSH	Rossiya	Avstraliya	Avstraliya
Buyuk Britaniya	Ukraina	Shveysariya	Gonkong
Germaniya	Belorus	Niderlandiya	JAR
Kanada	Qozog'iston	Ispaniya	Isroil
Koreya	Qirg'iziston	Portugaliya	BAA
Yaponiya	Tojikiston	Finlandiya	Quvayt
Braziliya	Ozarbayjon	Belgiya	Malayziya
Fransiya	Moldova	Shvetsiya	Meksika
XXR	Armaniston	Daniya	Misir Arab Respublikasi
Italiya	*Turkmaniston	Norvegiya	SAP
		Ruminiya	Tayvankuriya
		Vengriya	Fillipin
		Bolgariya	Hindiston
		Polsha	Eron
		Boshqalar	Litva
			Latviya
			Boshqalar

Manba: <http://wto.org.com//> Xalqaro savdo tashkiloti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston doimiy tarzda MDH doirasidagi integratsiya jarayonlarini rivojlantirishning tashabbuskorlaridan biri bo'lib kelgan.

O'zbekiston uchun Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish alohida o'ringa ega, chunki ko'p yillik tarixiy rivojlanish davomida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida mustahkam hamkorlik munosabatlari shakllangan. Mamlakatlar iqtisodiyoti

asosiy va yetakchi tarmoqlarining o'xshashligi, ularning yaxlit hududiy birlikka ega ekanligi, suv va energetika manbalarining yagonaligi va ulardan birgalikda foydalanish zaruriyati, yagona transport va kommunikatsiya tizimining mavjudligi, ekologik muammolarning bir xilligi mintaqa respublikalari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning doimiy bo'lishini ta'minlaydi. Mintaqa xalqlarining diniy, madaniy, til, urf-odat, an'ana va ma'naviy birligi esa hamkorlik aloqalarining yanada chuqurroq va har tomonlama bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunga kelib mustaqillikni mustahkamlash, iqtisodiyotga bozor munosabatlarini joriy qilish va jahon xo'jalik tizimida o'z o'rnini egallash g'oyalari Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy, ma'naviy va intellektual salohiyatlarini birlashtirishni taqozo qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasi 2012 yilda 2015 yilga nisbatan 3577 mln dollardan 3946,8 mln dollargacha, ya'ni 1,2 martaga o'sgan. Ayniqsa, Qozog'iston va Qirg'iziston bilan savdo aloqalari yuqori sur'atlarda o'sdi(4-jadval).

4-jadval
O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi, mln doll.

	Qirg'iziston	Tojikiston	Qozog'iston	Turkmaniston	MO bo'yicha jami
2020	907,1	493,9	3005,7	538,1	4944,8
2021	953,6	605,0	3920,5	902,1	6381,2
2022	1259,1	675,5	4636,6	926,8	7498
2023	953,4	756,8	4398,9	1094,4	7203,5
2023 yilda 2020 yilga nisbatan, marta	1,05 marta	1,5 marta	1,4 marta	2,03 marta	1,45 marta

Manba: <http://stat.uz//> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tuzilgan.

Agar 2020 yilda O'zbekistonning Qozog'iston bilan tashqi savdo aylanmasi 3005,7 mln dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilga kelib bu ko'rsatkich 4398,9 mln dollarga yetdi, ya'ni tahlil qilinayotgan davr mobaynida 1,4 martaga ko'paydi. Ayni vaqtda Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi 538,1 mln. dollardan 1094,4 mln. dollargacha, ya'ni 2,03 martaga oshdi. Tojikiston va Qirg'iziston bilan savdo aloqalari nisbatan sust kechayotganligini ta'kidlash zarur.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, garchi mintaqa mamlakatlari bilan savdo aloqalari yuqori sur'atlarda o'sayotgan bo'lsa-da, O'zbekistonning mintaqa mamlakatlari bilan integratsiya aloqalari chuqurlashayotganligini anglatmaydi. Integratsiya jarayonlariga baho berishda mintaqa mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

5-jadval
Markaziy Osiyo mamlakatlarining O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasidagi ulushining o'zgarishi(foizda)

	Jami tashqi savdo aylanmasi	MO mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi	MO mamlakatlarining ulushi, %
2020	36 256,1	4944,8	13,6
2021	42 170,5	6381,2	15,1
2022	50 061,5	7498	14,9
2023	62567,4	7203,5	11,5
2023 yilda 2020 yilga nisbatan, marta	1,7 marta	1,45 marta	-

Manba : [http:// stat.uz//](http://stat.uz//) O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan va Markaziy Osiyo mamlakatlarining jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi ham yaxshilangan. Agar 2020 yilda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining 13,6 foizi Markaziy Osiyo mamlakatlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2023 yilga kelib bu ko'rsatkich 11,2 foizgacha kamaygan(5-jadval).

Yuqoridagi ko'rsatkichlar garchi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan bo'lsa-da, tashqi savdoning umumiy qiymatida sezilarli o'zgarish kuzatilmagan va bungabir qator sabablari mavjud bo'lib, ulardan asosiylari quyidagilardan iborat:

- sun'iy rejali baholardan bozor baholariga o'tish tashqi savdo aloqalari samaradorligiga baho berish tizimining sezilarli darajada o'zgarishiga olib keldi. Buning natijasida iqtisodiy islohotlarga qadar rentabel hisoblangan juda ko'p aloqalar norentabel bo'lib qoldi. Shu bilan birga Markaziy Osiyo mamlakatlarining har biri nafaqat mintaqa yoki MDH doirasida, balki uzoq xorijdan ham hamkor tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa mamlakatlarda tovarlar oqimining qayta taqsimlanishiga olib keldi;

Mintaqa respublikalarida amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish siyosati rivojlangan mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishni rag'batlantirdi. Buning asosiy sababi shundan iboratki, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish va modernizatsiyalash yangi texnika va texnologiyalarni keng miqyosda sotib olishni taqozo etadi. Bunday texnika va texnologiyalarni esa faqat uzoq xorij mamlakatlaridan sotib olish mumkin;

-mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotlari tarkibining o'xshashligi o'zaro savdo aloqalari ulushining qisqarishiga olib kelgan sabablardan yana biridir. Gap shundaki, mintaqa mamlakatlari 3 tomonidan eksport qilinadigan tovarlarning aksariyati (yoqilg'i-energetika resurslari, qimmatbaho metallar, paxta tolasi va boshqalar) barcha respublikalarda ishlab chiqariladi;

-mamlakatlarda amalga oshirilayotgan import o'rnini bosish siyosati natijasida ko'plab ehtiyojlarni ichki ishlab chiqarish evaziga qoplash imkoniyati paydo bo'ldi. Masalan, O'zbekistonda g'alla va energetika mustaqilligiga erishish don va yoqilg'i resurslari importining sezilarli darajada qisqarishiga olib keldi. Bu mahsulotlarning aksariyat qismi Markaziy Osiyo mamlakatlaridan, jumladan, Qozog'iston Respublikasidan sotib olinar edi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlil natijalaridan shunday xulosa chiqarish mumkinki, O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga bog'liqligi pasaymoqda. Bu esa mintaqa bozoridan yetarli darajada foydalanilmayotganligini ko'rsatadi. Vaholanki, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish O'zbekiston uchun qator afzalliklarga ega:

Birinchidan, respublika geografik nuqtai nazardan anklav davlat hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, O'zbekistonda bevosita eng arzon transport turi hisoblangan dengiz yo'llariga chiqish imkoniyati mavjud emas. Bu o'z navbatida transport xarajatlari bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi hamda mahsulot tannarxi va uning raqobatbardoshlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish esa yirik transport xarajatlarini talab qilmaydi.

Ikkinchidan, Markaziy Osiyo O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlar uchun yirik bozor hisoblanadi. Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan tayyor tovarlar energiya va material sig'imining yuqoriligi, sifat darajasining

nisbatan pastligi ularning raqobatbardoshlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli tayyor mahsulotlarni uzoq xorij mamlakatlariga sotish ancha murakkab. Ichki bozor yetarli darajada to'yinmagan Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa O'zbekiston tayyor mahsulotlari raqobatbardosh hisoblanadi.

Uchinchidan, mintaqa mamlakatlarida bir turdagi tovarlarni katta miqdorda ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud. Paxta, meva, sabzovot, ko'mir, gaz, neft, oltin mintaqadagi davlatlarning deyarli barchasida ishlab chiqariladi. Ana shu tarmoqlarda mahsulot miqdori va sifatini belgilash bo'yicha kelishuvlarga erishish bu mahsulotlarni qayta ishlash va ularni eksport qilish bo'yicha yagona siyosatni yurguzish maqsadga muvofiq. Agar mintaqadagi respublikalar jahon bozoriga alohida chiqsalar, ular o'zaro raqobatchilarga aylanadilar, ularning birgalikda chiqishi mamlakatlar iqtisodiyotini bozor konyunkturasiga bog'liqligini pasaytiradi va mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi.

To'rtinchidan, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish boshqa sohalarda ham hamkorlik munosabatlarining faollashuviga olib keladi. Natijada yirik mablag'lar talab etuvchi ulkan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun moliyaviy mablag'larni birlashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Ta'kidlash lozimki, savdo aloqalari mintaqada integratsion aloqalar rivojlanishi uchun asos bo'lib hisoblanadi. Savdo aloqalarining rivojlanishi esa Markaziy Osiyoda bosqichma-bosqich erkin savdo zonalarini, bojxona ittifoqi, umumiy bozor va yagona iqtisodiy hudud shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Xolmatov N.B. O'zbekistonda tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimining takomillashuv yo'nalishlari. "Mamlakatlar tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirishning innovatsion jihatlari: xorij tajribasi, zamonaviy tendensiyalar, ustuvor yo'nalishlari" respublika ilmiy-amaliy konferensiya 1-qism. – T. 2017. – B. 150-153.
2. A. V. Vahobov, D. A. Tadjibayeva, Sh. X. Xajibakiyev. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. T. 2015. – B. 280.
3. Pardayev L.F. "The current state of trade relations between Uzbekistan and the CIS countries" Thematics Journal of Social Sciences 10.7 (2021).
4. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi (2023-yil yanvar-dekabr) <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/49769-o-zbekiston-respublikasi-tashqi-savdo-aylanmasi-2023-yil-yanvar-dekabr-2> [19.03.2024]



“TISU ilmiy
tadqiqotlari
xabarnomasi”
ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Mustafaqulov Orif Ro'ziqulovich
Viloyat Turizm Boshqarmasi
Kirish, chiqish va ziyorat turizmini
rivojlantirish shubasi bosh mutaxassisi
E-mail: orifroziqulovich12@gmail.com

TURIZMNING RIVOJLANISHIDA TARIXIY OBIDALARNING O'RNINI

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy obidalar, ularning sayyohlar uchun ahamiyati, iqtisodiyotdagi o'rnini va mehmonxona bozorini shakllantirish, turizm sohasini rivojlantirishda sarmoyalar kiritilishi kabi masalalar keltirib o'tilgan. Maqolaning yozilishidan maqsad turizmga bo'lgan e'tiborni yanada oshirishdan iborat.

Tayanch so'zlar: So'fi Olloyor, turizm, sayyoh, iqtisodiyot, obida, maqbara, imorat, maskan, sarmoya.

THE ROLE OF HISTORICAL MONUMENTS IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM

Abstract: This article deals with issues such as historical monuments, their importance for tourists, their role in the economy and the formation of the hotel market, investment in the development of the tourism industry. The purpose of writing the article is to further increase attention to tourism.

Key words: Sufi Olloyor, tourism, tourist, economy, culture, mausoleum, building, residence, investment.

РОЛЬ ИСТОРИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА

Аннотация: В данной статье рассматриваются такие вопросы, как исторические памятники, их значение для туристов, их место в экономике и формировании гостиничного рынка, инвестиции в развитие туристической отрасли. Цель написания статьи – повышение внимания к туризму.

Ключевые слова: Суфий Оллояр, туризм, турист, экономика, памятник, мавзолей, здание, резиденция, инвестиции.

Кирish. Yaqin yillarda mehmonxona xizmatlar bozori ko'pchilikning e'tiborini o'ziga jalb etdi desa mubolag'a bo'lmaydi. Mijozlar faqatgina yirik investorlarga, balki o'rta va kichik bizneslar haqida ham qiziqishni boshlashdi va bu jarayon o'z navbatida kichik

hamda arzon turar-joy binolari sayyohlar uchun ommalashib borishga zamin yaratdi. Turistlar oqimining ko'p foizi kichik, shinam va arzon yotoqxonalarda qolishni afzal ko'rishligi oshkor bo'ldi.

Xizmatlar bozori tarkibida xizmatlarning yangi istiqbolli, mamlakatimizning kelajagini belgilaydigan turlari, ya'ni zamonaviy bank-moliya, sug'urta, axborot kommunikatsiya xizmatlari, turizm servisini takomillashtirishga qaratilgan kadrlarni tayyorlashga endigina kirishildi. Boz ustiga mamlakatimizning zamonaviy oilalarida murakkab maishiy texnika, kompyuterlar va turli rusmdagi shaxsiy avtotransport bilan ta'minlashning keskin oshishi ularga ko'rsatilayotgan xizmatlarning keskin ko'payishiga imkon yaratdi. Ammo bu sohada ham kadrlarni yetarli deb bo'lmaydi.

Bularni inobatga olib Prezidentimizning mazkur qarorida «O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Iqtisodiyot vazirligi va boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda oliy o'quv yurtlari va kasb-hunar kollejlari mutaxassisliklar

ro'yxati va xizmatlar ko'rsatish sohasi uchun kadrlar tayyorlash sifatini tanqidiy o'rganish asosida o'quv jarayonini takomillashtirish, shu jumladan, uning ishlab chiqarish bilan integratsiyasini chuqurlashtirish hamda bu o'quv yurtlaridagi o'qituvchilarning malakasini oshirish..." masalasi qo'yilgan. Mazkur qarorda amaliyotchilar bilan birgalikda nazariyotchi olimlar oldiga ham muhim vazifalar qo'yilgan.

Turizm (sayohat) ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatlarga ega bo'lgan nazariy va amaliy fan sifatida o'qitiladi. U ijtimoiy tizimlar (formatsiya) bilan bog'liq bo'lgan o'z tarixi hamda rivojlanish jarayonlariga ega. Turizm umumiy ma'noda sayr-sayohatlar, sarguzashtlarni ifoda etadi. Shu sababdan ular ijtimoiy-turmush va mehnat jarayonlaridan tarkib topadi.

Vatanimizning mustaqillikka erishishi O'zbekiston viloyatlarining ijtimoiy iqtisodiy va ma'naviy hayotida balki, turizm sohasida ham muhim o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi va bu davr o'zgacha yangilinishlarini, tarixga bo'lgan e'tiborni boshlab berdi. Turizm sohasida ham izchil o'zgarishlar amalga oshdi va taraqqiyot izchil ravishda rivojlanishlar boshlandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunga qadar, tarixiy obidalar, tarixiy maskanlar haqidagi kitoblar son-sanoqsiz. Shulardan eng mashhuri R.Mirzayevning "So'fi Olloyor" ziyoratgohiga atab yozgan kitobini olib qarajak, undagi real voqealar ishimizning maqsadini ochib berishga xizmat qiladi. Shuningdek, T. Xoldarov, X. Tulenovaning "Turizm Sayyohlik" asari ham turizmning kelib chiqishi dolzarbligi, bu borada qaysi olimlar ish va izlanishlar olib borilganligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada yurtimiz iqtisodiyoti ya'ni shu qatorda turizm sohasini rivojlantirishda tarixiy obidalarining muhim ekanligi keltirilgan. Turizm hozirgi


zamonda ham davlatga moliyaviy foyda shu bilan bir qatorda insonlar va sayyohlar uchun qiziqarli ko'ngilochar bir faoliyat ekanligi shuningdek, bir mamlakatning tarixi kelib chiqishi haqida butun bir dunyoga tanilishi mashhur bo'lishi va kelgusi yillarda savdo sotiq ijtimoiy iqtisodiy taraflama yanada yangi o'zgarishlarga zamin bo'lishi haqida aytiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda tarixiy-madaniy turizmga oid masalalar qator olimlar tomonidan o'rganilgan va turlicha ta'rif berilgan. Gollandiyalik tadqiqotchi Richard Greg tarixiy-madaniy turizmni "kishilarning o'z madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun yangi ma'lumotlar va tajriba to'plash maqsadida odatiy yashash joyidan uzoqda joylashgan madaniy, diqqatga sazovor joylarga borishi" deya ta'riflaydi.

Tadqiqotchi Sh.Ro'ziyev tarixiy – madaniy turizmning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda yaratilgan konsepsiyalar, metodlar va turistlik faoliyat subyektlarining o'zaro integratsiyasini amalga oshiruvchi indikativ boshqaruv metodikasini yoritib bergan.

Tahlil va natijalar. Hammamizga ma'lumki bir necha yillar davomida butun dunyoda turizm sohasi rivojlanib kelmoqda. Har bir davlatning ichki va tashqi iqtisodiyatini mana shu turizm sohasi yuksak darajalarga olib chiqmoqda. Har bir davlat o'z kelajagi va rivoji uchun mana shu sohaga sarmoya ya'ni investitsiya kiritmoqda. Sarmoya kiritilmagan ish hech qachon rivojlanmaydi, u ishda yuksaklik bo'lmaydi.

Haqiqatdan ham tarixiy obidalar qayta tiklandi. Mana shunday tarixiy obidalardan biridi So'fi Olloyor ma'jmuasidir. Bu ma'jmuaning qurilishida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlar vazirligi Ma'daniy Meros ob'yektlarini muxofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy ishlab chiqarish bosh boshqarmasi boshlig'i Ravshan Abdunazarovich G'oziyev yigirma million so'm, Toshkent shaxridan "O'zbektelekom" Toshkent filiali direktori Amir Rustamovich G'oziyev jamoasi bilan birgalikda o'n million so'm mablag' o'tkazishdi. Olinsoy tumani



“G’olib” Agro firmasi boshlig’i Yo’ldosh xoji Turdiyev maqbaraga boruvchi yo’lni to’liq o’z xisobidan ikki metr kenglikda kengaytirib, plita yotqizib, to’liq o’z hisobidan 2 muyer kenglikda kengaytirib tamirlashni o’z zimmasiga oldi va 100 million so’mdan ziyod mablag’ sarfladi.

So’fi Olloyor ziyoratgohi ko’pchilikning sa’yi harakatlari orqali shinam va mahobatli maqbaraga aylandi. Ziyoratgohning maqbarasi uchun xorazmlik ustalar ish olib bordilar. Qurilish 2010 yil dekabr oyida yakunlandi. Ziyoratgohning maqbarasida samarqandlik ustalarning ishlaganligi yaqqol ko’zga tashlanadi. Majmuaning sayyohlar uchun ham muhim o’rni bor. Maqbarani va So’fi Olloyor ziyoratgohini ko’rish uchun qo’shni mamlakatlardan sayohlarning tashrifi yanada orti.

So’fi Olloyor ziyoratgohi kabi tarixiy obidalar atrofida sayyohlar turarjoyi yani shinam va ihcham mexmonxonalar, dam olish maskanlari barpo etilsa maqsadga muvofiq bo’lar edi. Bunday joydagi mehmonxonalar dam olish uchun qulay, qolaversa vatanimiz tarixini chet el mamlakatlari habardor bo’lishlari uchun ham muhim hisoblanadi. Shunga o’xshash tarixiy obidalar sayyohlarni jalb qilish orqali iqtisodiyotimizni ham boyitadi. Turistik xizmatlarni ishlab chiqarishda rentabellikning barqaror o’sishini ta’minlashdagi elementlarni keltirib o’tamiz.

Joylashtirish – turizm industriyasining eng muhim elementidir. Joylashtirish (tunash) bo’lmasa, turizm ham bo’lmaydi. Bu turistlarni qabul qilib olish va o’z turistik resurslarini ishlatishdan qat’iy nazar va katta daromad olishga tashna bo’lgan har qanday turistik region va markaz iqtisodiyotining talabidir. Mehmonxona industriyasi mehmondo’stlik tizimining mohiyatidir. U insoniyat tarixidagi har qanday ijtimoiy formatsiyaga xos bo’lgan mehmonni hurmat qilish, uni qabul qilib olish va xizmat ko’rsatish tantanalari kabi eng qadimgi an’analaridan

kelib chiqadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, mutlaqo tranzit turistlar va ekskursion xizmat ko’rsatish hisobiga yashaydigan turistik markaz va joylar mavjud. Lekin, bu holda yaxshi foyda olish uchun turistik mahsulot tovarni tashkil qiluvchi xususiyatga ega bo’lish kerak. Mehmondo’stlikning (mehmon qabul qilish) bugungi industriyasi - bu region yoki turistik markaz xo’jaligining eng kuchli tizimidir va turizm iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismidir. Mehmon qabul qilish industriyasini kollektiv va individual joylashtirishning turli xildagi hotellar, mehmonxonalar, motellar, yoshlarning xostel va yotoqxonalari, apartamentlar, turistik xutorlar, shuningdek turistlarni joylashtirishda ishtirok etuvchi xususiy sektor vositalarini tashkil etadi.

Yurtimizda hali o’rganib ulgirmagan tarixiy joylar ham mavjud. Har bir tarixiy joyi obod qilib, sayyohlar uchun yanada yaxshiroq sharoitlar yaratilsa turizm sohasining rivoji uchun, ba’zi o’rinlarda mexmonxona bozorining rivojlanishi uchun ham ulkan hissa qo’shadi.

Turizm va mehmonxonada marketing vazifalari – turistik korxonaning maqsadlariga erishish uchun sharoitlar yaratib berish. Turizm marketing vazifalari odatda turizm sohasi korxonalarining marketing vazifalaridan kelib chiqqan holda ularni oydin qiladi. Marketingning muhim vazifasi imkon boricha firmaning faoliyatida barqarorlikni, strategik maqsadlarni rivojlanishida va erishishda rejalashtirishga bo’ysinishni ta’minlashga qaratilgan bo’ladi. Agar xizmatlar sohasida paydo bo’ladigan xususiy muammolarga e’tibor bermasa, turizm marketing vazifalarning uchta guruhini ajratish mumkin:

Bozorni, talabni, iste’molchilar didi va xohishini puxta va har tomonlama o’rganish asosida bozorga chiqish, shu talablarga javob

beruvchi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish;

Xizmatlar ishlab chiqaruvchining bozor izmini oshiruvchi bozor munosabatlarning ijtimoiy – iqtisodiy samarasini oshirishi va ularning eng ma'qul darajasiga erishish, xizmatlar turlanishini doimo kengaytirish, yangi bozorlar (bozor segmentlar) ni faol qidirish, mavjud bo'lgan bozorlarni kengaytirish. Barcha mavjud bo'lgan vositalar yordamida hayotga marketing xizmatlar rejasini uzluksiz tadbiiq etish asosida iste'molchilar va bozorga ta'sir etish, ya'ni ishlab chiqarilgan tovarni oldingi siljitishning asoslangan va samarali siyosatini yaratishdan iboratdir.

Yodgorliklarimizni asrab avaylab turizm manzilgohlariga aylantirilsagina iqtisodiyotimiz uchun ulkan hissa qo'shadi deb bemalol ayta olamiz. Chunki yurtimizda tarixiy obidalar, yodgorliklar, dam olishga mo'ljallangan joylar yetarlicha.

Xulosa. Har bir davlatning rivojlanish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, albatta turizm bilan bog'liq bo'ladi. Har bir davlat o'z yurtini butun dunyoga tanitish uchun ham o'zining turizm sohasini yetarli ehtiyojlar bilan ta'minlaydi. Biz bu maqolani to'liq yoritib berish jarayonida turizmning qadimgi davrlardan buyon to hozirgacha rivojlanib kelayotganiga amin bo'ldik. Shunday ekan, biz qanday sohaga qiziqishimizdan qat'iy nazar turizm sohasi bilan o'zimizning hayotiy faoliyatimizni bog'lashimiz va e'tibor qaratishimiz lozim.

Turizm sohasida tarixiy obidalarining o'rnini yaratish uchun yetarli darajada sarmoya kiritish, sayyohlar uchun dam olish maskanlari barpo etish, mehmonxona bozorini shakillantirish lozim. Tarixiy maskanlarning iqtisodiyotdagi o'rne uchun alohida e'tibor qaratish turizmning rivojlanishida maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ziyoratgohlar turizmining o'zginasidan ham iqtisodiyot uchun yetarlicha foyda kelishi mumkin va buning uchun har bir tarixiy obidalar uchun puxta rejalar ishlansa ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. – T.: O'zbekiston, 2015. 25-27 b.
2. Bekmuradov A.Sh., Qosimova M.S., Safarov B.J.

Xizmatlar marketingi. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010 y. - 134 b.

3. Ergashxodjaeva Sh.J., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2011. - 202 b.

4. Mirzayev.R., So'fi Olloyor o'rganilmagan ummon. Toshkent-2016. 78-90 b.

5. Tursunov.S., Qobilov.E., Murtazoyev.B., Pardayev.T, Surxondaryo tarixi. Toshkent-2004 sharq nashriyoti. 117-130 b.

6. Tuxliyev I.S., Qudratov G'.H., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. –T.: «Iqtisod-moliya» nashriyoti. 2010. – 263 b.

7. Yangilanayotgan Surxondaryo. Toshkent-2022. 112 b

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2016 yil 16 yanvar.

09.00.00

FALSAFA TANLARI





“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Norqobilov Muzaffar Jumayevich

“Yosh chegarachilar” harbiy akademik litseyi direktori, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Termiz (O‘zbekiston)

VATANPARVARLIK- IJTIMOIY KAPITALNING MUHIM TARKIBIY ASPEKTI

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Ijtimoiy kapital” tushunchasining mazmuni va tarkibi, omillari va mezonlari haqida ilmiy ma’lumotlar yoritilgan, Kishilik jamiyati taraqqiyotida ijtimoiy kapital evolyutsiyasi, Zamonaviy sotsiumdagi ijtimoiy kapitalahvolini o‘lchash uslubiyoti va uning aprotatsiyasi, O‘zbekistondagi ijtimoiy kapital xususiyatlari, funksiyalari va rivojlantirish resurslari, Ijtimoiy kapital konsolidatsion xususiyatini zaiflashtirayotgan muammolar haqida ilmiy ma’lumotlar yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: ijtimoiy kapital, sotsium, konsolidatsion xususiyat, shaxslararo hamkorlik, indeks.

ПАТРИОТИЧЕСКИ ВАЖНЫЙ СТРУКТУРНЫЙ АСПЕКТ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА

Аннотация. В данной статье содержатся научные сведения о содержании и составе понятия «Социальный капитал», факторах и критериях, эволюции социального капитала в развитии человеческого общества, методологии измерения состояния социального капитала в современном обществе и ее утверждении. Выделены характеристики, функции и функции социального

капитала в Узбекистане, ресурсы развития, научная информация о проблемах, ослабляющих функцию консолидации социального капитала.

Ключевые слова: социальный капитал, общество, характеристика консолидации, межличностное сотрудничество, индекс.

PATRIOTIC-IMPORTANT STRUCTURAL ASPECT OF SOCIAL CAPITAL

Abstract. This article contains scientific information about the content and composition of the concept of "Social capital", factors and criteria, the evolution of social capital in the development of human society, the methodology of measuring the state of social capital in modern society and its approval, the characteristics, functions and functions of social capital in Uzbekistan. development resources, scientific information about the problems that weaken the social capital consolidation feature is highlighted.

Key words: social capital, society, consolidation characteristic, interpersonal cooperation, index.

Kirish. Jahonda globallashuv jarayonlari zamonaviy jamiyatning ijtimoiy kapitali tabiatiga salbiy ta’sir o‘tkazayotganligi insonning fuqarolik



pozitsiyasiga ega bo'lishini, jamiyat sohalarida faollik ko'rsatishini, ijtimoiy foydali ishlarda ishtirok etishini va motivatsiyasini rivojlantirishni talab qilmoqda. Bu jarayon va omillar ta'siri jamiyatdagi ijtimoiy aloqalar mazmunini, shaxslararo aloqalar xarakterini, o'zaro ishonch muhiti, kishilarning ijtimoiy normalarga amal qilishi darajasini, umuminsoniy qadriyatlarga moyillik meyorini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy kapitalning mazmuni va tarkibiy tuzilishini, evolyutsiyasi va shakllanish qonuniyatlarini, konsolidatsion xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda "inson qadri uchun" tamoyili asosida inson huquqlarini ta'minlash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga oid islohotlar amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekiston strategiyasining maqsadi yurtimizning baxtli va barkamol insonlar farovon yashaydigan, ijtimoiy adolat tamoyillari to'liq qaror topgan, dunyoning eng rivojlangan, barqaror o'sayotgan va inson kapitali yuqori bo'lgan demokratik davlatlari qatoridan joy olishini ta'minlashdir. Buning uchun aholining barcha qatlamlariga munosib hayot darajasini va turmush sharoitlarini yaratib berish, ijtimoiy himoya tizimi samarasi, bandlik va daromadlar barqaror o'sishiga erishish, jamiyatning umumiy madaniyati, bag'rikenglik va mehribonlik fazilatlarini yanada oshirish bo'yicha olib borayotgan ezgu va savobli ishlarimizni yanada kuchaytirishni o'zimizning burchimiz,

deb hisoblaymiz" [1; 264-b.]. Shu tufayli ijtimoiy aloqalar xarakterining inson omilini faollashtirish, ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish, taraqqiyotga safarbar etish jihatlarini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan ochib berish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020 yil 2 iyundagi PF-6003-son "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida" farmonlari, 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari va Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 14 dekabrda 781-son "2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida" qarorlari hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ijtimoiy kapital strategik ahamiyatining oshayotgani uning dinamikasini mufassal va muttasil o'rganish zaruriyatini tug'dirmoqda. Shu munosabat bilan uning rivojlanganligi darajasini aniqlash uslubiyoti bilan bog'liq ilmiy masalalar dolzarb tus olmoqda. Bobda mamlakatlardagi ijtimoiy kapitalning rivojlanganligi darajasini aniqlashda qo'llaniladigan Fukuyama uslubi, ijtimoiy kapitalning rivojlanganligi darajasini indeksda ifodalash uslubi, ijtimoiy kapitalni baholash uslubi mazmuni va aprobatsiyasi ko'rsatilgan. Tahlil va natijalar. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonni barpo etishga yo'naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy jarayonlar tobora jadallashmoqda.

Ushbu jarayonlar salmoqli natijalar bilan yakun topishi uchun muayyan siyosiy dastur bo'lishi kerak, albatta. Bunday dastur 2021 yilning 6 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan Sh. Mirziyoyevning inauguratsiya marosimida ma'lum qilingani yaxshi ma'lum. Biroq masalaning yana bir jihati bor. Har qanday jiddiy ahamiyatga molik dasturni ro'yobga chiqarish masalasi milliy hamjihatlikni mustahkamlashni ham taqozo qiladi. Chunki millat vakillari orasida yakdillik, hamjihatlik, hamkorlik bo'lmas ekan, eng ezgu maqsadlar ham orzuligicha qolib ketadi. Shu munosabat bilan milliy hamjihatlikni mustahkamlash omillari tahlili alohida ahamiyat kasb qilmoqda.

Milliy hamjihatlik deganda millat vakillarining yakdilligi nazarda tutiladi. Bu yakdillik ehtiyoj va manfaatlar uyg'unligi, o'zaro ishonch va hamkorlik asosida yuzaga keladi. Milliy hamjihatlik barcha zamonlarda ijtimoiy barqarorlik va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashning muhim omili vazifasini o'tab kelgan. Shu boisdan milliy hamjihatlikni qaror toptirish bilan bog'liq muammolar mutaxassislar tomonidan keng tadqiq qilingan. Masalan, o'tgan asr boshlaridayoq fransuz sotsiologi E.Dyurkgeym mazkur muammoning turli jihatlarini puxta o'rganib, milliy hamjihatlik nazariyasini ilgari surgandi [3; C.138]. Biroq XX asrning so'nggi choragiga kelib, milliy hamjihatlikni asrash masalalari yangicha mazmun kasb qildi. Chunki, bir tomondan, kishilik jamiyatida ijtimoiy tizimlarning yaxlitligiga putur yetkazadigan omillar ko'paygandan ko'paydi. Ikkinchi tomondan esa, xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar nihoyatda murakkablashdi. Yuzaga kelgan vaziyatda millat vakillari o'rtasidagi yakdillikni saqlab qolish vazifasi borgan sari qiyinlashmoqda. Shu sababli mazkur vazifa davlatlar amalga oshirayotgan siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Aynan shuning uchun ham davlat rahbari: "Jamiyatimizda hukm surayotgan o'zaro do'stlik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish, qaysi millat, din va e'tiqodga mansubligidan qat'i nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqlarni ta'minlash e'tiborimiz markazida bo'ladi" [2; 138-b.], - deb ta'kidlagan edi.

Milliy hamjihatlikni ta'minlash va mustahkamlashga

xizmat qiladigan omillar o'zining turli-tumanligi bilan xarakterlanadi. Bu borada mulohaza yuritganda turfa iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy-madaniy omillar tilga olinadi. Mazkur mulohazalarning barchasi o'rinli va asosli, albatta. Biroq milliy hamjihatlikni ta'minlashning ijtimoiy kapital bilan bog'liq qudratli omili ham mavjud. Chunki aynan ijtimoiy kapital milliy hamjihatlikning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. "Ijtimoiy kapital" tushunchasi ilk bor ingliz olimi L.J.Xanifanning maqolasida qo'llanilgan edi. Muallif uni jamiyatdagi birdamlikning shakllanganligi darajasini hamda kishilarning ijtimoiy hayotga ishtiroki meyorini belgilash uchun ishlatgandi. Shundan so'ng uzoq yillar davomida mazkur tushuncha ilmiy muomalada bo'lmadi. O'tgan asrning 60-yillariga kelibgina ilmiy manbalarda "ijtimoiy kapital" tushunchasi qayta paydo bo'la boshladi. Jumladan, amerikalik olim J.Jeykobs ushbu tushunchani ijtimoiy aloqalarning ahamiyatini ifodalash maqsadida ishlatdi [4; 103-b.].

O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab "ijtimoiy kapital" tushunchasi G'arb sotsiologiyasining eng muhokamabop tushunchalaridan biriga aylandi. Uning mazmuni va tarkibi tizimli ravishda P. Burdye tomonidan atroflicha ochib berildi. Olim ijtimoiy kapital deganda muayyan manfaat keltirishi mumkin bo'lgan ijtimoiy aloqalar yig'indisini tushunadi [5; C.132]. Keyinchalik uning mulohazalari sotsiolog D.Koulmen va siyosatshunos R. Petnam tomonidan rivojlantirildi [6]. Ular jamiyatda barcha a'zolar tomonidan qo'llaniladigan, amal qilinadigan ijtimoiy meyorlar va axloqiy qadriyatlar majmui



mavjudligini qayd qiladilar. Olimlarning fikriga ko'ra, bu me'yor va qadriyatlar umumjamiyat miqyosida ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yish imkonini beradi. Masalan, R. Petnam "ijtimoiy kapital" tushunchasini ijtimoiy hayotning xarakterli xususiyatlari (o'zaro ta'sir, meyorlar, ishonch) bilan bog'laydi, u jamiyatdagi iqtisodiy faoliyat subyektlariga umumiy maqsad yo'lida samarali harakat qilishga imkon beradi, deb ta'kidlaydi. Olimning ta'kidlashicha, ijtimoiy kapital jamiyatdagi iqtisodiy farovonlikni ta'minlashda, ijtimoiy-siyosiy soha rivojiga erishishda hal qiluvchi rol o'ynaydi[7; C.25].

Bugungi kunda ham ijtimoiy kapitalning mazmuni va tarkibi bilan bog'liq turli nazariy xulosalar ilgari surilmoqda. Ahamiyatli jihati shundaki, bunday xulosalar ko'pligiga qaramasdan, fikrlarni yagona maxrajga keltirish nihoyatda mushkul. Chunki tadqiqotchilarning bir guruhi ijtimoiy kapitalni butun jamiyatning muhim atributi sifatida talqin qiladi. Bunda ijtimoiy kapital shaxs xulq-atvorining jamiyatda umume'tirof etilgan normalarga mutanosibligini ko'rsatuvchi tushuncha sifatida tahlil qilinadi. Izlanuvchilarning ikkinchi guruhi ijtimoiy kapitalni muayyan ijtimoiy guruhdagi resurslar va ijtimoiy aloqalarni ifodalovchi tushuncha sifatida ta'riflaydi[6; C.218]. Uchinchi guruh tadqiqotchilari ijtimoiy kapitalni individga xos bo'lgan xususiyatlar majmui tarzida tasavvur qiladi. Ularning fikriga ko'ra, bu xususiyatlar individning aniq bir ijtimoiy guruhga a'zolari sharoifati bilan shakllanadi.

Bugungi kunda mamlakatlar ijtimoiy kapitalining indeksini belgilashdan avval ulardagi shaxslararo hamkorlik, o'zaro yordam va o'zaro ishonch, fuqarolarning ijtimoiy normalarga amal qilishi, kishilar uchun umumiy bo'lgan qadriyatlarning shakllanganligi darajasi o'rganilmoqda. Buning uchun minglab respondentlar orasida sotsiologik so'rovlar va suhbatlar o'tkaziladi, mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy hayotiga doir rasmiy statistik ma'lumotlar, akt va argumentlar tahlil qilinadi [7; C.162-164]. Mazkur izlanishlar asosida mamlakatlar ijtimoiy kapitali indeksi belgilanadi. Jumladan, 4-5 ballik indeks ijtimoiy kapitalning eng yuqori darajada


rivojlanganini, 2-4 ballik indeks ijtimoiy kapitalning yuqori darajada rivojlanganini, 0-2 ballik indeks ijtimoiy kapitalning o'rta darajada rivojlanganini, 0 ballidan kam indeks ijtimoiy kapitalning past darajada rivojlanganini ifodalaydi. Odatda bunday indekslar asosida jamiyat a'zolari turmushining farovonligi darajasi va milliy hamjihatlikning shakllanganligi meyori xususida xulosa qilinadi.

Masalan, Legatum Institutining ushbu uslub yordamida jahon mamlakatlarida o'tkazgan izlanishlari eng avvalo turli jamiyatlardagi shaxslararo hamkorlik va o'zaro yordam ahvolini aniqlashga qaratildi. Izlanishlarning natijalariga qaraganda, mamlakatlarda shaxslararo hamkorlik ahvoli quyidagi ko'rinishga ega:

Mamlakatlar	Shaxslararo hamkorlikka moyil fuqarolar (%)	Mamlakatlar	Shaxslararo hamkorlikka moyil fuqarolar (%)
Norvegiya	74,2	Germaniya	31,6
Daniya	64,2	Ukraina	30,7
Xitoy	59,6	Avstriya	30,1
Finlyandiya	58,5	Portugaliya	27,9
Shvetsiya	56,1	Rossiya	24,7
Yangi Zelandiya	51,2	Pokiston	22,4
Niderlandiya	46,9	Ispaniya	22,4
Avstraliya	46,1	Italiya	20,7
Shveysariya	45,3	Hindiston	20,6
Kanada	41,9	Fransiya	19,9
AQSH	37,1	Gretsiya	16,5
Buyuk Britaniya	35,8	Vengriya	13,3
Yaponiya	33,9		

Natijalardan ko'rinib turibdiki, jahonning barcha mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sur'atlaridan qat'i nazar shaxslararo hamkorlikka moyil fuqarolar kamligicha qolmoqda. Aksariyat mamlakatlarda jamiyat a'zolarining yarmi va hatto undan ko'pi shaxslararo hamkorlikka ishtiyoqmand emas.

Legatum Instituti izlanishlariga qaraganda, turli mamlakatlarda fuqarolar o'rtasidagi o'zaro yordam ahvoli ham qoniqarli darajada emas. Xususan, "Keyingi oyda o'z oila a'olaringizdan boshqa kishilarga yordam berdingizmi?"- degan savolga yuqoridagi mamlakatlarda istiqomat qilayotgan respondentlarning ijobiy javob berganlari foizi quyidagicha bo'ldi:



FALSAFA FANLARI

Mamlakatlar	O'zaro yordam bergan fuqarolar (%)	Mamlakatlar	O'zaro yordam bergan fuqarolar (%)
AQSH	42,1	Yaponiya	21,3
Kanada	42,3	Daniya	22,6
Yangi Zelandiya	38,3	Hindiston	10,0
Niderlandiya	34,3	Estoniya	21,5
Norvegiya	37,9	Rossiya	17,4
Avstraliya	36,6	Ispaniya	12,6
Buyuk Britaniya	25,9	Portugaliya	10,0
Ukraina	19,8	Pokiston	11,8
Avstriya	23,9	Chexiya	13,6
Germaniya	24,2	Shvetsiya	11,4
Finlyandiya	27,0	Vengriya	7,6
Fransiya	29,3	Xitoy	3,6
Italiya	18,0	Gretsiya	3,1


Yuqoridagi ikki jadvalning qiyosi diqqatga sazovor xulosalarga kelish imkonini beradi. Chunonchi, shaxsiy hamkorlikka moyil fuqarolarning hammasi ham amalda boshqalarga yordam berishga oshiqavermaydilar. AQSH, Norvegiya, Daniya, Finlyandiya, Xitoy kabi mamlakatlarning ikki jadvaldagi ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovut ham shundan dalolat beradi. Bu, bir tomondan, individualistik turmush tarzining qaror topgani, fuqarolarning o'z manfaat va muammolariga diqqatni jamlagani bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ikkinchi tomondan esa, jamiyat a'zolari o'rtasida o'zaro yordamning zaifligiga boshqa omillar, jumladan, ijtimoiy ta'minot tizimining rivojlanganligi darajasi ham ta'sir ko'rsatadi. Aytaylik, Daniya, Norvegiya kabi ijtimoiy ta'minot va himoya tizimi samarali faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatlarda o'zaro yordam funksiyalarini shu tizim institutlari bajaradilar. Lekin, har qanday holatda ham, jahon mamlakatlarida kishilarning bir-biriga beg'araz yordam berishi hollari kamayib borayotgani faktligicha qolaveradi.

Jahon mamlakatlari ijtimoiy kapitali indeksini belgilash maqsadida o'tkazilgan izlanishlar turli jamiyatlardagi o'zaro ishonch ahvolini aniqlab berdi. Unga ko'ra, turmush tarzida jamoaviylik tamoyillari ustuvor bo'lgan mamlakatlarda o'zaro ishonch darajasi ham balandligicha qolmoqda. Individualistik turmush tarzi hukm surayotgan mamlakatlarda esa bu borada nisbatan past ko'rsatkichlar qayd qilinmoqda. Buni quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin:

Mamlakatlar	Ishonch darajasi (%)	Mamlakatlar	Ishonch darajasi (%)
Xitoy	76	Shvetsiya	49
BAA	68	AQSH	49
Singapur	67	Janubiy Koreya	44
Hindiston	65	Polsha	44
Meksika	63	Buyuk Britaniya	41
Niderlandiya	61	Irlandiya	41
Kanada	58	Fransiya	40
Italiya	56	Germaniya	39
Argentina	54	Ispaniya	37
Avstraliya	53	Yaponiya	34
Braziliya	51	Rossiya	32

* *Jadval quyidagi manba ma'lumotlari asosida tayyorlandi: Баскакова И.В. Оценка социального капитала в различных странах // XIX Международная конференция «Культура, лизность, общество в современном мире: методология, опыт эмпирического исследования»: сборник материалов конференции.- Екатеринбург, УрФУ, 2016. — С. 274.*

Mamlakatlarda shaxslararo hamkorlikka moyil kishilarning kamayib borayotgani, o'zaro yordam amaliyoti zaiflashayotgani sabablari qisman o'zaro ishonch tuyg'usining so'navotgani bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Kishilarning davlatga, biznes subyektlariga, ommaviy axborot vositalariga, jamoat tashkilotlariga ishonchi ham yuqoridagi ko'rsatkichlarga hamohang [8; С.274]:



Mutaxassislar fuqarolarning mazkur ijtimoiy institutlarga ishonchi kamayib borayotganini qayd qiladilar. Xususan, ko'pgina mamlakatlarda ijtimoiy taraqqiyot sur'atlarining sekinlashishi, ijtimoiy dasturlar ijrosidagi uzilishlar, korrupsiya va shu kabi omillar fuqarolarning davlat organlariga ishonchi darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Koronavirus pandemiyasi davrida ijtimoiy himoya tizimining besamar faoliyati ham kishilarning davlatga



ishonchiga putur yetkazdi. Bu holat Yevropaning ko'plab mamlakatlarida norozilik kayfiyatini vujudga keltirdi. Shuningdek, keyingi yillarda umumijtimoiy manfaatlardan uzilib qolgan biznes subyektlariga, noobyektiv ma'lumotlar tarqatishni odat qilgan yetakchi ommaviy axborot vositalariga ishonchning kamayayotgani ham ko'zga tashlanmoqda.

Xulosa. Ijtimoiy kapitalning milliy hamjihatlikni ta'minlash manbaiga oid ilmiy tahlillar asosida xulosalarga kelindi:


1. Yangi O'zbekistonni barpo etish bilan bog'liq strategik maqsad milliy hamjihatlikni mustahkamlashni taqozo qilmoqda. Milliy hamjihatlikni ta'minlashning muhim manbalaridan biri ijtimoiy kapitalning konsolidatsion xususiyatini takomillashtirishdan iborat. Jamiyatdagi shaxslararo hamkorlikni insonparvarlashtirmasdan, ishonch muhitini barqarorlashtirmasdan, kishilarning ijtimoiy norma va qadriyatlarga moyilligini oshirmasdan turib, ularni biror bir ahamiyatli maqsad atrofida birlashtirib, bu maqsad sari safarbar qilib bo'lmaydi. Ijtimoiy taraqqiyotning bugungi bosqichida barcha mamlakatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham ijtimoiy kapitalning tarkibiy elementlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar tobora ko'payib bormoqda. Shu munosabat bilan ijtimoiy kapitalning mazmuni va tarkibini nazariy tahlil qilish, uning milliy hamjihatlik manbai sifatidagi imkoniyatlarini yuksaltirish yo'llarini aniqlash muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

2. Ijtimoiy kapital – jamiyatdagi ijtimoiy aloqalar xarakterini, jamiyat a'zolarining o'zaro hamkorligi darajasini, ularning boshqa kishilar va institutlarga ishonchi meyorini, umumiy ijtimoiy norma va qadriyatlarga moyilligi darajasini ifodalovchi tushunchadir. Sanab o'tilgan elementlar ijtimoiy kapitalning strukturasi tashkil etadi.


3. Ijtimoiy kapital insoniyat tarixi mobaynida qator tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy omillar ta'sirida shakllangan. Uning mazmuni tarixgacha bo'lgan davrda - totemizm g'oyalariga asoslangan jamoaviy o'zaro yordam, qadimgi dunyoda - odatlarga asoslangan tabaqa ichidagi hamkorlik, o'rta asrlarda din normalariga asoslangan tabaqalararo hamkorlik, renessans davrida gumanizm g'oyalariga asoslangan tenghuquqli hamkorlik, yangi zamonda ma'rifatparvarlik g'oyalariga asoslangan umumijtimoiy hamkorlik bilan bog'liq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston", 2021. - B.264.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - B.138.
3. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. — М.: Наука, 1991. — С.138
4. Jacobs J. The Death and Life of Great American Cities. — New York: Random House, 1961. - P.103
5. Бурдые П. Социология политики.- Москва, 1993. — С.132
6. Коулмен Дж. Капитал социальный и человеческий // Общественные науки и современность, 2001. №3;
7. Пэтнам Р. Чтобы демократия сработала. Гражданские традиции в современной Италии. – Москва: Ad. Margmem, 1996. - С.25.
8. Баскакова И.В. Оценка социального капитала в различных странах // XIX Международная конференция «Культура, личность, общество в современном мире: методология, опыт эмпирического исследования»: сборник материалов конференции.- Екатеринбург, УрФУ, 2016. — С. 274.




FILOLOGIYA FANLARI



10.00.00

FILOLOGIYA FANLARI





NATIONAL AND CULTURAL FEATURES OF BRAND NAMES

Abstract: The regional specificity of people's life creates conditions for the development of each people's culture and makes it possible to name objects and concepts. In this way, a brand name is formed, it affects the social mentality of people, and the practical direction of national brands is revealed. In this article, the importance of the linguistic and cultural research of the nomination of brands, their different semantic aspects, and the fact that the meaning-content-characteristic features of independently named concepts are in many cases made up of language units with national-cultural content. Of course, national-mental phenomena play an important role in naming brands. It is understood that it is possible to get information about Uzbek national culture, values, especially national traditions through Uzbek national brands.

Key words: Nomination,

brand, linguistic and cultural aspect, national and cultural feature, concept, lexical unit, positive meaning, national identity, traditions.

BRENDLAR NOMINATSIYASINING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Xalqlar hayotining mintaqaviy o'ziga xosligi har bir xalq madaniyatining rivojlanishi uchun sharoit yaratib beradi va predmet hamda tushuncha nomlanishiga imkon tug'diradi. Shu tarzda brend nomi shakllanadi, u insonlarning ijtimoiy ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi, milliy brendlarning amaliy faoliyat yo'nalishi ochib beriladi. Ushbu maqolada brendlar nominatsiyasining lingvomadaniy tadqiqi muhimligi, ularning semantik ma'no qirralari turlichaligi hamda mustaqil holda nomlangan tushunchalarning ma'no-mazmun belgi

xususiyatlari ko'p hollarda milliy-madaniy mazmunga ega bo'lgan til birliklaridan tashkil topgani aniqlandi. Brendlarga nom berilishida, albatta, milliy-mental fenomenlar muhim o'rin tutadi. Anglashiladiki, ayniqsa, o'zbek milliy brendlari orqali o'zbek xalq madaniyati, qadriyatlari, xususan, milliy an'analari haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Tayanch so'zlar: Nominatsiya, brend, lingvomadaniy aspekt, milliy-madaniy xususiyat, tushuncha, leksik birlik, ijobiy ma'no, milliy xoslik, urf-odatlar.

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ НОМИНАЦИИ БРЕНДА

Аннотация: Региональная специфика жизни людей создает условия для развития культуры каждого народа и дает возможность называть предметы и понятия. Таким образом формируется название бренда, оно влияет на социальный менталитет людей, раскрывается практическая направленность национальных брендов. В данной статье подчеркивается важность лингвокультурологического исследования номинации брендов, их различных семантических аспектов, а также содержание смысла, особенности характеристики самостоятельно названных концептов. Культурный концепт во многих случаях складывается из языковых единиц с национальным характером. Конечно, важную роль в именовании брендов

играют национально-ментальные явления. Понятно, что через узбекские национальные бренды можно получить информацию об узбекской национальной культуре, ценностях, особенно национальных традициях.

Ключевые слова: Номинация, бренд, лингвокультурный аспект, национально-культурная особенность, концепт, лексическая единица, положительный смысл, национальная идентичность, традиции.

Introduction: The language of business is not a set of words, but a clear and well-thought-out structure that includes brand names, complex ideas and popular stories with deep meaning. Almost all of these elements, with a few exceptions, are figures of speech that affect the behavior of customers, customers, employees, and most importantly, make a profit. The behavior of market participants is largely determined by the language of business.

Fundamental changes in the field of science in our country determined a number of priority tasks of linguistics, that is, in solving problems such as "maintaining the purity of the state language, enriching it, increasing its position and prestige at the international level, developing foreign cooperation relations" [1: P.01]. Systematic approach to the study of linguistic and cultural units, in particular, brands and their naming, put on the agenda the issues of creating their scientific theoretical basis at the level of world standards. In modern society, the brand and its linguistic semantics act as one of the mental units of the language picture of the world, accumulating various associative images, concepts, representations, attitudes, evaluations, which are realized in English and other languages [2:P.151].

The study of the linguistic-cultural aspect of brand nominations is of great importance because brand names often

constitute linguistic constructs that reflect the uniqueness of national culture. When giving names to brands, national-mental phenomena certainly play a significant role. Moreover, through Uzbek national brand names, it is possible to gain information about Uzbek culture, values, especially national traditions and customs. Precisely through these aspects, national-cultural characteristics become apparent in brand nominations. As emphasized above, the nomination is a process and result of naming concepts, where language elements interact with the object [3: P. 230].

Literature analysis: When discussing the national-cultural characteristics of brand nominations in this article, we

primarily consider naming through words and word combinations. V.Y.Chunakova, A.A.Medvedeva, M.A.Dubinina, Yu.S.Naydenov, U.A.Adamenko, S.A.Shusharin, Dj.K.Verkmán, N.N.Morozova, V.Y.Kojanova, O.V.Gluxova, and X.D. Paluanova highlights the method of delivering information expressed in language as being crucial to accurate naming [4: P. 17]. Certainly, this is a fundamental concept related to nomination.

Research methodology: In any brand nomination, naming through lexical units or word combinations (lexical nomination) is referred to as appealing directly to a ready-made concept. This, in turn, is regarded as a binary nomination outcome. It's known that brand names formed through the semantic method from lexemes in the general language also fall under this second (binary) nomination process.

Apart from Uzbek words and idioms, the inclusion of Arabic words with unclear meanings in brand names was also observed: "Ansor" restaurant.

The first criterion in naming brands is the selection of lexical units that are familiar to the public and have a positive meaning, and this unit should correspond to both the brand product and its symbol.

Analysis and results: In English, during the process of brand nominations, acquiring semantic meanings, from a linguistic-cultural perspective, they are transformed into nationally meaningful units. Especially when present in one language but lacking a counterpart in another, national-cultural uniqueness becomes distinctly evident. Additionally, brands that have entered the international arena by not resorting to counterparts in



other languages also possess national-cultural markers. This situation is observed in Uzbek, English, and Russian languages. For example, the naming of brands using Uzbek national linguistic units, their formation in a national cultural style, the formation of national semantic associative units, and their special production by language speakers demonstrate their national-cultural orientation. Such names provide the opportunity to identify certain semantic functions alongside their relationships. Similarly, in the participation of lexemes, using the word “Xon” as an example in brand naming is possible, for example: “KHAN CHAPAN”, “XON”, Kafe “Xon”, “Xon” (To‘yxonasi), “Xonpalace Hotel”, “Khan Orda Hotel”, “Temurkhan Hotel”, “ABBOS KHAN house” etc.

The national brand “KHAN CHAPAN” operates a restaurant. This word combination is introduced as a reality, where “KHAN” and “CHAPAN” are formed based on the English language as a reality in English. We refer to the Uzbek language explanatory dictionary. There, the word “xon” is explained as follows: “Xon - 1. Title of rulers among Turkic and Mongolian peoples. Qo‘qon Khan. Khan’s palace. 2. Added to the name of a person who has ruled as a Khan, indicating the title. Bahodir Khan - in Khiva, Khudoyor Khan - who ruled in Qo‘qon” [5:P.410]. “CHAPAN” - a long national garment worn over clothes, stuffed with cotton inside; robe. “Beggar’s robe. Cotton robe. Winter robe. To wear a robe” [6: P. 506.]. By using these two lexemes, a national identity is given to the brand name.

Indeed, “Chopon” is considered an important attribute in Uzbek national customs and traditions. It has maintained its significance within the range of Uzbek national clothing. Among Uzbek brands, the “Mursak” brand, which produces

women’s clothing, holds a special place [6: P. 646.]. The word used to denote the new style of traditional Uzbek outerwear worn by women is a word that has gained popularity today and is somewhat limited in use. The selection of this lexeme as a brand name not only prevents the disappearance of a less used word but also contributes to the entry of a word expressing national uniqueness into the global market, along with its service to expressing national identity.

In the analysis of brand names, it was found that many brands are named with ancient titles. The inclusion of the lexeme “BEK” into this series is possible. It is known that among Turkic peoples, the lexeme “Bek” was used as a title

or name. Historically, the term “Bek” conveyed the meaning of “prince” or “nobleman”. Among Turkic-speaking peoples, “Bek” was a title given to officials serving as governors or rulers. In Central Asian Khanates, beks were high-ranking officials or rulers, appointed as governors of specific regions. “Bek” was not only a title but also a symbol of respect and a prestigious address. Later, it began to be used as a personal name as well.

In the modern world, the lexeme “Bek” is used as a brand name for cafes, restaurants, hotels, companies, etc. The number of brands incorporating the term “Bek” in their titles is increasing in Uzbekistan. For example:

“BEK BREND”, “Bek brend korxonasi”, “FAYZ-BEK”, “Bek shok brend ooo”, “Ibrohim Bek”, “Restoran Bek”, “Bistro-Bek”, “Semya restoranov BEK”, “Bek restoran”, “Bek kafe” etc. The extensive use of such lexemes is also observed in English brand names. For example, the English word “King” derives from the Anglo-Saxon word “cyning” and in various contexts and historical sources, it denotes the title given to a male monarch. In contrast, the equivalent term used for females is “Queen”, which is bestowed upon the consort of a king. Brands derived from such titles include: “King”, “Princes”, “Lady”, “Mr.”, “Aristocrat” etc.

The term “Malika” can also be an example for this type of Uzbek brand names. Malika (Arabic) – 1. Queen. 2. A

woman belonging to the royal family [7: P.533.]. In the past, girls were given the name “Malika” with the hope that they would become as dignified and influential as queens. This name is still used in this sense. The following Uzbek national brands are identified with this term: The “Malika” restaurant chain has been established in Tashkent, Samarkand, Khiva, Jizzakh,



and Termez, and boasts a positive reputation. Additionally, brands such as “Cafe MALIKA”, “Malika Prime Hotel”, “GOSTINISA MALIKA BUKHARA”, “Hotel Malika Bukhara”, “Malika Hotel Tashkent”, “Malika Hotel Khiva”, “Gostinitsa Malika Khayvak”, “Malika Classic Hotel”, and others exist. It is important to note that while these brand names may contain Uzbek words, their structure does not conform to Uzbek language norms; rather, foreign elements within the names have displaced Uzbek words in their composition. We do not endorse such naming practices.



Picture 1. Logo of the brand “Malika”

The linguistic characteristics of brand nominations are particularly evident, especially in hotel names. In Uzbek, hotel names fulfill the function of a national-cultural component as part of national brands. It is known that in Uzbekistan, the tourism market is dominated by hotels associated with various national cultural or historical names. Today, many hotels are offering their services to both domestic and foreign tourists. Among them, national hotel brands hold their place. For example, “NUR MEHMONXONA”, “GRAND Nur”, “USMON NUR TEKSTIL”, “TOSH NUR TEKSTIL”, “NUR-AZIZ VA AL-AZIZ”, “NUR HOTEL”, “Hostel Nur” etc. The word “Nur” in the explanatory dictionary is defined as a source of light derived from a source of light and is imagined in a radiant, shining form in a metaphorical sense [8: P.66.].



Picture 2. Logo of the brand “Nur”

Indeed, the term “nur” in Uzbek is closely associated with the meanings of radiance, light, and beauty. It’s often not attributed to mundane objects. Additionally, among Uzbek national brands, not only hotels but also restaurants and specialized clinics have been named using the term “Nur”. The meaning of the word “Nur” is well known in Islam, and its popularity has allowed it to be used in various national brand names. For example, in sectors such as restaurants, clinics, clothing lines, and traditional crafts: “Shifo NUR”, “Yangi Nur Afsonasi”, “Nur soʻzana”, “NUR Restoran”, “Nur kafe”, “Nur hayot cosmetics”, “Nur Restaurant”, “Nur choyxona”, “AN NUR restaurant”, “Bek-Nur restoran”, “Uchtepa Nur Tekstil”, “Nurhayot tekstil” etc. In Uzbek national brand names, many words that serve as prominent national components have been observed. For example, the word “Anor”. It’s known that “anor” has been a symbol of abundance and fertility among Turkic peoples since ancient times. In the explanatory dictionary of the Uzbek language, the word “anor” is defined as follows: “1. A subtropical plant belonging to the genus Anordoshlar, smaller in size, with a bush or shrub-like shape. 2. The ripe, juicy fruit of this plant with red or yellow skins” [8: P.87.].

Islamic patterns resembling a pomegranate are also present and widely used in embroidery, painting, and woodcarving. In Uzbek, the positive connotations of abundance and fertility associated with the pomegranate have led to the creation of various brands with the word “Anor” at their core, implying richness and abundance. Brands such as “ANOR”, “ART ANOR HOSTEL”, “ANOR” kafesi, “Anor Atelier”, “Supermarket Anor”, “Anorbank”, “ANOR MEBEL”, “Art Anor”, “Anor” and so on, have been identified. It is possible to observe the pomegranate motif being used as a brand logo even today:



Picture 3. Logos of the brands “Anor”

Of course, associating such images and symbols with the world of animals and plants also reflects the national landscape, and in this context, naming brands is no exception. Our research indicates that brand names are also influenced by phenomena such as images, myths, and symbols when derived from phytonyms. For example, national brand names created through the phytonyms “Rayhon” and “Anjir”:

On lexeme “Rayhon”: “Rayhon milliy taomlari (Tashkent)”, “Rayhon milliy taomlari (Fergana)”, “Rayhon milliy taomlari (Samarkand)”, “Kafe Rayhon”, “Rayhon tekstil”, “Xushboʻy rayhon savdo”, “Oʻzbekim Rayhoni Restoran” etc.

On lexeme “Anjir”: “Anjir Milliy taomlar (Tashkent)”, “Anjir”, “Anjir (restaurant)”, “Anjir kafe”, “Kafe “Anjir”, “Restoran Anjir”, “XK Anjir” etc.

“Rayhon” (basil) [pleasant-smelling plant species]:
1. bot. A fragrant annual plant belonging to the Labiatae family, grown for its abundant blue flowers. 2. Rayhon (woman's name) [10: P.345]. If “anjir” is meant: 1. A deciduous plant belonging to the mulberry family, with milky sap and lobed leaves. 2. The delicious fruit of this tree [11: P.85].
The word “rayhon” appears in two chapters of the Quran:

1. In Surah Ar-Rahman.
2. In Surah Al-Waqi'ah.

alohida e'tibor qaratmoqda. Bu esa bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida aksiologik ong borasida ilmiy izlanishlarning jadallik bilan olib borilishini talab etmoqda. Shu o'rinda savol tug'iladi: Aksiologiya nima va uning mazmuni, mohiyati qanday ma'noni anglatadi? Haqiqatdan ham bunday savol tug'ilishi tabiiydir. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib aksiologiya tushunchasiga va bu borada olib borilgan tadqiqot ishlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Aksiologiya falsafaning mustaqil sohalaridan biri bo'lib, ushbu tushuncha adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Aksiologiya yunoncha so'z bo'lib, "axio - qadriyat, logos – ta'limot", so'z, ya'ni qadriyatlar haqidagi ta'limot ma'nosini bildiradi [5, 18-b.].

Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli boigan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonida baholanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim.

Mazkur ta'rifdan ko'rinib turganidek, qadriyatlar, birinchidan, voqelikda mavjud bo'lgan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalarini ifodalaydi; ikkinchidan, ularni qadriyat turkumiga kiritish va kiritmaslik kishilarning ehtiyojlari, manfaatlarini, maqsadlarini, orzu-umidlari bilan belgilanadi; uchinchidan, tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalarning qadriyat turkumiga kiritilishining asosiy sababi - kishilar ularni qadrlaydilar, avaylab-asraydilar, chunki bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushlarini boyitadi [4, 211-b.].

Qadriyat borasida so'z yuritilganda avvalo milliy qadriyatlarimizga to'xtalmaslikning iloji yo'q. Milliy qadriyatlarimizda urf-odat, an'ana, oila va qarindoshlik munosabatlari, milliy odob-axloq, kattalarni hurmat qilish, o'zaro yordamlashish, kelajak avlod haqida g'amxo'rlik qilish milliy xususiyatimizda asosiy qoida bo'lib shakllangan. Darhaqiqat, qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy, axloqiy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Insonlar uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, sog'lik, tinchlik, erkinlik, yaxshilik, adolat, haqiqat, ma'rifat, ijtimoiy tenglik, go'zallik, moddiy boylik, ma'naviy boylik, an'ana, urf-odat va boshqalar

qadriyat hisoblanadi. Ijtimoiy fanlarning qaysi sohasida qadriyatlarga doir tadqiqot olib borilgan bo'lsa, ushbu tushunchaga shu jihatdan ta'rif berishga intilishgan.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki o'quvchi yoshlarda aksiologik ongni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu boradagi ishlar bugun yoki yaqin o'tmishda dolzarb bo'lib qolmagan. Ushbu muammo yuzasidan tarixga nazar soladigan bo'lsak uning ildizi uzoq o'tmishda ham muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rishimiz mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayonida shaxs ongini shakllantirish va qadriyatli dunyoqarashni barqaror rivojlantirishning nazariy-tarixiy asoslari eng qadimgi yozma manbaa "Avesto" hamda Sharq mutafakkirlari Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi ma'rifatparvar olimlarimizning asarlarida ham bayon etilgan.

"Avesto" da yer, olov, suv va havo muqaddas sanalib uni ifloslantirish qattiq gunoh ekanligi ta'kidlanadi. Umuman olganda ushbu to'rt unsur nihoyatda qadrlangan va bularni yoshlar ongiga ham singdirib borganlar. Shuningdek "Avesto" da qiz bolalar tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlanadi: "O'g'il bolalarga nisbatan qiz bolalar ilmu donish o'rganishga jiddiyoq kirishsinlar. Chunki ular o'zlari tug'ilgan xonadonda ota ro'zg'orini tartibga solib, uyga ziynat berib yursalar, jufti haloli uyiga borgach, kelajak nasl, ya'ni farzandlari tarbiyasi, ta'limi bilan mashg'ul bolmoqlari lozim bo'ladi". Bu fikrlardan shuni anglash mumkinmi "Avesto" da ilmiy qadriyat

ham alohida ahamiyat kasb etgan [2, 499-b.].

Yuqorida keltirilgan dalillar shundan dalolat beradiki “Avesto” da yoshlarni aqlan yetuk bo‘lishiga, hikmat o‘rganishiga, ma’naviy sof bo‘lishiga, yaxshilik qilish, qalbida ezgulik xislatlarini barq urushi, axloqiy, aqliy, jismoniy, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, vatanparvarlik, rostgo‘ylik, saxiylik kabi fazilatlarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratgan. Bundan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, qadimgi davrda ham, hozirgi kunnda ham, har bir xalq bola tarbiyalashda qadriyatli yondashuv sifatida yondoshgan.

Islom dinining muqaddas kitobi “Quron” va undan keyin turuvchi Hadis axloqiy manbaa hisoblanib, unda butun borliq va insoniyat haqidagi qadriyatni ko‘ramiz. Shuni ham ta’kidlash joizki, “Quron” va Hadislardagi manbalarning barchasi qadriyatdir.

Xususan “Quroni Karim”da inson eng oliy qadriyat ekanligi aytiladi. “Quroni Karim”ning Isro surasi 70-oyatida “Batahqiq, Biz bani Odamni azizu mukarram qilib qo‘ydik va ularni quruqligu dengizda (ulov-la) ko‘tardik hamda ularni pok narsalar ila rizqlantirdik va uni o‘zimiz yaratgan ko‘p narsalardan mutlaqo afzal qilib qo‘ydik” [7, 441-b.]. Ushbu oyatdan ma’lum bo‘ladiki avvalo insonning o‘zi eng oliy qadriyatdir.

Aksiologik ongni shakllantirish borasida so‘z yuritilganda milliy tariximiz va dunyo sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan Imom Ismoil al Buxoriy, Muhammad Iso at Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher

Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlarning ta’limiy-tarbiyaviy qarashlari orqali yoshlarda aksiologik ongni shakllantirishda keng foydalanish mumkin.

Shu o‘rinda Abu Nasr Forobiyning ma’naviy merosida keltirilgan 12 ta xislat va fazilatini sanab o‘tish mumkin. Unda mutafakkir tamonidan yoshlar tarbiyasida “sog‘lomlik, farosatlilik, kuchli xotira, zukkolik, notiqlik, ma’rifatga intilish, nafsni jilovlash, haqiqatni sevish, oriyatlilik, mol-dunyo ketidan quvmaslik, adolatparvarlik, qat’iyatlilik va jasurlik”ni mujassam

qilish va ularda ushbu xususiyatni qadriyatga aylantirilishi zarurligini ta’kidlagan. Forobiy ta’kidlagan bu fazilatlar bugungi kunda yoshlar tarbiyasida aksiologik jihatdan keng tushunchalarni qamrab oladi [1, 128-b.].

Mahmudxo‘ja Behbudiyning fikricha, Vatanni butunlay yo‘q bo‘lish xavfidan saqlab qolish, avvalo avlodlarni erk va ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma’rifat va taraqqiyotga milliy qadriyatlarni tiklash orqaligina erishish mumkin. U shunday yozadi: “Madomiki, bizlar tarbiyasiz bolalarimizni o‘qitmaymiz, yomon xodisalar va badbaxliklar oramizda doimo xukmron bo‘lsa kerak. Bu ishlarni yo‘q bo‘lmog‘iga o‘qimoq va o‘qitmoqdan boshqa iloj yo‘qdir”. Shuningdek “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir. Zamona ilm fanidan bebahra millat, boshqa millatlarga paymol bo‘lur” deydi [3, 280-b.]. Bu fikrlar esa ta’limiy qadriyatlarga nechog‘lik ahamiyat qaratish lozimligini anglatadi.

Qadriyatlar har bir xalq uchun muhim ahamiyat kasb etib, yoshlarda aksiologik ongni shakllantirish muhim hisoblanadi. Bu borada aksiologik ongni shakllantirishda, O‘zbekiston va xorijlik olimlar tomonidan olib borilgan qadriyatli yondashuvlar borasidagi tadqiqot ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Qadriyatlarni nazariy jihatdan o‘rganar ekanmiz qadriyat tushunchasi falsafa, sotsiologiya hamda psixologik-pedagogik adabiyotlarda o‘ziga xos jihatdan izohlanishini tushunib yetdik.

Xulosa. Yuqorida keltirib o'tilgan misol va tadqiqotchi-olimlarning ilmiy izlanishlari ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarda qadriyatli munosabatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, aksiologik ongni shakllantirish va uni rivojlantirish har qanday davrda dolzarb masala bo'lib kelgan va u uzoq yillardan buyon tadqiq qilib kelinmoqda. Bu esa uning har qaysi davrda muhim ahamiyat kasb etganligidan guvoh beradi. Ayniqsa bu masala, hozirgi globallashuv jarayonida yoshlar ongiga salbiy ta'sir etuvchi omillarning ko'payib borayotganligi uning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Chunki, yoshlarda aksiologik ong masalasi ularda voqeyilikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini tushunish, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat, millatlararo tinchlik-totuvlik, bag'rikenglik, diniy erkinlik va boshqa qadriyatli tushunchalarni singdiradi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya o'quvchi yoshlarda aksiologik ongni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu esa o'sib kelayotgan yosh avlodni har tamonlama kamol topishida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Nasr Farobiy. "Fozil odamlar shahri". – Toshkent.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 222 b.
2. A.Jo'rayev (A.Mahkam tarjimai). "Avesto: tarixiy-abadiy yodgorlik". Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi

NMIU, 2015. – 732 b.

3. Atayeva N.S, Rasulova F, Salayeva M, Hasanov S. "Umumiy pedagogika" O'quv qo'llanma. I-kitob. Tshkent.: "Fan va texnologiya", 2012. – 352 b.

4. J.Tulenov, G.Tulenova, K.Tulenova. "Qadriyatlar falsafasi" To'ldirilgan ikkinchi nashr. -Toshkent.: "Fan va texnologiya", 2016. – 287 b.

5. B.Xodjayev "Pedagogik aksiologiya". O'quv qo'llanma. -Toshkent.: "Fan va texnologiya", 2011. - 165 b.

6. Xolov O.Ch. "Xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda aksiologik ongni shakllantirish" mavzusida pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Termiz. 2022. – 174 b.

7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Tafsiri hilol" Ikkinchi nashr , 3-juz. – Toshkent.: "Sharq" nashriyoti, 2009. – 640 b.



ELEKTRON TA'LIM TIZIMINI TATBIQ ETISH ORQALI INTEGRATIV YONDASHUVNI AMALGA OSHIRISH IMKONİYATLARI

Annotatsiya. O'quvchi fanlararo masalalarni yechish jarayonida fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish orqali jamiyatda ro'y beradigan ko'p yangi bilimlar mazmunini tushunib yetadi, masala shartida berilgan yangi holatlar bilan tanishadi, zarur bo'lgan masalani yechishda turli fanlarga oid qonun va nazariyalarni qo'llash orqali yangi usullarni o'zi uchun kashf qiladi. Fanlararo bog'lanishlar asosida ma'lum tipdagi masalalarni yechish usuli va uni bir necha marta takrorlash orqali o'quvchida ko'nikma va malakalar shakllanishi bilan bir qatorda fanlararo bilimlari oshib boradi. Shu bilan birga bilimlarni mustahkamlashni bugungi globallashuv va raqamlashtirish davrida elektron ta'lim asosida amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tayanch so'zlar. Elektron darslik, ko'nikma, malakalar, fanlararo, elektron, dastur, masala, tizim, ta'lim.

ВОЗМОЖНОСТИ РЕАЛИЗАЦИИ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА ПОСРЕДСТВОМ ВНЕДРЕНИЯ СИСТЕМЫ ЭЛЕКТРОННОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. Осуществляя междисциплинарные связи в процессе решения междисциплинарных задач, читатель постигает содержание многих новых знаний, происходящих в обществе, знакомится с новыми обстоятельствами, приведенными в условиях задачи, открывает для себя новые способы решения необходимой

задачи, применяя законы и теории, относящиеся к различным дисциплинам. Метод решения задач определенного типа на основе междисциплинарных связей и многократного его повторения повышает междисциплинарные знания учащегося, а также приобретает навыки и умения. В то же время в сегодняшнюю эпоху глобализации и цифровизации становится все более важным осуществлять консолидацию знаний на основе электронного обучения.

Ключевые слова: электронный учебник, умения, навыки, междисциплинарный, электронный, программа, выпуск, система, образование.

THE POSSIBILITIES OF IMPLEMENTING AN INTEGRATIVE APPROACH THROUGH THE INTRODUCTION OF AN E-LEARNING SYSTEM

Abstract. By making interdisciplinary connections in the process of solving interdisciplinary tasks, the reader comprehends the content of many new knowledge occurring in society, gets acquainted with new circumstances given in the conditions of the task, discovers new ways to solve the necessary task, applying laws and theories related to various disciplines. The method of solving problems of a certain type based on interdisciplinary

connections and its repeated repetition increases the interdisciplinary knowledge of the student, as well as acquires skills and abilities. At the same time, in today's era of globalization and digitalization, it is becoming increasingly important to consolidate knowledge through e-learning.

Keywords. Electronic textbook, skills, interdisciplinary, electronic, program, graduation, system, education.

Kirish. Umumta'lim fanlarini o'qitishda axborot-telekommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi ta'lim sohasida qollaniladigan tegishli dasturiy ta'minot va elektron resurslar mazmunini ishlab chiqish bilan bog'liq muammolar majmuasini keltirib chiqarmoqda. So'nggi bir necha yil davomida olib borilgan tadqiqotlar bunday o'quv vositalarini ishlab chiqish va qo'llash nazariyasi ta'limda integrativ yondashuvni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. [1]

Har xil turdagi bilimlar tizimlari ta'sirida shakllanadigan shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirishda integrativ yondashuvning o'рни masalasi katta qiziqish uyg'otadi. Integrativ yondashuv o'quvchilarning bilish faoliyatini umumiy ilmiy g'oyalar va metodlar asosida qurish imkonini beradi. Ular fan paydo bo'lishining umumiy tamoyillarini o'rganish va ochib berishning umumiy qobiliyatini shakllantiradi. O'qitish jarayonida integrativ yondashuvni amalga oshirish imkoniyatlarini o'rganish – ta'lim sifatiga ma'lum bir ta'sir qiladi. Bunga asosan, boshlang'ich jarayonda yangi ma'lumotlar bilan tanishish, ularni qabul qilish, natijada hodisalarni turli jihatdan o'rganish, masalaga qaysi tomondan yondashish mumkinligini payqash va tasavvur qilish aloqadorlikni rivojlantiradi [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Maktabda o'quv jarayonining ta'lim sifatini oshirishda samarali usullarni izlash o'qituvchilar, olimlar

va amaliyotchilarning e'tiborini fanlararo aloqalar muammosiga tobora ko'proq jalb qilmoqda. Mashhur olim-pedagoglardan I.D.Zverev, V.M.Korotov, M.N.Skatkin va boshqalarning tadqiqot ishlarida integrativ yondashuv ta'lim va tarbiya birligining sharti, ta'lim, fan tizimiga kompleks yondashish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ta'limda integrativ yondashuv muammosi M.I.Aliyev, A.R.Bektenyarova, G.Yu.Vishnevskaya, R.B.Lotshteyn, A.A.Xomich va boshqalarning tadqiqotlarida yoritilgan. Olimlarning tadqiqotlarida umumiy o'rta ta'lim va oliy maktabda

o'quv jarayonini takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirishda integrativ yondashuvning ahamiyati ko'rsatilgan.

Integrativ yondashuv muammosi uzoq o'tmishdayoq o'qituvchilarni qiziqtirgan. K.D.Ushinskiy va N.K.Krupskaya kabi mohir pedagoglar tabiatning yaxlit manzarasini "o'quvchida" aks ettirish, haqiqiy bilim tizimini yaratish va to'g'irlash uchun o'quv fanlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik haqida o'z fikrlarini bildirishgan. Ya.A.Komenskiy "O'zaro bog'liqlikda bo'lgan hamma narsa xuddi shunday bog'liklikda o'qitilish kerak, chunki bu narsa tizimli bilimlarni shakllantirishda juda muhimdir" deb ta'kidlagan, bu bilan Ya.A.Komenskiy maktab ta'limi – o'quvchilarning aqli, ahloqi, his tuyg'ulari va irodasini rivojlantiradigan, har tomonlama ta'lim berishi kerak degan fikrni olg'a surgan [4, 88b]. Yan Amos Komenskiy grammatika, falsafa va adabiyotni, XVII asrning mashhur pedagogi Jon Lokk esa tarix va geografiyani o'zaro bog'liq holda o'rganishni taklif qilgan.

I.G.Pestalossi atrofdagi voqelikni to'g'ri idrok etishga yordam beradigan bog'lanish to'g'risida "O'zaro bog'langan buyumlarni o'z

ongiga ularning tabiatdagi haqiqiy bog'lanishida qanday bo'lsa, shunday keltirgan" [5] deb yozgan, ya'ni yuqori sinflarda bir fanning boshqasidan ajralib qolish xavfi to'g'risida fikr yuritgan.

V.G.Belinskiy o'quv fanlari o'zaro bog'lanishda o'qitilishi g'oyasini ta'kidlasa, N.G.Chernishevskiy bir fandan o'zlashtirilgan bilimlar, boshqa fanlarni o'rganishda zarurligini yoqlab chiqqan.

V.N.Fedorova, N.I.Boldirev, N.K.Goncharov, T.A.Ilina hamda G.I.Shukina kabi tadqiqotchilar o'quv faoliyatida aloqadorlikni didaktik vazifa deb hisoblaydilar va fanlar orasidagi bog'liqlik bilim olishni, o'rganganlarni tushunishni va uzviylikni oshirishga xizmat qilib, qatnashuvchilar faolligini oshirib, bilim darajasini rivojlantiradi. Didaktikada integrativ yondashuvni sinflarga ajratishning ob'ektiv asosi hisoblangan o'quv fanlari tuzilmasining umumiyligidan hamda o'quv jarayoni tuzilmasidan kelib chiqib, ularning uchta asosiy, ya'ni mazmunli-axborot, operasion-faoliyatli va tashkiliy-metodik tiplarga ajratilishi aniqlangan. O'tkazilgan tajribalar natijasida V.N.Maksimova fanlararo aloqadorlikni uch turga bo'lib o'rganishni yoqladi: fan tushunchalari, bilimlar hosil qilish jarayoni, ta'limda qo'llaniladigan usullar va vositalar asosida.[3].

Elektron ta'lim metodikasi bo'yicha hozirgi kunda ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda, xususan Buus L., Georgsen M., Olitayo P., Sergeyev S.F., Nabi Y.A., Ibrayimov A.E. kabi olimlar bu sohada ko'plab izlanishlar qilishgan. S.F.Sergeyev o'z ishlarida

elektron ta'lim metodikasini ye-didaktika sifatida ko'radi. Uning nazarida, "samarali elektron ta'limni yaratish uchun texnologiya yordamida pedagogning ish sohasini, vazifalarini va maqsadini modellashtirish yetarli va bu texnika asrining yangi pedagogik voqelikdagi o'qitish metodikasi to'g'risida murakkab fan - elektron didaktikaning asosini tashkil etadi" deb hisoblaydi. Bundan esa elektron ta'limda faoliyat yurituvchi pedagog to'g'risida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi, "hozirgi paytda kompyuterlashtirilgan ta'limga o'tish axborot olamidagi ommaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. [7]

Rossiyalik tadqiqotchi L.V.Pivovarova ishlarida integrativ metodikaning ta'limga texnologik yondashuvlar tavsifi quyidagicha bayon qilingan: - "integrativ metodika" atamasini qo'llashdan asosiy maqsad ta'limga texnologik yondashuvning asosiy xususiyatlarini aniqlab, ulardan foydalanishda pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini uyg'unlashtirishni tatbiq qilish modellarini ishlalab chiqishdir; - ta'lim jarayonida integratsiyalashgan texnologiyalarning qo'llanishi bir qancha didaktik. metodik va kognitiv omillarga bog'liq. Ta'lim jarayoni, uning subyektlari va obyekt o'rtasidagi integrativ jarayonlarni taslikil qilishning o'zi o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyati natijasidagi kognitiv kategoriyalar asosidagi modellar mavjudligini taqozo qiladi [8]. Ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilish bo'yicha dastlabki tadqiqotlarni olib borgan xorijiy olimlardan biri Ye.I.Mashbits fikricha "Ta'limni kompyuterlashtirishni to'xtatib bo'lmaydi, ta'limda kompyuterni qo'llash bu orqaga qaytmaydigan jarayondir. Bu o'z-o'zidan amalga oshmaydi, uning faoliyati ta'lim tizimi bilan bog'liq bo'lgan olimlar, o'qituvchilar, zamonaviy hisoblash texnikasi va dasturiy ta'minotni yaratuvchi kishilarga bog'liqdir".

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda yurtimizda davr talablaridan kelib chiqib, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalari joriy etilmoqda. Xususan, hukumatimiz tashabbusi bilan Raqamli O'zbekiston - 2030 dasturini joriy etish maqsadida ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini axborotlashtirish va avtomatlashtirish vazifalarini bajarish yuzasidan qator ishlar amalga oshirilmoqda[9][10].

Zamonaviy axborot texnologiyalari o'quvchilarga axborotning noan'anaviy manbalariga kirib borishning cheksiz imkoniyatlarini ochib beradi, mustaqil ishlashning samaradorligini oshiradi, ijod qilish, yaratish va turli kasb malakalarini mustahkamlash uchun mutlaqo yangi imkoniyatlar beradi, voqealar hamda jarayonlarning konseptual va matematik modellarini tuzish vositalarini qo'llagan holda o'qitishning yangi shakllari va usullarini amalga oshirish imkonini beradi. O'qitishning axborot texnologiyalari o'qituvchiga o'quv ishlarining alohida turlari kabi ularning har qanday yig'indisini qo'llash, moslangan instrumental vositalar unga yangi bilimlar va texnologiyalar paydo bo'lishi bilan muvofiq ravishda o'quv, nazorat qiluvchi dasturlar mazmunini tezkorlik bilan yangilash imkonini beradi[11].

O'qitishning kompyuter texnologiyalari:


- ta'lim qatnashuvchilarining nazariy bilimlarini doimiy oshirib borish;
- o'qitishda turli metodlarni qo'llash;
- bilimlarni mustaqil egallash hamda mustahkamlash uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minotlar yaratish;
- o'qitilayotgan umumta'lim fanlarini integratsiyalash;
- yaratilgan dasturiy ta'minotlar mazmuni, shakli va metodlarini yangilab , borish, qo'shimchalar kiritib borish
- o'quvchilarning avtomatlashtirilgan test sinovidan o'tishlarini tashkil etish;
- o'quvchilarning jamoaviy o'rganish faoliyati sharoitlarida o'qitishni individuallashtirish kabi keng imkoniyatlarni beradi

Elektron o'quv qo'llanmalarni, hamda dasturiy ta'minotni muvafaqqiyatli tayyorlash muallifdan yetuk bilim, qobiliyat talab qiladi. Shunga qaramay, elektron o'quv qo'llanma tayyorlash

uchun o'quv qo'llanma asosini tashkil etuvchi elementlar mavjud. Ulardan biri bo'lgan masalalar to'plamiga to'xtaladigan bo'lsak - bu elektron o'quv qo'llanmaning muhim shakllaridan biri bo'lib, qo'llanmada masalalar to'plami o'qitish vazifasini hammadan ko'ra ko'proq amalga oshiradi. Elektron masalalar to'plamida yordam tizimi mukammal bo'lishi kerak. Foydalanuvchilar muayyan masalani yechish uchun kerakli o'quv -ta'limga oid malumot oladilar. Asosiy muammo butun nazariy ma'lumotlarni qamrab oluvchi masalani tanlashda bo'ladi[2].

Dars davomida dasturiy ta'minotdan foydalanish orqali maqsadga erishish osonlashadi. Bunda yaratilgan dasturiy ta'minot suratli matnga va

ma'lumotnomaga aylanib qolmasligi kerak. Dasturiy ta'minot eng muhim bo'lgan tushunchalarni, fikrlarni va keltirilgan misollarni tushunish va eslab qolishni maksimal osonlashtirishi, oddiy darslikka qaraganda, o'quv jarayoniga inson miyasining eshitish, ko'rish, emotsional xotira kabi barcha imkoniyatlaridan hamda kompyuterli tushuntirishlardan foydalangan holda kirib borishi kerak.



Elektron darslik (o'quv qo'llanma) oddiy qog'oz shaklidagi darslik singari muayyan o'quv fani dasturining barcha asosiy savollarini, mazmun va mohiyatini qamrab olishi kerak. Shuningdek aniq ilmiy mazmunda hamda egallangan bilimlar doirasi hisobga olinishi talab qilinadi. Oddiy darslik bilan qiyoslaganda, elektron darsliklarga qator qo'shimcha talablar qo'yiladi: matn varaqlarga bo'lingan bo'lishi, tugallangan mazmunli bo'lakni qamrab olgan, istalgan varaqni xohlagan tartibda ekranga chiqarib beirilishi ta'minlangan, matn bezakli tasvirlangan, asosiy qonunlar, formulalar, grafiklar, tasvirlar va boshqalar bo'lishi kerak. O'z-o'zini nazorat qilish maqsadida, bilim oluvchining xohishiga ko'ra, qo'yilgan savol masalalarining javoblari, grafiklari, diagrammalarini kompyuter ekraniga chiqarish mumkin. Darslik tarkibi bir qancha nazariyalar blokini, o'z-o'zini tekshirish uchun savollar va ularning javoblarini, test savollari va hisoblash uchun masalalarni o'z ichiga oladi.

Elektron o'quv qo'llanmaning muhim shakllaridan biri bo'lgan masalalar to'plamini fanlararo masalalar ya'ni bir nechta fanni aloqadorlikda o'rganishni ta'minlaydigan masalalarni va ularning nazariy qismidagi bog'lanishlarni ko'rsatish

orqali shakllantirish mumkin. Masalan kimyo fanidagi quyidagi mavzular yuzasidan yechiladigan masalalarni boshqa fanlar bilan bog'lovchi bir nechta holatlarni ko'rib chiqaylik.

1-masala. 80 g karbonat angidrid nechta molekuladan iborat?

Masalani yechish proporsiya tuzish va no'malum hadni topishni talab qiladi, demak proporsiya va uning xossalari mavzusini mustahkamlashda foydalanilsa bo'ladi. Bu masalani proporsiya va foizga oid masalalar turiga kiritib nazariy ma'lumotlarni mustahkamlash maqsadida foydalanish mumkin.

Yechish: $\text{CO}_2=12+2 \cdot 16=12+32=44 \text{ g}$

44 g ----- $6,02 \cdot 10^{23}$

80 g ----- x

$x=80 \cdot 6,02 \cdot 10^{23} : 44=11 \text{ g}$

Masalani yechish natijasida o'quvchida karbonat angidrid gazining xususiyatlari, kimyoviy formulasi, molyar massasi kabi tushunchalar ham shakllantiriladi.


2-masala. Og'irligi 4,5 g bo'lgan tarkibidagi vodorodning massasini toping.

$\text{H}_2\text{O}=1 \cdot 2+16=18 \text{ g}$ $\text{H}_2=1 \cdot 2=2 \text{ g}$

18 g ----- 2 g

4,5 g ----- x

$x=4,5 \cdot 2 : 18 = 0,5 \text{ g}$



Masalani yechish natijasida o'quvchida suvning xususiyatlari, kimyoviy formulasi, molyar massasi kabi tushunchalar shakllantiriladi

Xulosa. Hozirgi axborot olamida o'qishda, kundalik faoliyatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun zaruriy ma'lumotga ega bo'lish, ularni izlab topish, undan keraklisini ajratib olish va foydalanishni o'rganish zarur, bunda axborot-telekommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi ta'lim sohasida qollanilinishi o'quvchilarning axborot bilan ishlash mahoratini oshirishga, ularning kreativ va produktiv fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi, o'rgangan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda duch keladigan turli xil vaziyatlarda qo'llay olish layoqatini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1.Sh.A.Abdurahmanova. "Elektron ta'lim resurslarini yaratish texnologiyalari" fani bo'yicha darslik.Toshkent, Ni.jomiy nomidagi TDPU, 2022 y

2.Электронны учебники: рекомендации по разработке, внедрению и использованию интерактивных мультимедийных электронных учебников нового поколения для общего образования на базе современных мобильных электронных устройств. - М.: Федеральный институт развития образования 2012. - 84 с.

3.Xasanov A.A. O'qitish jarayonida fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishning psixologik-pedagogik asoslari // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2017. - № 10. – B. 9.

4.Коменский Я.А. Учитель учителей . - М.:Карапуз, 2009. – 288 с.

5.Песталоцци И.Г. Избранные педагогические произведения. – М.: Просвещение, 1965. – 175 с.

6.Современное образование как открытая система: Коллективная монография / под ред. Н.Г.Ничкало, Г.Н.Филонова, О.В.Суходольской-Кулешовой. – М.: Институт научной и педагогической информации РАО, 2012. – 576 с

7.F. U. Anarbayeva. Elektron ta'lim metodikasining ahamiyati, Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 4 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423

8.Sh. Abdufatayev. Integrativ yondashuv asosida oquvchilardatayanchva fangaoid kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasi. ISSN 2181-8274 4-son, 2023-yil. Ta'lim, fan va innovatsiya. 227-bet

9.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrdagi "Raqqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023. – 49 b.

10.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. 2020-yil 23- sentabr. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 637-son.

11.A. A. Nurmatova. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni masofali o'qitish uchun elektron ta'lim resurslarini yaratishning nazariy asoslari Международный научный журнал №10(100), часть2 «Научный импульс» Мая, 2023



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Xaitov Abdukosim Abdulakim o'g'li
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
“Ijtimoiy gumanitar fanlar” kafedrası o'qituvchisi
E-mail: abduqosimxaitov@gmail.com

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA AKMEOLOGIK POZITSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani rivojlantirishning pedagogik shartlari, pedagogika oliygohlaridagi mutaxassislar tayyorlash jarayonidagi imkoniyatlari va mavjud holatlaridan kelib chiqib, mazkur ta'lim muassasalarida o'qitish tizimiga innovatsion texnologiyalarining joriy etilishi jarayonlari mavzuning muammosi sifatida ochib berishga harakat qilingan.

Tayanch so'zlar: Akmeologiya, pozitsiya, pedagogik shartlar, talabalar, innovatsion metodlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, bo'lajak o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishi.

СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ФОРМИРОВАНИЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЗИЦИИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация: В данной статье сделана попытка раскрыть в качестве проблемы темы педагогические условия развития акмеологической позиции у будущих педагогов, процессы внедрения инновационных технологий в систему обучения в педагогических вузах, исходя из их возможностей и существующих обстоятельств в процессе подготовки специалистов в педагогических вузах.

Ключевые слова: Акмеология, позиция, педагогические условия, учащиеся, инновационные методы, современные информационные технологии, усвоение знаний, умений и навыков будущих педагогов.

THE CONTENT AND ESSENCE OF THE FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF AN ACMEOLOGICAL POSITION IN FUTURE TEACHERS

Abstract: This article attempts to reveal the pedagogical conditions for the development of an acmeological position in future teachers, the possibilities in the process of training specialists in pedagogical universities and the processes of introduction of innovative technologies into the teaching system in these educational institutions as a problem of the subject.

Key words: Acmeology, position, pedagogical conditions, students, innovative methods, modern information technology, assimilation of knowledge, skills and qualifications of future teachers.

Kirish. Barchamizga ma'lumki O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son qonuni qabul qilingandan keyin mamlakatimiz ta'lim tizimida keng qamrovli o'zgarishlar amalga oshirildi. O'qituvchilik kasbi yosh avlodni chinakkam vatanparvar bo'lib voyaga yetishishida, bundan tashqari yurt kelajagini barpo etishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogikaning rivojlanishi insonning ichki salohiyatiga e'tiborni kuchaytirish, shaxsning

ijodiy o'z-o'zini rivojlantirishiga yordam beradigan ta'lim muhitini yaratish bilan tavsiflanadi. Oliy ta'lim tizimida ijodiy tafakkuri rivojlangan aqlli, tashabbuskor mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj, har qachongidanda dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Shu bilan birga, talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyatining samaradorligi nafaqat universitetda olingan kasbiy bilim va ko'nikmalarga, balki o'z-o'zini yanada professional va ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish darajasiga ham bog'liq hisoblanadi. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarning akme nuqtasi pedagogik kompetentligi va pedagogik ko'nikmalari orqali namoyon bo'lishi mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani rivojlantirish muammosini tadqiq etar ekanmiz, avvalo akmeologiya, akmeologik pozitsiya tushunchalari haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishimiz lozimdir.

Akmeologiya- (grekcha akme - cho'qqi, takomil, nimaningdir yuqori bosqichi, gullagan davr yetuklik davr ma'nolarini anglatadi) [2, c.220].

Shu bilan birga, «akme»da insonning faoliyati bilan bog'liq holatlar ham nazarda tutiladi. Jumladan, shaxsning «yulduzli» onlari yoki shunga yaqin jarayonlar, ya'ni biror-bir sohada erishgan oliy yutuqlari (N. V. Kuzmina).

G'arb tarixiy tafakkurida akmeologik nazariyalar N.A.Ribnikov tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lsa-da, V.G.Ananyev tomonidan shakllantirilgan va A.A.Bodalyov tomonidan rivojlantirilgan.

Zamonaviy akmeologiyaning vakili rossiyalik psixolog, akademik A.A.Derkachning ilmiy izlanishlari bu fanni institusional bosqichga ko'tardi [7, b.46].

Pozitsiya- (lotincha positio holat, vaziyat) - biror bir masala yuzasidan bildirilgan fikr, nuqtai nazar; dalil, voqea, hodisaning muayyan bahosi; shu bahoga muvofiq amalga oshirilgan xatti-harakat [8, b.201].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Akmeologiya tushunchasini ilk bor fanga rus olimi N.A.Ribnikov tomonidan 1928 yilda kiritilgan bo'lib, uning o'zi bu fan predmetini yetuk insonlarning shakllanish jarayonidir, deb ta'riflagan edi.

Ayrim manbalarda akmeologiya B.G.Ananyev, V.M.Bexterev, V.N.Myasishev, E.S. Kuzmin, N.V. Kuzmina, N.A. Ribnikov va boshqalar tomonidan yaratilgan yangi fan, degan qaydga nazarimiz tushadi [7, b.41].

Pedagogik olim V.A. Slstenin bo'lajak o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligini shakllantirish masalalarini tadqiq etar ekan, yuksak professionalizm, ya'ni kasbiy yetuklikka erishishning obyektiv omillariga olingan ta'limning sifatini, subyektiv omillariga esa shaxsning qobiliyati, kasbiy yo'nalganligi, pedagogik vazifalarni samarali hal qila olishdagi mas'uliyati va mutaxassislikka yondashuvini kiritadi [2, c. 55-63].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umum qabul qilingan metodlar - tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, holislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, talabalarda akmeologik pozitsiyani rivojlantirishning pedagogik shartlari tadqiq etilgan.

Tahlil natijalar. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani rivojlantirish jarayoni albatta pedagogdan katta mahorat, qobiliyat va tajribani talab etadi. Oliy ta'lim muassasasida bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish jarayoni albatta zamonaviy o'qitish uslubi bilan bir qatorda ta'lim sohasiga texnologik yondashuv zaruratini ham talab etadi.

Oliy o'quv yurtining bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishning yana bir murakkablik tomoni shundaki, ular kasbiy faoliyatining quyidagi texnologik xarakterini egallashlari

lozim:

- talabalarni o'qitish mazmunining turli variantlarini ishlab chiqish;

- ta'limning samaradorligini oshirishda hozirgi zamon didaktikasidan foydalanish;

- yangi g'oyalar va texnologiyalarni amaliyotda qo'llash.

Shu sababli talaba o'quv jarayoni (o'quv fani) loyihasining muallifi ham bo'lishi kerakki, uning amaliyotda qo'llanilishi talabada akmeologik pozitsiyani shakllanishiga ham yordam bersin. Bu holda oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisining faoliyati keng ko'lamlil: avvalo, talaba uchun «ta'lim sohasini»ni ongli tanlashga sharoitlar yaratish, talabaning o'z oldiga qo'yadigan maqsadlarini aniqlashtirish; talabaga o'z faoliyatini loyihalashtirishda yordam berish; oliy ta'lim muassasasining bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishning aniq vositalarini, uslublarini, o'qitish metodlarini qo'llash bo'yicha maslahat berish. Shu holda bo'lajak mutaxassislarda akmeologik pozitsiyani rivojlantirish muvaffaqiyatliroq kechadi.

Afsuski, bugungi kunda oliy ta'lim muassasasi amaliyotida axborot yoki pedagogik texnologiyalar haqida yetarli tushunchaga ega bo'lmagan, yoki uning mavjudligi haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lmagan, ammo intuitsiya bo'yicha, ilgari ishlab chiqilgan o'qitishning an'anaviy modellari bo'yicha ishlaydigan ko'plab o'qituvchilarni uchratish mumkin.

Qayd qiluvchi eksperiment ma'lumotlarining ko'rsatishicha, oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilari, fanlar bloki bo'yicha tayyorlashni amalga oshirayotganlarida, o'quv fanining faqat

mazmuniy tomoniga e'tibor qaratib, ta'limdagi an'anaviy paradigмага amal qiladilar, ko'rsatilgan yo'nalish mutaxassisligining kasbiy tayyorligi yetarli darajada bo'lmasligi mumkin. Hozirgi bosqichda oliy ta'lim muassasasi faqat kasbiy vazifalarni hal qilishga tayyor va qodir bo'libgina qolmasdan, balki innovatsion jarayonlarni, keng ma'noda ijodiyot jarayonlarini amalga oshirishga tayyor va qodir bo'lgan mutaxassisni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Oliy ta'lim muassasasida o'qitish texnologiyalariga o'sib borayotgan qiziqishni quyidagi bir necha sabablar bilan tushuntirish mumkin:

- ta'lim muassasasi oldida turgan vazifalarning turli xilligi o'quv jarayonini faqat nazariy tadqiqot qilishni rivojlantirishni emas, balki uni texnologik ta'minlash masalalarini ishlab chiqishni ham nazarda tutadi.

Nazariy tadqiqotlarda qonunlarni ifodalash, nazariyalar va konsepsiyalarni yaratish sodir bo'ladi, shu bilan bir vaqtda amaliy tadqiqotlar pedagogik amaliyotning o'zini tahlil qiladi, ilmiy natijalarni jamlaydi;

- o'zining qaror topgan o'qitish qonuniyatlari, tamoyillari, metodlari bilan yangi g'oyalari, yondashuvlari, o'qitish metodikalarini ilmiy asoslashga har doim ham tezkor e'tibor beravermaydi;

- oliy ta'lim muassasasida pedagogikaga tizimli-faoliyatli yondashuvni joriy etish, o'qitish usullarini yanada takomillashtirish;

- ta'lim maqsadlarini qo'yishda, o'qitish natijalarini baholashda diagnostikaning (o'lchanuvchanlikning) o'sishi;

- o'qitishni ekstensiv tashkil etishdan intensiv tashkil etishga, ya'ni pedagogika, psixologiya, informatikaning eng yangi yutuqlaridan foydalanish va yuqori natijalarga erishish;

- o'quv faoliyatini modellashtirish, oliy ta'lim muassasasida ta'lim jarayonlarida kasbiy tajribani egallash va buning natijasi o'laroq talabaning yangicha pedagogik tafakkuri, faolligi va mustaqil faoliyatini tarbiyalash zarurligiga asoslangan loyihalar ilmiy

qo'llashning ortishi;

– o'qitayotganlar va o'qiydiganlarning o'zaro ishlash jarayonlari, metodlari va tashkiliy shakllari texnologik zanjirini, oliy ta'lim muassasasida kafolatlangan natijalarni ta'minlaydigan va malakasiz pedagog ishining salbiy oqibatlarini kamaytiradigan ekspert loyihalash imkoniyati.

Mohiyati bo'yicha o'qitish texnologiyasi kasbiy didaktik tayyorgarlik tizimida mustaqil bilimlar sohasiga ega, u o'qitish nazariyasi va amaliyoti bilan bog'langan. O'qitish texnologiyasining mohiyati, mavzusi, tuzilishi, konsepsiyalari, tasniflanishi, manbalari va rivojlanish yo'llari haqida ham chet el, ham vatanimiz matbuotida keyingi yillar davomida olib borilayotgan munozara mazkur muammoning nazariy va amaliy dolzarbligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, texnologik jarayon hozirgi zamon jamiyatida ta'lim jarayoni samaradorligining sifat jihatidan yangi bosqichga o'tilishini anglatadi.

Biroq mamlakatda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar har bir o'quv fanining mutaxassis kasbiy faoliyatiga ko'proq yo'nalganligini

talab qiladi. Mehnat bozorini shakllantirish bosqichida mutaxassislar kasbiy o'zgaruvchanligining ahamiyati ortib boradi. Shundan, ular faoliyatining yo'nalishini kengaytirish zarurati yuzaga keladi. Katta axborot hajmidan eng ahamiyatlisini tanlash muhim bo'lib, talabalar undan turli kasbiy vaziyatlarda samarali foydalana olishlari uchun ularning faoliyatlariga oid bilimlar va usullar tizimini shakllantirish lozim.

O'qituvchi shaxsga yo'naltirilgan yondashuv pozitsiyasidan turib faqat

ko'rgazmali-ilmiy bilimlarni o'tkazuvchi, axborot tashuvchi, me'yorlar va an'analarning uzatuvchisi bo'lib emas, balki talabada akmeologik pozitsiyani shakllanishida yordamchi bo'ladi.

Talabaning bilish faoliyatini boshqarish xarakteri va mavqei ham o'zgaradi, u o'zlashtirish natijasidan, baho olishdan o'qituvchi va kursdoshlari bilan faol o'zaro hamkorlikka o'tadi. Talabalarning o'qituvchilik kasbini faollik bilan egallashlari uchun sharoitlar yaratiladi.

Ikkinchi xarakterli jihati – oliy ta'lim muassasasida o'zlashtiriladigan bilimlarning vazifalari ularning egallanishini tashkil etish usullarining o'zgarishidan iborat. O'zlashtirish jarayoni endi mashaqqatli yod olish, reproduksiyalash bo'lmasdan, balki talabaning izlanishi unumli ijodiy jarayon kabi tashkil etiladi.

Uchinchi muhim jihat – har qanday o'qitish, talaba shaxsini rivojlan-tirish va bo'lajak mutaxassisni tarbiyalash ijtimoiy tabiatining birinchi o'ringa chiqishidir. Bu bilan faqat yakka tartibdagi emas, balki guruhli o'qitish shakllari, birgalikdagi faoliyat, o'zaro ta'sir shakllarining ko'p xilligi, shaxslararo munosabatlar va muloqot, kundalik hamkorlik va birgalikdagi ijod bilan boyitiladigan yo'nalish hosil qilinadi.

Oliy ta'limning yuqorida aytilgan va o'qitish jarayonini oliy o'quv yurti o'qituvchisi kasbiga yo'naltirish bilan bog'liq bosh vazifasidan yosh kadrlarning kasbiy faoliyatiga tez kirishib ketishlarini ta'min etadigan va bo'lajak mutaxassislarda akmeologik pozitsiyani shakllanishiga, o'ziga xos "o'quv jarayoni texnologiyalari"ni rivojlantirishga olib keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani rivojlantirishning pedagogik shartlari ularning shaxsiy yo'nalganligi va kasbiy motivatsiyasi yetakchi ijtimoiy-psixologik omillardan biri bo'lib, mazkur jihatlar ta'lim oluvchilarning tanlangan faoliyat sohasiga bo'lgan qiziqishini yanada jadallashtiradi.

Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani rivojlantirish o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda yuqori darajada qo'llay olishida namayon bo'ladi. Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimini

rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri – bu insonning turli sohalarda maqsadli va mustaqil faoliyatini tashkil etishidir. Shunday ekan bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani rivojlantirishning pedagogik shartlariga alohida e'tibor qaratish maqsadga molikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M O'zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor vazifalari "Harakatlar strategiyasi" –T O'zbekiston 2017.
2. Mirziyoyev Sh. M "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" –T O'zbekiston-2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag'shlangan tantanali marosimda so'zlangan ma'ruzadan 2018-yil. 10-dekabr.
4. Karimov I. A Barkamol avlod – O'zbekiston kelajagining poydevori –T O'zbekiston 1997 y
5. Mardonov Q. SH Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik pozitsiyasini shakllantirish texnologiyasi –T Fan 2019-y
6. Nishonova. Z O'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish –T TDPU 2015-y
7. Tillayeva G. H Akmeologiya asoslari –Toshkent 2014-y
8. Деркач А.А., Кузьмина Н.В. Акмеология: пути достижения вершин профессионализма. М.,1993. – с.220
9. Акмеология. Хрестоматик лугат. Ильин В.В., Пожарский С.Д. 2004. - 201 b.
10. Маркова А.К. Психологические критерии и профессионализма учителя // Педагогика. 1995, № 6. С. 55–63.
11. Komilov. N O'qituvchilarning akmeologik pozitsiyasini shakllantirish –T Cho'lpon 2016-y.
12. Xudoyqulov X. J. Tarbiyaviy ishlar metodikasi –T Innovatsiya –ziyo 2020.



“TISU ilmiy
tadqiqotlari
xabarnomasi”
ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Djumayeva Dildora Isroilovna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
“Pedagogika” kafedrası o‘qituvchisi, Termiz (O‘zbekiston)
E-mail: dzumaevad7@gmail.com

BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISHDA XALQ OG‘ZAKI IJODI HAMDA AJDODLAR MEROSINI TABIIY FANLAR DARSILIGI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada ekologiya, ekologik madaniyat, ekologik tarbiya va insonparvarlik tuyg‘ularini, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida xalq og‘zaki ijodidan hamda ajdodlar merosidan foydalangan holda tabiiy fan darsliklari asosida shakllantirishga, ularni o‘quvchilar ongiga singdirishga e‘tibor qaratilgan va keltirib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar: ekologiya, tabiiy fan, ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, insonparvarlik.

ФОРМИРОВАНИЕ ФОЛЬКЛОРА И НАСЛЕДИЯ ПРЕДКОВ В РАЗВИТИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ УЧЕБНИКОВ ЕСТЕСТВОЗНАНИЯ

Аннотация: в данной статье основное внимание уделяется формированию экологии, экологической культуры, экологического воспитания и гуманитарного чувства у учащихся младших классов на основе учебников естествознания с использованием фольклора и наследия предков и привитию их в сознании учащихся.

Ключевые слова: экология, естествознание, экологическая культура, экологическое образование, гуманизм.

FORMATION OF FOLKLORE AND THE HERITAGE OF ANCESTORS IN THE DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL EDUCATION AMONG PRIMARY SCHOOL PUPILS ON THE BASIS OF NATURAL SCIENCE TEXTBOOKS

Abstract: this article focuses on the formation of

ecology, ecological culture, ecological education and humanitarian feelings in elementary school students based on natural science textbooks using folklore and the heritage of ancestors, and instilling them into the minds of students. and cited.

Key words: ecology, natural science, ecological culture, ecological education, humanitarianism.

Kirish: Ekologiya xavfsizlik muammosi nafaqat milliy va mintaqaviy, balki butun insoniyatining umumbashariy muammosidir. Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosidagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo‘lib, rivojlanishning hozirgi kuni va kelajagi ko‘p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog‘liqdir. Buyuk bobolaninimiz Abu Rayhon Beruniy “Inson yer yuzini obod etish va uni boshqarib turish uchun unga aql-zakovat ato etilgan, shuning uchun har bir inson yuksak axloqli bo‘lishi lozim” [1] – deb aytgan edilar. Hozirgi vaqtga “ekologiya” so‘zi ko‘pincha tabiat va atrof-muhit so‘zlari bilan birlashtirildi [2]. Ammo hayot amaliyotining o‘zi shuni ko‘rsatadiki tabiat ekologiyasini ruh ekologiyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ekologik madaniyatni o‘quvchilar ongiga shu orqali tushuntirish zarurdir. Bu madaniyatni o‘quvchilarda shakllantirish orqali kelajagimizga poydevor qo‘ygan bo‘lamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Rivojlangan xorijiy davlatlarda tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik muammolar, ekologik tafakkur va ekologik madaniyatni shakllantirishga oid samarali tadqiqotlar D.Coste, B.North va J.Trim, U.A.Solomon, R.Harding, C.S.Haugen, Yun.Hsing, T.M.Amabile, R.A.Beghetto, D.Fisher, J.P.Guilford, R.Sternberg, E.P.Torrance tomonidan amalga oshirilgan.

O'zbekistonda ekologik yo'nalishdagi ishlarning asoschilari D.N.Kashkarov va E.P.Korovinlar hisoblansalar, I.I.Granitov, V.A.Burigin, O.X.Xasanov kabi olimlar esa O'zbekiston tabiatini o'rgandilar va ekologiya fanini rivojlantirdi.

Tadqiqot metodologiyasi: Maqola ekologik muammoga oid bo'lib pedagogik tahlil qilish va ketma-ketlik xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida ekologik ta'limni rivojlantirishda zamonaviy usullardan foydalanish yo'llari tadqiq etilgan

Tahlil, natijalar va mulohaza: Ekologiya ta'lim-tarbiya deganda o'quvchilarga muayyan maqsadda pedagogik ta'sir ko'rsatish tushuniladi [3]. Olamdagi narsalarning hammasi butun borliq mavjudod, tevarak-atrof, dala-tog' hamma-hammasini muhofaza etish ekologik ta'lim mazmunini tashkil etadi.

Ekologik tarbiya vazifalariga jonli va jonsiz tabiatni asrash, so'lim maskanlarni, maydonlarning tozaligi uchun kurash kabilar kiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bu madaniyatni tozaligini xalq tajribasidan kelib chiqqan holda o'rgatish zarurdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik madaniyatni shakllantirish ishlarni avvalo ota-ona hamkorligida olib borilishi lozim [4]. Ya'ni ota-ona bu tarbiyani berib bormasa maktabda berilgan 5-6 soatgina dars bunday tarbiya yetarli emas. Ba'zi ota-onalar farzandlariga qo'lidan kelganча uyni ozoda tutish, o'simliklarni behuda yulmaslik kabi nasihatlarini beradilar. Shuning o'zi ekologik tarbiyaning boshlang'ich kurtaklaridir. Ayrim ota-onalar bu masalaga e'tiborsizlik bilan qaraydilar. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ekologik madaniyat haqidagi tushunchani uning ruhiyatiga singdirish orqali tabiatga bo'lgan muhabbat, uning go'zalliklaridan zavq olish hissini ham shakllantirish mumkin [5]. O'quvchilarda ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun muntazam

ta'sir zarur, ammo hamma darsda bu narsani tushuntirish o'rinni bo'lmaydi. O'quvchilarga bu tarbiyani turli xalq og'zaki ijodi namunalaridan misollar keltirib, turmushga, hayotga bog'lagan holda tushuntirilsa ularning ongiga yaxshiroq yetib boradi.

Tarbiyada xalqning milliy va ma'naviy qadriyatlariga suyanish, ular orqali 1-4-sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirish o'ta dolzarb masalalardan biridir. Chunki, bugungi kunda mafkuraviy poligonlarda yoshlar ongi va qalbi uchun kurash keskinlashgan bir payt o'quvchilarni iloji boricha, maktab yoshidanoq tabiatni sevishtga, unga to'g'ri munosabat bildirishga, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga o'rgatish bugungi kunning dolzarb masalasidir [6].

Mustaqillik, umuman, xalq qadriyatlarga, xususan, xalq og'zaki ijodiga bo'lgan munosabatda keskin ijobiy o'zgarish yasadi. Respublikamizning birinchi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston buyuk kelajak sari" asarining "Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning yo'li to'rtta asosiy negiziga asoslanadi, - deyilgan. Bu negizlar:

- Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- Xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- Vatanparvarlik" [7], - deb belgilab qo'yilgan.

Qayd etilgan to'rt negizning har bittasi yo bevosita, yoinki bilvosita xalq og'zaki

ijodi, ajdodlarimizning bizga qoldirilgan ma'naviy boyligi – pand, o'g'itlari, el-u yurt, xalq qadrini e'zozlash, milliy g'ururni himoya qilishdek oliy maqsad va g'oyalar bilan bog'lanadi [8].

Haqiqatdan ham, xalq maqollari yordamida o'quvchilarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash istiqloq talabidir. Buning uchun, avvalo, o'qituvchining o'zi ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Bu uning zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklaydi [9]. Demak, bugungi o'qituvchi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilishi, o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlaridan to'la xalos etishi, ta'lim-tarbiya jarayonini jahonning rivojlangan ta'lim darajasiga ko'tarishda faol ishtirok etishi bilan birga o'quvchilar qalbi va ongida tabiatga va atrof-muhitga to'g'ri munosabatni shakllantirishi muhim ahamiyatga ega. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ekologik tarbiya dastlab oilada, bog'chada keyinchalik umumta'lim maktablarida dars mashg'ulotlari jarayonida xalq maqollari yordamida bilim olayotgan bolalarda shakllanadi. Ta'limning poydevori qanchalik mustahkam bo'lsa, o'quvchining ilmiy tafakkuri uni dunyoqarashi shunchalik rivojlanadi [10].

Tabiatni asrash, uni muhofaza qilishga o'rgatish, umuman, ekologik tarbiya berish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilariga barcha predmet darslarida ushbu tarbiya elementlarini o'quvchilarga singdirish orqali ularda ekologik madaniyatni shakllantirish mumkin. Bunday o'qitishda pedagogik texnologiyalarda foydalanish yaxshi samara beradi. O'qituvchi o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishda ularning xohishiga ko'ra individual tarzda, juftlikda yoki kichik guruhlarda ishlash shakllaridan foydalanish yaxshi samara beradi [11]. Shuningdek, uy vazifalari ham hamma uchun yagona va majburiy bo'lmasdan, bir necha variantda tayyorlanishi va o'quvchilar o'z xohishiga ko'ra tanlashlari mumkin. Masalan, 1-variantda

yangimavzu yuzasidan o'quv materialini tayyorlash, savollarga javob topish, obyektning rasmini chizish; 2-variantda o'quv materialini mazmundagi atama va tushunchalardan foydalanib krossvord tuzish; 3-variantda qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib, tabiat haqida hikoya tayyorlash [12]. Uy vazifalarining bunday shaklda berilishi o'quvchilarga o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda avval uy vazifasining yengilroq variantini, keyin murakkabroq variantini bajarishga o'tish, o'z kuchi va bilimini sinab ko'rish imkonini beradi. Bolalarga bu tarbiyani berish uchun o'qituvchida juda katta tajriba mahorat bo'lishi lozim, o'qituvchida bunday ko'nikma bo'lsa o'z maqsadiga erisha olmaydi [25].

Hozirgi kunda maktab o'quvchilarga o'tiladigan "Tabiiy fan" darslik kitobi o'qituvchilar uchun umumiy qo'llanmalar, ya'ni unda bu tarbiyaga oid tushuncha va masalalar keng qilib tushuntirib rasmlar asosida boyitib tasvirlangan [13]. Bundan tashqari o'quvchilarga bu bilimlarni berish uchun bolalar bilan suhbat tashkil etilib, qanday munosabatda bo'lishi kerakligi to'g'risida o'z mulohazalarini bayon etadilar. Bu fikrlarni umumlashtirib o'qituvchi o'z xulosasini bayon etib, qanday ishlar bajarish kerakligini aytadi [24].

O'qituvchi bolalarni tabiat qo'yniga sayohatga olib borishi orqali ham o'quvchilarning ekologik immunitetini bir pog'onaga ko'tarilishiga sabab bo'lishi mumkindir. Bu jarayonning afzalligi shundaki o'quvchilar bu paytda tabiatdagi narsalarni o'z ko'zlari bilan ko'radi, qo'llari bilan ushlaydi va ularning qay darajada tabiat uchun zarur ekanligi haqida ko'nikma paydo bo'ladi [14]. Yana shunday jarayonlarni o'qituvchi tashkil etsinki bu vazifalarni bajarib o'quvchilar tabiatni asrash uchun o'z hissalarini qo'shganliklarini his qilsinlar va tabiatga bo'lgan mehri yanada ortsin. Bunday jarayonlarga "Har bir o'quvchiga bir tup ko'chat", "Sinfxonam kichik gulzor", "Qushlar bizning do'stimiz" kabi tadbirlarni yaqqol misol sifatida keltirishimiz mumkin. Bunday tadbirlarni tez-tez o'tkazib turilsa "Yashil makonimiz" uchun ozroq bo'lsa ham yordam bergan bo'lamiz va o'zimiz yashaydigan muhitga e'tiborsizlik bilan qaramaydigan bo'lamiz [15].

Insonlarda ekologik madaniyatni shakllantirish tizimli jarayon bo'lib, u insonning tug'ilganidan boshlanadi. Bu tarbiyani amalga oshirishda ota-onalar, bog'cha tarbiyachilari, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining samarali mehnatlari tufayli amalga oshirilishi mumkin [16]. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish uchun bor imkoniyatlardan samarali foydalanish yo'llarini izlash va ulardan samarali foydalanish kutgan natija berishi mumkin.

Boshlang'ich ta'lim mazmuni milliy qadriyatlar materiallariga boy. Ko'plab darslik va qo'llanmalarga xalq og'zaki ijodi bo'lgan ertak, maqol, rivoyat, hadis,, doston, qissa, afsona, topishmoq, folklor, xalq kuyi va qo'shiqlari kiritilgan. Ular o'z mazmuni mohiyatiga ko'ra yosh o'qituvchilarda milliy odob-axloq madaniyatini asoslarini shakllantirishiga xizmat qiladi [17]. Xalq og'zaki ijodi vositalaridan maqsadli va unumli foydalanish uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lmog'i lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish quyidagicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. O'quvchining hissiyotiga ta'sir etish;
2. O'quvchilar qalbida tabiatga, atrof-muhitga muhabbat uyg'otish;
3. O'quvchilar ongida tabiatni muhofaza etish va u bilan oqilona munosabatni shakllantirish;
4. Ekologik ta'lim – tarbiyani olishni uzluksiz davom ettirish;
5. Ekologik madaniyatni shakllantirish va takomillashtirish;
6. Xalq pedagogikasida qo'llanilgan tarbiya usullaridan foydalangan holda ekologik tarbiya berish;
7. Olingan nazariy bilimlarni amalda qo'llash malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat [18].

Biz buning uchun "Tabiiy fan" darsliklari tarkibiga xalq og'zaki materiallarini kiritmog'imiz va yoshlarimizni boy ma'naviy merosimiz bilan qurollantirmog'imiz lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda barcha o'quv predmetlarida imkoniyatlar mavjud. Faqat ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar

asosida tashkil etish, o'quvchilar faoliyatini faollashtirish bunda yaxshi samara beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda fanlararo bog'lanishlarni hisobga olib, darslarni tashkil etish yaxshi samara beradi [19]. O'quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalashda sinfdan tashqari mashg'ulotlarning o'rni beqiyosdir. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar darslarida olingan bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va konkretlashtirish, tabiatni o'rganishga qiziqish uyg'otish, o'quvchilar faolligi va mustaqilligini rivojlantirish, vaqtdan tejamli foydalanish imkoniyatlarini beradi [20]. Shuning uchun ham bunday mashg'ulotlarni integratsiyalashda oilaviy tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Shuning uchun ham bu ishlarni amalga oshirishda ota-onalar bilan hamkorlik qilish zarur.

Ekologik madaniyat dunyo ahamiyatiga molik sifat bo'lib, uni shakllantirishga insonning juda kichikligidanoq e'tibor qaratish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishga barcha fanlarning imkoniyatlaridan to'liq foydalanilgan holda, fanlararo bog'liqlikni hisobga olib, integratsiyalashgan darslar tashkil qilish yaxshi samara beradi [21]. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishga dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlardan foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda ajdodlarimiz merosi va milliy qadriyatlarimizdan unumli foydalanish zarur.

Jamiyatimizdagi yoshlarni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashda tarbiyaning vazifalari keng va ko'p qirrali ekanligini unutmashimiz kerak. Demak, qanday odamni tarbiya qilish darkor, tarbiya natijasida inson

qanday bo'lishi kerak, degan savollarni avvaldan tasavvur etish zarur. Bunda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali o'quvchilarda milliy qadriyalarni tarkib toptirish katta ahamiyat kasb etadi [22]. Bu jamiyatning komil insonni tarbiyalashdek maqsadiga mos kelishi kerak. Xalq og'zaki ijodida keng talqin qilinadigan milliy qadriyatlar-insonparvarlik, bag'rikenglik, vatanparvarlik, mehmondo'stlik, ahillik, to'g'ri so'zlik, tabiatni sevish va boshqalar o'zbek xalqi qadriyatlarining nozik kurtaklari bo'lib hisoblanadi [23]. Ularni xalqimiz asrlar osha avaylab-asrab kelmoqda.

Xulosa. Ekologik madaniyatni shakllantirish shakllantirishga doir hikmatlar, yurtimizda amalga oshirilayotgan EKO tadbirlar, xalqimizning urf-odatlariga singdirilgan ona tabiatni e'zozlashga undovchi milliy qadriyatlarimiz vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini ochib berish mumkin. Bizningcha ekologik madaniyat bu – xalqimizning urf-odatlarida sayqallangan tabiatga bo'lgan hurmati, o'zgaruvchan fasllarga hamda sinovli davrlarga moslasha olgan madaniy merosi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdusamatov, A. S. (2021). Methodological innovations in primary education and their organizational-active and purposeful implementation. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(8), 53-58.
2. Muqimovich, Y. S. Use of Interactive Methods in Teaching Historical Topics in Primary School Reading Lessons. *JournalNX*, 326-329.
3. Yakubov S., & Zokirov Z. (2021). Любовь к родителям и почитание их-основное звено воспитания. *theoretical & applied science*, (4), 439-442.
4. Zokirov J. (2022). the importance of strengthening lessons in students'mother tongue and reading literacy. *academic research in modern science*, 1(9), 344-348.
5. Babayeva M. A., & Samatova, M. N. (2023). ta'limda kreativlik va uni rivojlantirish bosqichlari. *scholar*, 1(13), 34-38.
6. Babayeva M. A., (2022, march). The importance of didactic games in the formation of interdisciplinary teaching competencies. in e conference zone (pp. 70-75).

7. Salohiddinova, N. (2022). Integration of exact and natural sciences concepts (On the example of exact and natural sciences). *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(11), 158-165.

8. Salokhitdinova, N. M. (2021). Current state of science integration in primary education. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(3), 533-537.

9. Djumayeva D. "Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining ekologik madaniyatini rivojlanishida oilaning o'рни" //Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali 3 (12), 147-153.

10. Djumayeva D. Pedagogical education of primary school students is a problem and some approaches to solution // Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali 3 (11), 194-198.

11. Djumayeva D. Pedagogical methods of formation of creative thinking of primary school students in educational lessons. // *International Interdisciplinary Research Journal* 10 (6), 324-327.

12. Xolov, O. C. (2023). Milliy qadriyatlarni shakllantirishda xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari. *Academic research in educational sciences*, 5(NUU conference 3), 85-89.

13. Almadanov J. B. (2021). the role and influence of psychological knowledge in the development of respect for national and cultural values in children in the educational environment. *European science*, (4 (60)), 53-56.

14. Shodiyeva, N. (2023). Ta'lim bilan qamrab olinmagan aholiga sog'lom fikrlarni yetkazishning samarali psixologik usullari " *Science Shine*" *International scientific journal*, 1(2).

15. Eshboyeva S. Creative approach to forming ecological concepts in primary class students. – 2022.

KIMIYO FANLARI



02.00.00

KIMIYO FANLARI



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi”
ilmiy-uslubiy jurnali
<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Chariyeva Shaxnoza Xujayarovna: Termiz muhandislik texnologiya instituti tayanch doktoranti, e-mail: shaxnoza.chariyeva.86@mail.ru
Urozo Mustafokulturayevich
Termiz muhandislik texnologiya instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISH JARAYONIDAGI CHIQUINDILARDAN ACHITQI SHTAMMLARINI OLISH

Annotatsiya: Maqolada oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonidagi chiqindidan achitqi shtammlarini olish usullarini o'rganish haqida so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar atroflicha tahlil qilingan. Turli usullarda olingan achitqi shtammlarini tarkibini fizik va kimyoviy usullar bilan tahlil qilish, olingan achitqi shtammlarni olish jarayonida turli xil sharoitlarning ta'siri o'rganilgan. Achitqi shtammlarining biomassasini oshirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: oziq-ovqat mahsulotlari, chiqindi, achitqi shtammlari, biomassa, qishloq xo'jaligi, zararlash darajasi, melas, pH o'zgarishi, inkubatsiya qilish, sterilizatsiya, fizik-kimyoviy tahlil.

ПОЛУЧЕНИЕ ДРОЖЖЕВЫХ ШТАММОВ ИЗ ОТХОДОВ ПИЩЕВОГО ПРОИЗВОДСТВА

Аннотация: В статье подробно проанализированы исследования, проведенные в последние годы по изучению методов получения штаммов дрожжей из отходов в процессе производства продуктов питания. Изучено влияние различных условий при получении анализа состава штаммов дрожжей, полученных разными методами, физическими и химическими методами штаммов дрожжей. Даны рекомендации по увеличению биомассы штаммов дрожжей.

Ключевые слова: пищевые продукты, отходы, штаммы дрожжей, биомасса, сельское хозяйство, степень повреждения, патока, изменение pH, инкубация, стерилизация, физико-химический анализ.

OBTAIN YEAST STRAINS FROM FOOD PRODUCTION WASTE

Abstract: The article analyzes in detail the research conducted in recent years to study methods for obtaining yeast strains from waste in the food production process. Analysis of the composition of yeast strains obtained by different methods, physical and chemical methods, studied the influence of various conditions when obtaining yeast strains. Recommendations are given for increasing the biomass of yeast strains.

Key words: food products, waste, yeast strains, biomass, agriculture, damage rate, molasses, pH change, incubation, sterilization, physicochemical analysis.

Kirish: Achitqilar oziq-ovqat va pivo sanoatida keng tarqalgan iqtisodiy ahamiyatga ega ingrediyent hisoblanadi. Ular xorijlik yetkazib beruvchilardan tijorat maqsadida sotib olinadi va davlatimiz uchun qimmatga tushadi. Ularning yuqori narxi tadbirkorlarning mahsulotlari tannarxining juda yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi. Mustaqillik yillarida barcha sohalar qatorida qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishga ham alohida g'amxo'rlik ko'rsatilmoqda. Bu borada ayniqsa, fermerlik harakatini qo'llab-quvvatlashga qaratilayotgan e'tibor tufayli qishloq mulkdorlari mahsulot yetishtirish bilan chegaralanib qolmay, uni qayta ishlash, ichki iste'mol bozorini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish, aholini bandligini ta'minlashga ham munosib hissa qo'shishmoqda. [1].

Qishloq xo'jaligi tarmog'i aholini zarur oziq-ovqat bilan, sanoatning turli tarmoqlarini esa xomashyo bilan ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Ushbu sohalar yirik mexanizatsiyalashgan tarmoq sifatida respublikamiz iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga qaramasdan Respublikamizda oziq-ovqat sanoatida ishlatiladigan ko'plab tarkibiy qism (ingrediyent) lar import qilinadi. Non, konditer, makaron, shirinliklar va boshqa ko'plab fast foodlar ishlab chiqarishda asosiy ingrediyent hisoblangan "achitqi" (drojji) chetdan keltiriladi. Shu sababli achitqilarni mahalliy xom-ashyolardan olish dolzarb muammo bo'lganligi bois, ushbu tadqiqotda biz mahalliy xom ashyolardan achitqi olish va uning sifatini tekshirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni keltirganmiz [2].

Achitqi shtamlari mahalliy ichimliklar (pivo) dan ajratilgan va sifati zamonaviy fizik-kimyoviy usullarda aniqlangan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, olingan achitqi vodorod sulfidi gazini chiqarmaydi, glyukoza, maltoza, fruktoza, saxaroza va galaktozani achitadi. Flokkulentlik tahlili shuni ko'rsatdiki, achitqi 37° C haroratda o'rtacha darajada o'sish darajasiga ega, lekin 45° C da o'sish past ekanligi aniqlandi. Achitqi etanol va shakarining yuqori konsentratsiyasida, harorat va hujayra osmotik bosimi ta'sirida va boshqa agressiv sharoitlarida omon qoldi. Ushbu natijalar pivo ishlab chiqarish sanoatining chiqindilaridan (mahalliy manbalardan) achitqi olish mumkinligini ko'rsatdi. Bu import qilinayotgan achitqining o'rni bemalol bosishi mumkin [3].

Tajriba qismi: *Teff* va *Tella* achitqi namunalari shakar ishlab chiqaradigan zavodning chiqindilari namunalaridan topilgan. Namunalardan 1 ml olinib 9 ml tozalangan, distillangan suvda eritilib yaxshilab aralashtirildi. Ketma-ket suyultirish (10^{-1} - 10^{-6}) amalga oshirilgandan keyin, bosqichning har bir keyingi bosqichida achitqi yoki *tella* namunalari ko'payib borayotgan va u suyultirilgan suvli suspenziyalarda saqlanadi.

Ushbu olingan muhitda qancha mg/l konsentratsiyalari mavjudligi o'rganilgan: achitqi ekstrakti 3, solod ekstrakti 3, pepton 5, glyukoza 10 va agar 20. Ushbu namunalarning har biriga bakteriyalarning ko'payishini to'xtatuvchi sifatida xloramfenikol (0,1 gm / l) qo'shildi. Namunalarda 25° C haroratda 48 soat davomida saqlandi va keyingi o'rganishlar uchun 40° C da saqlangan.

Maklar asetatli agarli muhiti

2,5 gramm achitqi ekstrakti, 1,0 gramm glyukoza, 8,2 gramm natriy asetat trigridrat, 1,8 gramm kaliy xlorid va 15 gramm agar kabilar bir litrli idishda distillangan suvda eritildi. Idish biroz isitildi va 12 soatdan keyin idishlarga quyildi. Olingan namunalarda 25° C haroratda 3 hafta davomida inkubatsiya qilingan.

Achitqi sporalarini kuzatish

Olingan namunalarni kuzatish uchun shisha plastinka namlangan namunalardagi sporalar bo'yalgan, ma'lum vaqtdan so'ng shisha plastikalariga kuchsiz qizdirilganda namunalarda 30-60 soniya davomida 5% suvli yashil suv rangiga kirgan. Shisha plastinkalar 3-4 marta bug'latish uchun qizdirildi. Keyin preparatlar taxminan 30 soniya davomida 0,5% safranin qizil bilan bo'yalgan. Ushbu namunalarda achitqi hujayralari soni ($400 \times$) va ($1000 \times$) kattalikda kuzatildi.

Melas tayyorlash va fizik hamda biokimyoviy xossalari

Namunalarda shakar qamish asosida shakar ishlab chiqaradigan zavodning chiqindisidan olingan. Ushbu namunalardan har bir tajriba uchun melas distillangan suv yordamida 1:3 nisbatda suyultirildi va pekmex qaynatiladi hamda tarkibida erimaydigan materiallarning cho'kish uchun sovitildi.

Ushbu namuna tarkibidagi eruvchan materiallarni olish uchun substrat 10 daqiqa davomida $5000 \times g$ da yuqori tezlikda qayta-qayta sentrafuga qilindi. Shundan keyin eriydigan *supernatantning* pH qiymati HCl va NaOH bilan tegishli qiymatgacha to'g'irlandi. Bu jarayon 15 daqiqa davomida 121° C da avtoklavda olib borildi.

Olingan namunalarda 20 ml distillangan suv, 15 daqiqa davomida 70 rpm. In situ kuzatishlar oldidan achitqi YPDda ko'paytirildi (2% glyukoza, 2% pepton va 1% achitqi ekstrakti). Taxminan 10 g (nam holda) regidratlangan achitqi hujayralari har birida 150 ml bo'lgan ikkita 250 ml Erlenmeyer kolbalariga quyildi.

Kolbalar shakerda 32° C, 120 rpm tezlikda 74 soat davomida inkubatsiya qilindi. Keyinchalik, in situ tajribalari uchun santrifugalash ($5000 \times g$, 15 min) olib borildi. Bunday jarayonning pH muhitning qiymati 4,5 da olib borilgan.

suyultirishlar (1:3, 2:3, 1:2, 1:3, 1:5 va 1:2) suyultiruvchi vosita sifatida bir xil hujayrasiz 7° Bx melas yordamida amalga oshirildi.

Melasning fizik va biokimyoviy xossalari

Melasning quruq vaznini aniqlash-Melas namunasining quruq vazni taxminan 5 gramm melas namunasi massalari anq bo'lgan tigelda solindi va melas namunasi bo'lgan tigel 2 soat davomida 105° C haroratda pechda saqlanadi. Melas namunasi bo'lgan tigel eksikatorida sovitilgan va tortilgan. Isitish, sovutish va tortish jarayoni doimiy quruq vazn olinmaguncha takrorlandi. Melas namunasining quruq og'irligi foiz nisbati quyidagi formula yordamida aniqlangan.

$$\text{Namlilik, og'irlik bo'yicha foiz} = \frac{(W_1 - W_2)}{(W_1 - W)} \times 100$$

Bu yerda:

W₁-Quritishdan oldin shinni namunasi bilan tigelning grammidagi vazni

W₂-quritilgan namuna bilan tigelning grammidagi vazni

W-bo'sh tigelning grammidagi og'irligi.

Quruq vazn, foiz =100-namlilik foiz

Umumiy kulni aniqlash

Quritilgan melas namunasidagi umumiy kul miqdori bilan aniqlangan. Tigel olti soat davomida 100° C da mikrovolanovkali pechda quritilgan. U pechdan chiqarilib, quritgichda saqlanadi va uning doimiy og'irlikka keltirilgan. Besh gramm namunasi (ho'l vazn) olindi va tortilgan tigelga joylashtirildi. Keyin shinni namunasi solingan tigel mufelli pechda saqlanadi va harorat 2 soat davomida 550° C ga qo'yiladi. Keyin uni mufl pechidan olib, eksikatorida sovitib, tortdi. Nihoyat umumiy kulni foizda baholash uchun quyidagi oddiy formuladan foydalanilgan.

$$\text{Qoldiq miqdori} = \frac{(W_2 - W)}{(W_1 - W)} \times$$

Bu yerda: W- bo'sh tigelning og'irligi, W₁-tigelning og'irligi va quritilgan shinni, W₂-tigelning og'irligi va qoldiq.

Umumiy shakar miqdorini hisoblash

Melas namunasining umumiy shakar miqdori DNS usuli bilan aniqlandi. DNS eritmasi bir litr distillangan suvda 0,5 g natriy sulfid, 2,0 g fenol, 10,0 g natriy gidroksid, 200 g kaliy natriy tartarat va 10,0 g 3-5-dinitrosalitsil kislotasini eritib tayyorlandi. Gidroliz uchun 5,0 ml chiniga 5,0 ml distillangan suv va 1,0 ml konsentrlangan HCl qo'shildi. Aralashma bir daqiqagacha qaynatiladi, so'ng ra sovitiladi, 4,4 ml 2,5 N NaOH bilan neytrallanadi va Sheoran va boshqalar taklif etgan melas bo'yicha (1998) ga muvofiq suyultiriladi.

Standart glyukoza egri chizig'i bo'yicha glyukoza ning standart nisbati yordamida tuzilgan. Glyukoza uchun standart egri yakuniy konsentratsiyani 0,2 mg/ml ga 0,0,02,0,04,0,06,0,08,0,1, 0,12,0,14,0,16,0,18,0,2, bunda glyukoza eritmasining suvga haqiqiy nisbati 0:1000 20:980, 40:960, 60:940, 80:920, 100:900, 120:808, 121:808, 160:840,180:820 va 200:800.

Har bir suyultirishga ikki ml DNS eritmasi qo'shildi. Shundan so'ng aralashmani besh daqiqa davomida qaynatish kerak edi. Aralashmaning absorbsiyasi xona haroratida sovitilgandan so'ng 540 nm da spektrofotometrda o'rganilgan. Quyudagi formula standart egri chiziq natijasi asosida ishlab chiqilgan.

$$Y = aX + b$$

Bu yerda: X - glyukoza ekvivalentni miqdori, Y- Absorbsiya qiymati

Umumiy azot va xom oqsilni aniqlash

Umumiy azot (oqsil va boshqa birikmalarning azoti) miqdorini Keldal usuli yordamida aniqlangan. Taxminan 1 gramm namunani, 6 ml kislotani aralashmasi (konsentrlangan sulfat kislotasi va konsentrlangan ortofosfor kislotasi) va taxminan 3 gramm katalizator aralashmasi (K₂SO₄ selen va CuSO₄) bo'lgan ovqat hazm bo'lishini ta'minlash uchun taxminan 370° C gacha qaynatiladi. Keyin distillash 25 ml 40% li NaOH qo'shib, 25 ml 2% borat kislotasi va 10 tomchi indikator eritmasidan foydalangan holda amalga oshirildi. Nihoyat, distillyat standartlashtirilgan 0,1N sulfat kislotasi bilan qizg'ish ranggacha titrlangan. Umumiy azot foizi va xom protein miqdori quyidagi formulalar yordamida aniqlandi.

$$\text{Og'irlik bo'yicha umumiy azot (foiz)} = \frac{(V_2 - V_1) \times N \times 0.014 \times 100}{W} \times 100$$

Bu yerda: V₂ - titrlashda ishlatiladigan standart sulfat kislotasi eritmasining ml dagi hajmi sinov materiali (melassa namunasi), V₁ - titrlashda ishlatiladigan standart sulfat kislotaning ml hajmibo'sh aniqlash, N- standart sulfat kislotasi eritmasining normalligi, W- quruq moddada materialining grammidagi og'irligi.

Yetilmagan protein miqdori, vazniga foiz = umumiy azot X 6,25 (AOAC, 2000).

Achitqi shtamlarini tayyorlash usullari

Achitqi ekstrakti, 3,0; pepton, 5,0; glyukoza, 2,0; saxaroza, 15,0; Na₂HPO₄·12H₂O, 2,4; MgSO₄·7H₂O, 0,075 va (NH₄)₂SO₄ 5.1 o'z ichiga olgan

bulyon kulturasida o'stirildi. Muhit 121 °C da 15 daqiqa davomida sterilizatsiya qilingan achitqi namunalari bilan ta'sirlashtirilgan. Ushbu achitqi turi 24 soat davomida o'stirish imkonini bergan. Ularning har bir namunadagi hajmi 0,9% ni tashkil etgan.

Achitqi shtamlarini oziqlantiruvchi muhitni tayyorlash

Achitqilarni olishda ularni oziqlantiruvchi muhit bilan ta'minlash eng asosiy omillardan hisoblanadi va shu sababdan quyidagi bir nechta usullarni taklif etish mumkin hamda ularning eng optimalli tanlab olindi:

1). Agar oziqlantiruvchi muhit keng tarqalgan mikrobiologik o'sish muhitidir. Oziqlantiruvchi agarda odatda 0,5% pepton, 0,3% mol go'shti ekstrakti/achitqi ekstrakti, 1,5% agar, 0,5% NaCl, 97,2% distillangan suv mavjud.

2). Achitqi ekstrakti pepton dekstroz muhiti (Agar va Bulon)

Peptonli va agrli muhitlarda achitqini o'sishtirishning uchun to'liq ozuquviy miqdorlari tarkibida 1% achitqi ekstrakti, 2% pepton, 2% glyukoza yoki dekstroz va distillangan suv mavjud, shuningdek, 2% agar qo'shib qattiq muhit sifatida foydalanish mumkin.

3). Kraxmall va agarli muhit

Kraxmalli agarli mikroorganizmlarning o'ziga xos o'sishi va kraxmalni gidrolizlash faolligini kuzatish uchun ishlatiladi. Bunda asosiy tarkib sifatida 0,3% mol go'shti ekstrakti, 0,5% pepton, 0,2% kraxmal va 1,5% agar mavjud.

4). Karboksimetilselulozali va agarli muhit

Ushbu muhitda bakteriyalarni (yoki zamburug'larni) selulozali faollikni tekshirish uchun ishlatiladi. Tarkibida 1,5% pepton, 0,3% K₂HPO₄, 0,045% MgSO₄, 0,375% (NH₄)₂SO₄, jelatin: 0,3% va 1,5% agar mavjud.

Melas konsentratsiyasining achitqi o'sishiga ta'sirini o'rganish

Melas konsentratsiyasining achitqi biomassasi unumiga ta'sirini aniqlash uchun quyidagi tajriba o'tkazilgan bo'lib, bunda har bir achitqi shtamidan 0,9% v/v inokulum 3% og'irlik/hajm, 5% og'irlik/hajm, 8% og'irlik/hajm va 10% chinni bo'lgan 250 ml kolbalariga solingan. Melas muhitini HCl va NaOH yordamida tozalashdan oldin oldin pH muhiti 4,5 ga tenglashtirilgan. Kolbalar 30 °C haroratda qoldirildi va bunda achitqi biomassasi unumdorligi 24, 48, 72 va 96 soatlik o'sishdan keyin qayd etilgan. Melas konsentratsiyasining turli xil achitqi izolatlarining pH 4,5 va 30 °C haroratda o'sishiga ta'siri.

Achitqining o'sishiga pH, harorat va konsentratsiyaning ta'siri

Achitqining o'sishiga pH ning ta'siri

Olingan tadqiqot natijalariga ko'ra, pH ning achitqi biomassasi unumdorligiga ta'siri muhim rol o'ynagan. Taxminan 8% og'irlik konsentratsiyasi bilan tayyorlangan melasning pH qiymatlari 3,5, 4,0, 4,5, 5,0 va 5,5 bo'lganda va 30°C da 24, 48, 72 va 96 soat davomida inkubatsiya qilish mumkin ekanligi aniqlangan.


Achitqining o'sishiga haroratning ta'siri

Haroratning uchta achitqi shtamining achitqi biomassasi unumiga ta'siri o'rganilganda, ma'lum bo'ldiki achitqi biomassanining ko'payish jarayoni 22 °C, 30 °C va 33 °C haroratlarda 8% w/v yordamida amalga oshirilgan. Natijalardan ma'lumki, pH ning qiymati 4,5 da saqlangan holda achitqi biomassasi unumdorligi 24, 48, 72 va 96 soatlik o'sishdan keyin qayd etilgan.

1-rasmda turli inkubatsiya haroratida hujayra o'sishi, pH o'zgarishi va boshqa komponentlarning iste'moli ko'rsatilgan. Bunda harorati 24 dan 27 °C gacha oshirilganda, achitqi hujayra konsentratsiyasi 16,6 dan 18,1 g/L gacha oshgan. Shuningdek, 30 °C va 33 °C da achitqi hujayra konsentratsiyasi mos ravishda 17,7 va 17,4 g/L gacha ekanligi tasvirlangan. Bundan kelib chiqadiki, 27 °C harorat achitqi hujayra o'sishi uchun optimal harorat ekanligini ko'rsatdi.

Glitserin iste'moli sezilarli hujayra o'sishi bilan birga keladi. Eng yuqori unum ham asosan 27 °C da 0,40 g achitqi/g-, keyin 33 °C da 0,38 g achitqi/g, 30 °C da 0,37 achitqi/g va 24 °C da 0,35 achitqi/g ni tashkil etgan.

Yuqorida keltirilgan o'zgarishlar oraliq mahsulotlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.



10-rasm. Turli inkubatsiyalarda achitqi hujayralarini yetishtirishda harorat, vaqt, pH o'zgarishi va melasning sarfi

Achitqining biomassasini optimallashtirish

Achitqining biomassasining unumdorligini oshirish uchun melasga turli miqdordagi ozuqa moddalari qo'shildi. Har bir qo'shimchani samaradorligi pH 4,5 va 24, 48, 72 va 96 soatlik inkubatsiyadan keyin biomassa bo'yicha 30 °C haroratda o'lchangan. Bunda, turli xil ishlov bersh usullari quyida keltirilgan:

1. *Ishlov berish*-8 w/v % melas + 0,5% og'irlik/hajm (NH₄)₂SO₄
2. *Ishlov berish*-8 w/v% melas + 0,5% og'irlik/hajm (NH₄)₂SO₄+0,3% w/v KH₂PO₄
3. *Ishlov berish*-8% smetana +0,5% og'irlik/hajm (NH₄)₂SO₄+0,3% og'irlik/hajm KH₂PO₄ +2% og'irlik/hajm pepton
4. *Ishlov berish*- melas 8% og'irlik/hajm + 0,5% og'irlik/hajm (NH₄)₂SO₄+ 0,3% og'irlik/hajm KH₂PO₄ +1% achitqi ekstrakti og'irlik/hajm. +0,05% og'irlik/hajm MgSO₄·7H₂O+0,004% og'irlik/hajm CaCl₂·2H₂O.
5. *Ishlov berish*- 8% og'irlik/hajm melas + 0,5 g./taxminan. (NH₄)₂SO₄+0,3% og'irlik/hajm KH₂PO₄+1%achitqi ekstrakti, og'irliqi 2% pepton + 0,05% og'irliqi MgSO₄·7H₂O+0,004% og'irliqi CaCl₂·2H₂O+ 0,005% og'irlik/hajm biotin + 0,0001% w/v kalsiy pantationat.

Achitqini yig'ish va biomassani aniqlash

Bir qator ko'payish jarayonlarida achitqini yig'ish va biomassani aniqlash amalga oshirildi. Faqat ta'sirlashtirilgan chinni va turli qo'shimchalarni o'z ichiga olgan Erlenmeyer kolbalari turli pH qiymatlarida (3,5, 4,0, 4,5, 5,0 va 5,5), turli haroratlarda (25 °C, 30 °C va 33 °C) va turli inkubatsiya (24, 48, 72 va 96 soat) vaqtlarda saqlandi. Inkubatsiyadan so'ng, har bir kolbadagi suspenziyalar 5000 xg da 10 daqiqa davomida bir necha marta sentrifugalandi va distillangan sovuq suv bilan yuvildi. Har bir achitqi biomassasi (pellet) 60 °C haroratda doimiy og'irlikgacha kelguncha pechda quritilgan. Achitqining quruq vazni Metler balans (Scaltec) yordamida o'lchandi.

Xulosa. Maqolada oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayoni chiqindilari asosida Teff va Tella kabi achitqilarni olishning optimal sharoitlari o'rganilgan. Teff va Tella shtamlarini ajratib olishning metodikasi ishlab chiqilgan bo'lib, bunda agarli muhi va ketma-ket suyultirish usuli qo'llanilgan, shuningdek, ushbu jarayonda optimal harorat 25 0C va 40 °C hamda vaqt davomiyligi esa 48 soat ekanligi aniqlangan. Achitqi shtammlarining biomassasini oshirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chariyeva Sh.X., Urozov M.K. Arpa doni chiqindilari va pivo sharobi chiqindilari asosida achitqi shtamlari olishning tadqiqoti // Journal of universal science research ISSN (E): 2181-4570 177-181 b.
2. Chariyeva Sh.X., Xodjamkulov S.Z., Urozov M.K. Pivo sanoati chiqindilaridan achitqi shtamlari olish // Toshkent kimyo-texnologiya instituti. "Kimyogar ayollar-2023" xalqaro ilmiy forumi ilmiy ishlar to'plami. Toshkent, 2023 y. 459-461 b.
3. Chariyeva Sh.X., Urozov M.K. Recovery of yeast strains from brewing industry waste// Research journal of trauma and disability studies ISSN (E): 2720-6866 177-181 b.
4. Michael, M. Beer and Its Drinkers: An Ancient near Eastern Love Story. Near Eastern Archaeology 2004: 67(2): 84-95.
5. Okunowo, W., RO Okotore and AA. Osuntoki, The alcoholic fermentative efficiency of indigenous yeast strains of different origin on orange juice, African Journal of Biotechnology, 2005:4: 1290-1296.
6. Brooks, A. Ethanol production potential of local yeast strains isolated from ripe banana peels. African Journal of Biotechnology. 2008: 7 (20) 3749-3752.
7. Okoro, C. Production of red wine from roselle (*Hibiscus sabdariffa*) and pawpaw (*Carica papaya*) using palm-wine yeast (*Saccharomyces cerevisiae*). Nigerian Food Journal, 2007: 25(2):15864.
8. Umeh, S., O. Udemezue, BC. Okeke and GC. Agu. Paw paw (*Carica papaya*) wine: with low sugar produced using *Saccharomyces cerevisiae* isolated from a local drink "burukutu". International Journal of Biotechnology and Food Science. 2015: 5(2):17-22

TIBBIYOT FANLARI



14.00.00

TIBBIYOT FANLARI



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi”
ilmiy-uslubiy jurnali | <https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Kenjayev Yo. M., Alimuxamedov D. Sh.
Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi
yodqortmatb@gmail.com

CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARI XODIMLARINING SOG'LIGINI TIKLASH UCHUN PROFILAKTIK RATSIONNING GIGIYENIK TAHLILI

Annotatsiya: Bugungi kunda dunyo miqyosida chiqindilar muammosi eng dolzarb ekologik masalalardan biriga aylanib bormoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'ngi yillarda maishiy va sanoat chiqindilari yildan-yilga ko'payib boryapti. Ayniqsa, XXI asrda maishiy chiqindilar hajmining o'sishi 60% ga ortib ekologik barqarorlikka juda katta salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Chiqindilarni yig'ish, saralash va qayta ishlash korxonalari ishchilarining noqulay mikroiklim ta'siri kabi ko'plab noqulay omillarning mavjudligi bilan ajralib turadi, bu esa organizmga salomatlik holatining o'zgarishiga olib keladi. Bularning barchasi mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha sog'liqni saqlash choralari va tavsiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan har tomonlama va ko'p qirrali tadqiqotlarni talab qiladigan sabablardir.
Tayanch so'zlar: ekologik muammo, salbiy ta'sir, chiqindilarni qayta ishlash, profilaktik ratsionni optimallashtirish, ishchilar salomatligi.

ГИГИЕНИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОФИЛАКТИЧЕСКОГО РАТСИОНА ДЛЯ ВОССТАНОВЛЕНИЯ ЗДОРОВЬЯ РАБОТНИКОВ ПРЕДПРИЯТИЙ ПО ПЕРЕРАБОТКЕ ОТХОДОВ

Аннотация: Сегодня проблема отходов в глобальном масштабе становится одной из наиболее актуальных экологических проблем. Анализ показывает, что в последние годы количество бытовых и промышленных отходов растет из года в год. Особенно в 21 веке, рост объема бытовых отходов оказывает огромное негативное влияние на экологическую устойчивость, увеличившись на 60%. Оно характеризуется наличием множества вредных факторов, таких как неблагоприятное влияние микроклимата работников предприятий по сбору, сортировке и переработке отходов, что приводит к изменению самочувствия в организме. Все это причины, которые требуют всесторонних и многогранных исследований, направленных на разработку санитарных мер и рекомендаций по улучшению условий труда.
Ключевые слова: экологическая проблема, вредней воздействие, переработка отходов, оптимизация профилактического рациона, здоровье работников.

HYGIENIC ANALYSIS OF THE PREVENTIVE DIET TO RESTORE THE HEALTH OF EMPLOYEES OF WASTE PROCESSING ENTERPRISES

Abstract: Today, the problem of waste on a global scale is becoming one of the most pressing environmental problems. The analysis shows that in recent years the amount of household and industrial waste has been growing from year to year. Especially in the 21st century, the growth of household waste began to have a huge negative impact on environmental sustainability, increasing by 60%. It is characterized by the presence of many adverse factors, such as the adverse affect of the microclimate of employees of waste collection, sorting and recycling enterprises, which leads to a change in well-being in the body. All these are reasons that require comprehensive and multifaceted research aimed at developing sanitary measures and recommendations to improve working conditions.

Keywords: environmental problem, harmful effects, waste recycling, optimization of preventive diet, workers' health.

Material va usullar:


So'ngi yillarda tibbiyot ilmi va amaliyotini ko'pchilik vakillarining ovqatlanish muammolariga bo'lgan e'tibori ortdi. Bu holat nafaqat barcha joylarda aniqlanuvchi hamda aholi orasida keng tarqalgan ovqatlanish tarkibi va ovqatlanish statusi buzilishining salomatlik uchun salbiy oqibatlarga olib kelishini tushunish bilan, balki biokimyo, hujayra biologiyasi, genomika, proteomika va boshqa fundamental fanlarning erishgan muvoffaqiyatlari bilan bog'liqdir. Qator kasalliklarning rivojlanish xavfi bo'lganda, a'zo va funksional

tizimlar faolligini boshqarishda alohida mikro – va makronutrientlar, ovqatlarning noozuqaviy bo'lgan minor biologik faol qismlarining o'rnini o'z yechimini topdi (Tutelyan V.A., 2001, Visoskiy V.G., 2003). Ishchilarning ovqatlanish tartibini yil fasllari davomida tahlili turli kasalliklarga va xavf omillarini alohida ajratish, bir-biri bilan korrelyasion bog'liqligini gigienik va ijtimoiy jihatdan tahlil qilish hamda manzilli chora-tadbirlar bilan birgalikda ratsion ishlab chiqishga asos bo'ladi. Ishchilarning haqiqiy ovqatlanishi va vitaminlar bilan ta'minlanganligini o'rganish natijalari O'zbekiston Respublikasi aholisining yoshiga, jinsiga va kasbiy faoliyati guruhlariga uchun sog'lom ovqatlanishni ta'minlashga qaratilgan o'rtacha kunlik ratsional ovqatlanish normativlari (San Q va M – 0007-20) ga nomutanosibligi va yetarli emasligi to'g'risida dalolat beradi. Tadqiqotda chiqindilarni qayta ishlash zavodlarida ishlaydigan ishchilarning ratsionini gigienik tahlil qilish kiritilgan. So'rovnoma yilning turli fasllarida 164 xodim o'rtasida o'tkazildi.

N a t i j a l a r : Ma'lumotlarni tahlil qilish yoshi, jinsi va kasbiy guruhlarini hisobga olgan holda xodimlarning o'rtacha kunlik ratsional ovqatlanish normalari o'rtasidagi nomutanosiblik va nomuvofiqlikni aniqladi.

Ishchilarning yil mavsumi davomida iste'mol darajasi.

1-jadval



Izoh: *- fiziologik me'yor ko'rsatkichlariga nisbatan farqlanish ishonchli (*-P<0,05; **-P<0,01; ***-P<0,001).

1-jadvalda keltirilgan mahsulotlarning gigienik tahlilidan ko'rinib turibdiki, erkaklarning kunlik mahsulotlarining iste'mol nisbati ayollarga nisbatan keskin farq qilgan. Mahsulotlarning asosiy tarkibida un mahsulotlarining miqdori 140,0 %;ni tashkil qilsa, ayollarda 116,0%ni tashkil qildi.

Qator gigienik tahlillarda non va non mahsulotlari birgalikda tahlil qilingan va natijalar keltirilgan. Biz o'zimizning tahlillarimizda esa har birini alohida o'rganishni va ishchilarni kasalliklarga chidamliligini oshishida immun tizimi stabililigini oshishiga nisbatan xavf ta'sirini tahlil qilishda mahsulotlarning o'rnini va ahamiyatini oydinlashtirishga qaratdik.

Erkaklarda asosiy non mahsulotlari un, guruch, non va makaron mahsulotlarining iste'mol darajasi erkaklarda 16 dan 40 % gacha ortiqcha va umumiy 187.2%, ayollarda esa bu ko'rsatkichdan 174,5% gacha tashkil qildi.

Ta'kidlab o'tish joizki, qish mavsumida tadqiqotga jalb qilingan ishchilarning kunlik ratsion tarkibida vitaminlar va nutrientlarga boy javdar noni, guruch, dukkaklilar, yormalar (guruchsiz), kartoshka mahsulotlarining iste'mol darajasi keskin, ya'ni 15-84% gacha kam miqdorda qabul qilingan. Qolgan don mahsulotlarining miqdori esa keskin ortiqchadir.

Qish mavsumida ishchilar sof karam, bodring va pomidor o'rniga tuzlangan karam, tuzlangan pomidor va bodringlar miqdori keskin oshirilgan va o'rnini almashtirilgan. Bu esa ishchilarning ishtahasini ochish bilan birgalikda keyinchalik ortiqcha non mahsulotlari iste'moliga sharoit yaratadi.

Sof baliq esa kam bo'lishiga qaramasdan qovurilgan va tuzlangan tartibda iste'mol qilinishi bilan birgalikda, tuzlangan va dudlangan baliq ham qish mavsumida kunlik ratsionga kiritilgan. Qish mavsumida mol go'shtining iste'mol darajasi erkaklarda 63,3%, ayollarda 56,7% ni tashkil qilib, qo'y go'shti va tovuq go'shti ham keskin darajada kam iste'mol qilingan.

Oliy navli non analogik tartibda 84,2 va 74,5% ga ortiqcha iste'mol qilingan bo'lishiga qaramasdan mahalliy suv tegirmonida yanchilgan, vitamin minerallarga boy O'zbekiston unidan va javdar unidan tayyorlangan non iste'mol qilinmagan.

Shakarning iste'mol miqdori qish mavsumida erkaklar orasida 216,7%ga, ayollar esa 250%gacha oshirilgan. Shu bilan birgalikda margarin, o'simlik moylari va osh tuzining miqdori keskin darajada ortiqcha iste'mol qilingan.

Sut va sut mahsulotlarining iste'mol darajasi qish mavsumida judayam keskin kamaytirilgan.

Shu bilan birgalikda, osh tuzi, margarin, o'simlik moyi mahsulotlarning miqdori boshqa fasllarga nisbatan qish mavsumida keskin ortiqcha iste'mol qilinganligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib ta'kidlash joizki, qish mavsumida sut mahsulotlari, meva va sabzavotlarning iste'mol darajasining keskin darajada kamayganligi ishchilar salomatligida muhim bo'lgan immun tizimining barqarorligini pasayishiga va turli xastaliklarning rivojlanishiga sharoit yaratgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, ishchilarning bahor mavsumidagi ovqatlanish tartibida asosiy mahsulotlardan sut, go'sht, meva, sabzavot va boshqa mahsulotlarning miqdori gigienik talablar mos kelmasligi aniqlandi.

Ishchilarning kunlik ratsionida eng asosiy va ahamiyatli hisoblangan go'sht va go'sht mahsulotlarining miqdori (mol, qo'y, tovuq, quyon va baliq mahsulotlari) ham yetarli miqdorda ta'minlanmagan. Aksariyat ishchilar tuxum va tuzlangan mahsulotlarni ko'p miqdorda iste'mol qilishgan, uning tarkibida ovqat qo'shimchalari va tuz to'planishiga moyillik bo'lgan kasallikning xavf omili ekanligini bilishmagan.

Hayvon yog'larining, ya'ni sariyog'ning iste'mol miqdori bahor mavsumida esa kunlik ratsion tarkibida erkaklarda 70,0%ni, ayollarda esa 63,3%ni, ya'ni erkaklarda 30,0%ga, ayollarda 46,7%ga kam iste'mol qilingan.

Kunlik ratsionda yetishmaydigan mahsulotlarning miqdori esa non va non mahsulotlaridan non va un hisobiga, shakar, margarin mahsulotlari hisobiga boyitilganligi ko'rinib turibdi.

Guruchning miqdori keskin kamaytirilgan, guruchning miqdori erkaklarda 42,0%ni, ayollarda 40,0% ga analogik tartibda 76,4%ga ta'minlangan. Bahor mavsumida uzum iste'mol qilinmagan.

Bu esa mummmoning yechimi emas. Uzum tarkibidagi qand va boshqa nutrientlar miqdori boshqa mahsulotlar tarkibida uchramasligi sababli asosiy xavfi past, ammo xavf omil yuqori bo'lgan boshqa mahsulotlar miqdori keskin ortiqcha iste'mol qilingan.

Korxonada ishchilarining kunlik ratsionidan qovoqning iste'mol miqdori keskin kamaytirilgan, biroq qovoq insonning hazm qilish tizimi faoliyatini yaxshilashi, so'rilishining yengilligi va vitamin hamda nutrientlarga boy bo'lganligi uchun asosiy ozuqa mahsuloti bo'lib hisoblanadi.


Ishchilarning kunlik ratsioni tarkibida kartoshkaning miqdori esa erkaklarda 76,4%ni, ayollarda esa 77%ni tashkil qilgan bo'lsa, lavlagi va sabzining iste'mol miqdori esa analogik tartibda 70%-62,5%ni tashkil qilgan. Dukkakli mahsulotlardan mosh, no'xat va loviyaning iste'moli keskin kamaytirilgan bo'lib, ushbu mahsulotlar tarkibida almashinmaydigan aminokislotalar mavjud, shu bois organizmda sintezlanmaydigan aminokislotalarni tashqaridan qabul qilishlik uchun tavsiya etiladigan mahsulotlar sirasi kiritiladi. Olib borilgan gigienik tahlillar davomida ta'kidlaganidek, qish mavsumidagidek, bahor mavsumida ham sut, go'sht va baliq mahsulotlari, meva va sabzavotlarning miqdori keskin kamligi bilan birgalikda osh tuzi, non, achchiq va sho'r mahsulotlar miqdori me'yorida yuqori darajada ortiqchadir. Ishchilarning mehnat va uy sharoitida yilning yoz mavsumida ovqatlanish holatining tahlilida don mahsulotlaridan unning miqdori erkaklarda 66,7%, ayollarda 72% miqdorda, bu esa me'yoridan kam ekanligi ko'rinib turibdi. Nonning kunlik iste'mol darajasi esa erkaklarda 142,8%, ayollarda 131,4%ga ortiqchaligi aholining ikkala jinsida ham moddalar alashinuvi jarayonini izdan chiqishga olib kelishiga sharoit yaratilganligi ko'rsatib turibdi. Bu esa ularning tana vazni ortishi, metabolik sindrom rivojlanishiga sharoit yaratadi. O'simlik oqsillari manbai bo'lib, dukkaklilar hisoblanishi e'tiborga olinsa, dukkaklilarning barchasini iste'moli erkaklarda 25% va ayollar 20% ni tashkil qilgan.

Eng achinarlisi, mamlakatimizda meva va sabzavotlarning yetishtirishga yetarli shart va sharoitlar bo'lishiga qaramasdan, ishchilar judayam kam miqdorda meva va sabzavotlar iste'mol qilishgan.

Ushbu mahsulotlarning iste'mol darajasining gigienik tahlilidan ko'rinib turibdiki, meva va sabzavotlar turlicha, noto'g'ri, tartibsiz iste'mol qilingan. Bu esa vitaminlar yetishmasligi va ularning asoratlarni shakllanishiga sharoit yaratganligi ko'rsatib turibdi. Sof karamni yilning yoz mavsumida erkaklar 116,0%ga, ayollar 112,0% miqdorda iste'mol qilishgan, biroq, ko'katlar, sarimsoq piyoz yetarli darajada iste'mol qilinmagan. Sof bodring va pomidorning iste'mol darajasi analogik tartibda 1,2 dan 0,5 martaga ko'p bo'lsa, boshqa sabzavot mahsulotlari, piyoz, baqlajon avlodidagi sabzavotlarning miqdori 5-17,4% kamligi ko'rinib turibdi.

2-jadval

Ishchilarning mavsumiy ovqatlanish ratsionining gigienik tahlili natijasida aniqlangan ovqat mahsulotlari tarkibining ozuqaviy ko'rsatkichlari



Bizning tadqiqotimizning yana bire'tiborlik tomoni shundaki, Surxondaryo viloyatining geografik xususiyati va aholining mahalliy urf-odatlariga asosan ularning kunlik ratsionida ko'proq mol va qo'y go'shtlari tanavvul qilinadi.

Tarkibidagi ovqat qo'shimchalarni spesifik xususiyatlari hisobiga aholi qisman tovuq go'shti mahsulotlarini ham iste'mol qilishadi. Ularning umumiy iste'mol miqdori erkaklarda 30 grammni, ayollarda 25 grammni tashkil qildi, biroq, uning umumiy miqdori 42,9%ni, ayollarda esa 41,7%ni tashkil qildi.

Go'sht mahsulotlarining umumiy miqdorini mol va qo'y go'shti, tovuq go'shti mahsulotlari bilan quyvon go'shti mahsulotlari belgilangan. Mahsulotlarni alohida tahlili va birgalikdagi tahlilidan ko'rinib turibdiki, ushbu guruh mahsulotlari ham kam iste'mol qilinganligi hamda quyvon go'shti yozgi

mavsumda umuman iste'mol qilinmaganligidan dalolat beradi. Ushbu mahsulotlarning iste'mol darajasi boshqa mavsumlarga nisbatan yoz mavsumida sezilarli darajada kamligi aniqlandi.

Baliq mahsulotlarining iste'mol darajasini ushbu mavsumdagi iste'mol darajasini faqat sof baliq bilan tahlil qilsak, erkaklarda 25,0%ni, ayollar 28,6 tashkil qilganligi aniqlangan.

Baliq va baliq mahsulotlarining iste'molida ham keskin farqlar mavjud. Biroq, baliq mahsulotlari yoz mavsumida erkaklarda 16,7%ni, ayollarda esa 40,%gacha iste'mol qilingan. Shuning uchun ayollarda erkaklarga nisbatan kasalliklarga chalinish keng tarqalish ehtimoliy darajasi yuqoridir.

Sut mahsulotlari turli kasalliklarda davolovchi shifobaxsh toamligi bilan ajralib turadi [40; 224-227-b., 41; 70-71-b., 46; 90-92-b., 47; 675-677-b.].

Biroq, biz o'rganish olib borayotgan ishchilarning kunlik ratsionida sutning iste'mol darajasi fiziologik me'yorga nisbatan erkaklarda 2,22 marta, ayollarda esa 3,07 martagacha kamligi aniqlandi. Osh tuzi, tuzli mahsulotlar bilan birgalikda shakar va ziravor mahsulotlarni kunlik ratsionda me'yorlashtirish borasida olimlarimiz qator tadqiqotlarni olib borishmoqda. Kunlik osh tuzining miqdori 5 gramgacha kamaytirilgan. Biz o'rganayotgan ishchilarning kunlik ratsionida osh tuzi me'yorga nisbatan erkaklarda 440%, ayollarda 320%ni tashkil qilgan.

Korxonada ishchilarini kuz mavsumidagi ovqatlanishning gigienik tahlilida iste'mol qilinadigan mahsulotlarning miqdori, boshqa mavsumlarga nisbatan ayrim mahsulotlar iste'moli nisbatan ortiqchaligini ko'rsatib turgan bo'lsada, biroq, fiziologik me'yordan kam. Qovoq hamda qator poliz mahsulotlari, shuningdek, uzumning kuz mavsumidagi iste'moliga e'tiborimizni qaratdik. Qovoqning iste'mol darajasi erkaklarda 82,5%ga, ayollarda esa 67,5%ni tashkil qilsa, uzumning miqdori erkaklarda 132,5%ga, ayollarda 137,5%ga ta'minlangan. Ikkala mahsulot ham mavsumiy mahsulot hisoblanadi, qovoqning korxonada ishchilarning

organizmidagi hazm tizimi faoliyatida tutgan o'rni beqiyosdir. Qovoq organizmda yengil hazm bo'lishi va tarkibida turli vitaminlar, nutrientlarga boyligi bilan shifobaxsh mahsulot hisoblanadi. Uzum tarkibida qand miqdorining ko'pligi esa katta yoshli ishchilar organizmida eng asosiy xavf omili hisoblanib, qandli diabet kasalligiga moyil ishchilarda kasallikning zo'rayishiga olib keluvchi manba hisoblanadi. O'simlik moyining miqdori esa erkaklarda 68,6%ga, ayollarda esa 52,0%ga, hayvon yog'i, ya'ni, go'sht yog'laridan tashqari sariyog' erkaklarda ushbu mavsumda 63,3%ga, ayollarda esa 56,7%ga kam ta'minlanganligini ko'rsatib turibdi. Dukkali mahsulotlardan iste'mol darajasi, asosan kuz va qish oylarida, boshqa mavsumlarga nisbatan qisman ortiqcha iste'mol qilingan.

Ishchilarning kunlik ratsioni tarkibida dukkallilarning me'yoriy darajada iste'mol qilinishi, uning tarkibidagi almashinmaydigan aminokislotalarning bo'lishi organizmda oqsillarning ishlab chiqarilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Margarinning miqdori erkaklarda 3,1 martaga, ayollarda esa 2,2 martaga ortiqcha. Bu esa moddalar almashinuvi bilan bog'liq holatlarning rivojlanishi va turli kasalliklarning shakllanishiga sharoit tug'diradi. Ta'kidlashimiz joizki, yilning to'rtta mavsumida ham asosiy mahsulotlarning yetishmasligi ishchilarning ovqatlanishida faqat un, non, makaron mahsulotlari hisobiga boytilganligini ko'rsatib turibdi.

Oliy navli un mahsulotlari metabolik jarayonlar bilan birgalikda temir tanqisligi va yod yetishmaslik holati kasalliklari bilan birgalikda asab kasalliklarining rivojlanishiga sharoit yaratib berilishini ko'rsatib turibdi.

Yilning to'rtta faslida osh tuzining iste'mol darajasi erkaklar va ayollarda qish-bahor mavsumlarida o'rtacha 400 va 300% ni, yoz mavsumida 440 va 320% ni, kuz mavsumida esa 360 va 200% ni tashkil qilgan.

Ishchilarning uy sharoitida ortiqcha undan

tayyorlangan mahsulotlar, non, makaron, margarin saqlovchi shirinliklar, pechenye, vafli kabi mahsulotlarni ortiqcha iste'mol qilinganligi aniqlangan.

Ushbu nomutanosibliklar aholi orasida ortiqcha tana vazni, semirish va moddalar almashinuv holatini izdan chiqishi, buning natijasida qon aylanish tizimining izdan chiqishi va ishchilar o'rtasi turli xastaliklarni kelib chiqishiga sharoit yaratadi, deb xulosa qilishni joiz bildik. (2-jadvalda keltirilgan).

Xulosa: Ushbu tadqiqot xulosalari chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini xodimlarining profilaktik ovqatlanishini optimallashtirish zarurligini ko'rsatadi. Oziqlanishni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ushbu aholi guruhida umumiy salomatlik va kasalliklarga chidamliligini oshirish yo'lidagi muhim qadamdir.

O'rganish natijalari tahlilidagi xulosalar quyidagilardan iborat.

1. Ishchilarning kunlik ratsioni tarkibida unning miqdori yilning yoz-kuz-qish-bahor mavsumlarida erkaklarda 120-170,0% keskin fasllarda davomida ortiqchaligi, ayollarda esa yoz-kuz mavsumlarida 125%ni, qish va bahor mavsumlarida esa 125-135% ortiqchaligi aniqlangan, biroq, oliy navli undan tayyorlangan nonning miqdori analogik tartibda erkaklarda 167,6dan 171,6%ga, ayollarda 163,1dan 166,8%ga ortiqcha iste'mol qilingan.

2. Non va non mahsulotlarining (non va makaronlar) miqdori yilning barcha fasllarida keskin darajada ortiqchaligi aniqlandi, biroq, guruch va bo'tqalarning umumiy miqdori fiziologik me'yorga nisbatan erkaklarda 27,5%dan-37%gacha, ayollarda esa 21,1%dan -30,2%gacha ta'minlangan.

3. Go'sht va go'sht mahsulotlari (turli go'shtlar, ich mahsulotlari va kalbasa mahsulotlari)ning yil davomidagi iste'moldarajasierkaklarda 37,2; 64,0; 65,3; 56,8%ni, ayollarda esa 38,3; 57,0; 63,6; 57,67%ni tashkil qilganligi aniqlandi.

4. Kunlik ratsion tarkibida sabzavotlarning miqdori yil davomida erkaklarda 57,3 dan 96,74%ni, ayollarda esa 50,9-72,7%ni tashkil qilgan, yozda qovoqning iste'mol qilinmaganligi natijalarga keskin ta'sir qilgan.

5. Mevalarning miqdori esa yil davomida quyidagicha: yozda erkaklarda 32,4%, ayollarda 32,0%ni, kuzda analogik tartibda 34,0% va 38,0%, qishda 30,4; 30,0%ni, bahorda 22,7 va 18,0%ni tashkil qilgan.

6. Shakarning miqdori esa erkaklarda yil davomida 133,3% dan 213,3%ga, ayollarda esa 175,0-275%ga ortiqchaligi aniqlangan.

7. O'simlik moyining miqdori erkaklarda yilning barcha fasllarida 83,3dan 116,7%gacha, ayollarda esa analogik tartibda 60-100%ga ta'minlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kenjayev, Y. (2023). " Bio Eko Texno" ma'suliyati cheklangan jamiyatga qarashli maishiy chiqindilarni saralash va qayta ishlash korxonasi xodimlarining salomatligi. TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi, 1(2), 172-176.

2. Mamatqulovich, K.Y. (2023). Classification of heart arrhythmias. American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences, 1(4), 92-98.

3. Mamatqulovich K. Y. Қаттиқ ва маиший чиқиндиларни қайта ишлаш корхоналари ишчиларни саломатлигини тиклашда профилактик ратсионнинг афзаллиги //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 246-250.

4. Ermatov N.J., Abdulkhakov I.U. Hygienic nalysis of the nutrient composition of the daily diet of patients with diabetes mellitus // American Journal of medicine and medical sciences 2021 11(9):649-657

5. Ermatov N.J., Kassymova G, Tajiyeva Kh, Khasanova M, Alimukhamedova M, Azimova S. Expression of tissue-specific genes in mice with hepatocarcinogenesis // International Journal of Pharmaceutical Research Jul - Sep 2020. Vol 12. Issue 3. P.1776-1781

6. Ermatov N.J., Rustamov B.B. Toxicological evaluation of medical and biological safety of the red palm oil «Premium Caratino» // European science review. –Austria.-2016.-№7-8.-P.122-124.
7. Ermatov N.J., Toshmatova G.A. Prevalence of mastopathies among women of Tashrent City // European science review. –Austria.-2016.-№9-10.-P.90-92
8. “Барқарор иқтисодий ривожланиш бўйича стратегик ташаббуслар ва амалий тавсиялар: салоҳият ва хатарлар” мавзuidaги Илмий-амалий конференция
9. Абакумова Ю.В. Новая технология лечебно-профилактического питания работающих во вредных и особо вредных условиях труда как часть комплексной профилактики вредного воздействия производственной среды // Вестник медицинского института «Реавиз»: реабилитация, врач и здоровье-2013- №33(9)- С.33-43.
10. Альмова И.Х., Берикетов А.С., Инарокова А.М., Сабанчиева Ж.Х. Опыт применение пектина при заболеваниях, связанных с вредными факторами производства // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2014. – № 5-2. – С. 62-65.
11. Kenjayev Y. " Bio Eko Texno" ma'suliyati cheklangan jamiyatga qarashli maishiy chiqindilarni saralash va qayta ishlash korxonasi xodimlarining salomatligi //tisu ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 172-176.
12. Baymanovich X. B. et al. Gender determination method using barr // European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – Т. 2. – №. 05. – С. 117-120.



TEZ TIBBIY YORDAM KO'RSATISH XIZMATINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

(*Surxondaryo viloyati misolida*)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyat aholisiga ko'rsatilayotgan tez tibbiy yordam xizmatining holatini o'rganish, tashkil qilish borasidagi ijobiy tomonlar va kamchiliklarni aniqlash masalasidagi qarashlar yoritilgan. Tez tibbiy yordam xizmati Sog'liqni saqlash tizimida o'ziga xos o'rinni egallab, u shikastlanganlarga, o'tkir xastalikka chalinganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilishini ta'minlashi haqida batafsil yoritilgan.

Tayanch so'zlar: tez tibbiy yordam, Sog'liqni saqlash, chaqiriq, ko'rsatkich.

АНАЛИЗ СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ СЛУЖБЫ СКОРОЙ МЕДИЦИНСКОЙ ПОМОЩИ

(*применительно к Сурхандарьинской области*)

Аннотация. В данной статье освещаются взгляды по вопросу изучения состояния, организации и выявления положительных сторон и недостатков оказания скорой медицинской помощи населению Сурхандарьинской области. Служба скорой медицинской помощи занимает особое место в системе здравоохранения, подробно поясняется, что она оказывает неотложную медицинскую помощь раненым и остро больным людям.

Ключевые слова: скорая помощь, здоровье, вызов, указатель.

ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF THE EMERGENCY MEDICAL SERVICE

(*in relation to Surkhandarya region*)

Abstract. This article highlights the views on the issue of studying the state, organization and identification of the positive sides and disadvantages of providing emergency medical care to the population of Surkhandarya region.

The emergency medical service has a special place in the healthcare system, and it is explained in detail that it provides emergency medical care to injured and acutely ill people.

Keys words: ambulance, health, call, pointer.

Kirish. Tez tibbiy yordam xizmati Sog'liqni saqlash tizimida o'ziga xos o'rinni egallab, u shikastlanganlarga, o'tkir xastalikka chalinganlarga

shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilishini ta'minlaydi. Shoshilinch sharoitlar yoki ushbu sharoitning paydo bo'lishi uchun tahdidlar yuzaga kelganda sifatli tibbiy yordam oldindan tashkil etilgan tizim, aniq belgilangan ko'rsatmalar yoki standartlar asosida yaxshi tayyorgarlikdan o'tgan

malakali tibbiyot xodimlari tomonidan ko'rsatiladi. Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish muammolari borasida tez tibbiy yordam (TTYO) ko'rsatish xizmatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

R e s p u b l i k a m i z d a sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish yuzasidan ko'rilayotgan chora-

tadbirlarga qaramasdan, tez tibbiy yordam ko'rsatish sohasida qo'yilgan vazifalarni to'liq bajarishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar mavjud. Jumladan, respublikada tez tibbiy yordam xizmatini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish yuzasidan qabul qilingan bir nechta qarorlarning natijalari bugungi kunga qadar sezilmayapti. Tez tibbiy yordam chaqiruvlarini qabul qilish va ularga xizmat ko'rsatish eskicha, qo'l mexanizmlari yordamida bajarilmoqda. Tez tibbiy yordam ko'rsatish vaqtida bemorlarning kasalxonaga yetib borgunga qadar vafot etishi ko'payib bormoqda. Murojaatlarni saralashning amaldagi tartibi mavjud kuch va vositalarni eng muhim chaqiruvlarga xizmat ko'rsatish uchun yo'naltirish imkonini bermaydi, natijada yolg'on chaqiruvlar soni oshmoqda yoki surunkali kasalliklari avj olgan, biroq hayoti xavf ostida bo'lmagan bemorlarga xizmat ko'rsatilmoqda [1; C.24].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tez tibbiy yordam xizmatini jadal rivojlantirish, uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, bu yo'nalishda tezkor, texnologik va samarali faoliyat ko'rsatishga erishish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida tez tibbiy yordam xizmatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 16-oktabrdagi PQ-3973-son Qarori qabul qilindi. Qarorda Shoshilinch yordamga muhtoj har bir kishiga yuqori sifatli tibbiy xizmatlarni o'z vaqtida ko'rsatish tez tibbiy yordam xizmatining ustuvor vazifasi etib belgilandi. Tadqiqotda Surxondaryo viloyat aholisiga ko'rsatilayotgan tez tibbiy yordam xizmatining holatini o'rganish, tashkil qilish borasidagi ijobiy tomonlar va kamchiliklarni aniqlash maqsad qilib olingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Biz Surxondaryo viloyati aholisiga ko'rsatilayotgan tez va shoshilinch tibbiy yordam xizmatini tahlil qildik va baholadik shuningdek, aholi tomonidan TTYO xizmatiga chaqiruvlarning asoslanganligi, to'satdan kasallanishlar va favqulotda tasodif holatlar tufayli chaqiriqlar bo'yicha qatnovlar davomida ko'rsatilgan tibbiy yordam statsonarlarga olib borilganlar soni,

baxtsiz xodisalar bo'yicha chaqiriqlar soni, tug'ruqlar yoki homiladorlik patologiyasi bilan bog'liq bo'lgan chaqiriqlar soni ham baholandi. Qishlok joylarda favqulotda tasodif holatlar tufayli bemorlarni tashish, baxtsiz hodisalar, tug'ruqlar, homiladorlik patologiyasi va boshka holatlar bo'yicha aholiga tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishning holati tahlil qilindi. TTYO brigadalarining chaqiriqlar bo'yicha qatnovlari xarakteri aholining barcha yosh guruhlarida kesimida o'rganildi.

TTYO chaqirikdari kartalari hamda shoshilinch tibbiy yordam (ShTYO) viloyat va tuman bo'limlari bemorlarining kasallik tarixlarini tahlil qilish asosida aholi tomonidan TTYO brigadalarini chaqiriqlarining asoslanganligi aniqlandi. Statistika ma'lumotlar asosida viloyat TTYO xizmatining tibbiyot kadrlari, sanitar avtomashinalari va tibbiyot jihozlari bilan ta'minlanganligi o'rganildi. Tadqiqotda analitik, statistik, matematik, klinik kuzatuvlar usullari qo'llanildi va arxiv materiallari tahlil etildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot bazasi Surxondaryo viloyati bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining janubiy qismida joylashgan. Viloyat maydoni 20,1 ming km² yoki butun O'zbekiston hududining 4,6%ni tashkil etadi. Viloyat aholisi tog'li, yarim cho'l, tekislik xududlarida yashaydi. Tumanlarda asosan qishloq xo'jalik hamda chorvachilik rivojlangan bo'lib, aholi qishloq va tog'li xududlarda tarqoq joylashgan. Telefon aloqasining yo'qligi va yo'llarning toshli yo'llardan iborat ekanligi aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishda qiyinchiliklar tug'diradi. 2022 yil boshlariga kelib viloyat aholisining soni 2821,9 ming kishini, jumladan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar – 978,65 ming (34,1%), fertil yoshidagi ayollar – 124,92 ming (49,7%) kishini tashkil etgan [2; 22-b.].

Aholining 1 km² dagi zichligi 130,0 kishidan iborat bo'lib, ushbu ko'rsatkich O'zbekistondagi o'rtacha ko'rsatkichdan 10,3 kishiga kamdir. Umr ko'rishning o'rtacha davomiyligi 73,8 yoshni tashkil etadi (erkaklarda – 71,7, ayollarda – 75,8).

Viloyatda 13ta tuman va Termiz shahri mavjud.

Viloyatda davolash-profilaktika muassasalari tarmog'i qayta tuzilgan bo'lib, bu mavjud moddiy-texnika va kadrlar salohiyatidan yanada samaraliroq foydalanish imkonini yaratdi. Barcha mutaxassisliklardagi vrachlar soni birmuncha kamayib, 10 ming aholi soniga nisbatan vrachlar bilan ta'minlanish ko'rsatkichi 2015-2022 yillarda 18,6dan 12,8ga kamaydi. Aholining o'rta tibbiy xodimlar bilan ta'minlanganligi amalda mavjud bo'lgan darajada qoldi. Feldsherlik-akusherlik punktlarining soni 1,33 martaga qisqardi, QVP lar soni esa 1,11 martaga ko'paydi.

Aholiga bepul shoshilinch tibbiy yordam tizimi tashkil qilingan bo'lib, u Respublika shoshilinch tibbiy yordam Ilmiy Markazining viloyat filiali, shahar va tuman tibbiy birlashmalaridagi 11ta shoshilinch tibbiy yordam bo'limlari, 14 ta tez tibbiy yordam bo'limlarini o'z ichiga oladi. Viloyatda QVPlar tizimi rivojlanib bormoqda, ularning hisobiga qishloq aholisiga feldsherlik yordami o'rniga vrachlik tibbiy yordamini ko'rsatilishi bilan bog'liq tibbiy yordam ko'rsatish shakli sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Qishloq aholisiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat 5 bosqichdan 2 bosqichga kamayib, tibbiy xizmatni tashkil qilish sifati ham sezilarli ravishda yaxshilandi. Hammasi bo'lib viloyatdagi sog'liqni saqlash muassasalarida 1,9 mingta vrachlar va 10,2 mingta o'rta tibbiyot xodimlari mehnat qilishmoqda.

2018 yilga kelib viloyatda chaqaloqlar o'limining ijobiy dinamikasi kuzatildi: 2015 yilda 1000 nafar tirik tug'ilganlarga nisbatan chaqaloqlar o'limi 12,3ni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda ushbu ko'rsatkich 10,3gacha kamaydi. Onalar o'limi 2018 yilda 2015 yilga nisbatan 2,29 martaga kamaydi (1- jadval).

Viloyatdagi demografik vaziyatning tavsifi

1-jadval

Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022
1000 ta aholiga nisbatan tug'ilishlar	75,4	74,6	71,6	79,7
1000 ta aholiga nisbatan umumiy o'lim ko'rsatkichi	12,1	11,9	12,9	13,2
1000 ta aholiga nisbatan tabiiy o'sish	64,8	62,7	58,7	67,3
1000 ta tirik tug'ilganlarga nisbatan chaqaloqlar o'limi	10,6	11,9	10,6	9,2
100 ming tirik tug'ilganlarga nisbatan onalar o'limi	11,4	10,3	9,8	8,5

Tadqiqotni o'tkazish davrida bola yoshidagilarning umumiy va birlamchi kasallanish darajasi o'sdi. Bu o'sish yuqumli va parazitar kasalliklar, qon va qonni yaratuvchi a'zolar, endokrin tizim, nafas olish, ovqat hazm qilish a'zolarining kasallanishi bilan bog'liq. Surxondaryo

viloyatida katta yoshdagi aholi va bolalarning kasallanishlari pasayish moyilligiga ega bo'lmasada, ammo etarlicha yuqori bo'lib qolmoqda. Birlamchi kasallanish va jarohatlanish foyizi yuqoridir. Tez va shoshilinch tibbiy yordam xizmati sog'liqni saqlash tizimida aholiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatishning birlamchi bo'g'ini hisoblanadi. Hozirgi vaqtda viloyatda TTYO ko'rsatish xizmatining 50ta brigadasi faoliyat ko'rsatmoqda, ulardan 32tasi feldsherlik brigadasini va 20 tasi vrachlik brigadasini tashkil qiladi. Shulardan 15 ta TTYO brigadasi aholiga umumiy ixtisoslik bo'yicha tibbiy yordam ko'rsatadi (2-jadval)

2-jadval

Viloyat TTYO brigadalarining umumiy soni

Tuman, shahar	Jami brigadalar		
	Vrachlik	Feldsherlik	Shulardan umumiy ixtisoslikdagi
RSHTYOIM filiali	9	2	2
Termez sh.	9	2	2
Termez tumani	4	1	1
Sariosiyo	10	6	0
Uzun	9	4	0
Boysun	8	1	0
Angor	8	2	0
Denov	23	3	2
Sho'rehi	14	2	0
Jarqo'rg'on	13	4	0
Qumko'rg'on	15	3	0
Sherobod	13	1	1
Oltinsoy	12	2	0
Muzrobod	10	1	0
Qiziriq	8	1	0
Jami	165	35	8

RSHTYOIM Surxondaryo viloyati filialida 5ta-reanimatsiya brigadasi, 1ta - kardiologiya, 1ta-pediatriya va 1ta-psixiatriya brigadasi faoliyat yuritmoqda.

2022 yilda qishloq va shahar aholisiga TTYO brigadalarining qatnovi dinamikasi deyarli bir xildasaqlanib qoldi (mos ravishda qishloklarda 87,9 - 105,4 mingta va shaharda 27,4 - 28,1 mingta).

2019 yilda Surxondaryo viloyatining tumanlari bo'yicha TTYO ko'rsatish xizmatiga bo'lgan chaqiriqlar tahlili shuni ko'rsatdiki, chaqiriqlarning o'sib borish tendensiyasi tog'li va cho'l

mintaqalariga to'g'ri keldi. 2022 yilda viloyatning tog'li hududlaridan Sariosiyo (13,5 mingta), Uzun (15,4 mingta), Denov tumanlarida (7,3 mingta), yarim cho'ldan iborat bo'lgan Sho'rchi (9,6 mingta), Angor (9,5 mingta), Termiz tumanlarida (13,1 mingta) (3.3-jadval). Bundan tashqari Jarqo'rg'on va Qumqo'rg'on tumanlari kamsonli aholiga ega bo'lib, aholi tarqoqroq joylashgan xudud hisoblanadi (mos ravishda 42,0 va 23,1 ming kishi).

Xulosalar:

1. Surxondaryo viloyati tumanlarida aholiga 50ta TTYO brigadalari (18ta vrachlik, 32ta feldsherlik) va RSHTYOIM Surxondaryo viloyati filiali qoshida 2ta reanimatsiya, 4ta ixtisoslashgan (kardiologiya, nevrologiya, xirurgiya, pediatriya) brigadalari tomonidan TTYO ko'rsatish xizmati ko'rsatilmoqda.
2. Dinamikada TTYO ko'rsatish xizmatiga aholining chaqiriqlari soni yildan-yilga ko'payib bormoqda (2015 yilda -115,2 mingtadan 2018 yilda -133,5 mingtaga) oshdi. Buni bir tomondan shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmatining bepulligi, ommabopligi va malakali ekanligi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan davolash-profilaktika muassasalarining aholi yashash joylaridan uzoqda joylashganligi, bemorlar ambulatoriya-poliklinika xizmatidan, UASH faoliyatidan yetarlicha foydalana olmayotganliklari, ayrim QVPlarni UASH bilan yetarli ta'minlanmaganligi bilan izohlash mumkin.
3. Viloyat aholisining TTYO brigadalari bilan ta'minlanganligi tumanlar bo'yicha bir-biridan keskin farq qiladi. Termiz shahrida TTYO brigadalari 100% vrachlik brigadalaridan tashkil topgan.


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Амонова Дилрабо Содиқовна Эффективность фармакологического аудита в системе экстренной медицинской помощи больным нозокомиальной пневмонией : автореф. дис. ... канд. мед. наук : 14.00.42 / Дилрабо Содиқовна Амонова ; МЗ РУз, ТМА. - Т, 2012. - 24 с. Экземпляры: всего:1 - хр(1).
2. Muminov Ravshan Davranovich Viloyat sog'liqni saqlash tizimi misolida tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmatini muvofiqlashtirish va tashkil qilish: tibbiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati / Ravshan Davranovich Muminov; O'zbekiston Respublikasi, Sog'liqni saqlash vazirligi. - T, 2012. - 22 b.

01.00.00

FIZIKA-MATEMATIKA

BANLARI





BIRJINSLIMAS MUHITLARDA SUYUQLIKLAR SIZISHNING KOEFFITSIYENTLI TESKARI MASALALARINI SONLI YECHISH

Kirish. Birjinslimas g‘ovak muhitlar orasida yoriq-g‘ovak va kovakli muhit ko‘proq uchraydi. Bunday muhitlarda birjinslimas (yoriqlar, kovaklar, kam o‘tkazuvchan jinslar) hajm bo‘yicha tekis va tez-tez taqsimlangan bo‘ladi [1,2].

Bunday jinslar ikki xil o‘tkazuvchanlikka ega muhitlar deb ataladi. Bunda muhit qandaydir bir-biriga ulanib ketgan ikkita muhitdan iborat murakkab tizim kabi qaraladi. Birinchi muhit o‘tkazuvchanligi yuqori bo‘lgan yoriq yoki kovakdan iborat bo‘ladi, ikkinchi muhit esa o‘tkazuvchanligi kam bo‘lgan g‘ovak bloklardan iborat bo‘ladi.

Yoriq-g‘ovak muhitlarda suyuqliklar sizishining matematik modeli [1-3] ishlarda ishlab chiqilgan. O‘lchamlar tahlilidan yoriq va g‘ovak bloklar orasidagi suyuqlik oqimi uchun quyidagi ifodaga ega bo‘lamiz:

$$q = \frac{\alpha \rho}{\mu} (p_2 - p_1),$$


bu yerda p_1, p_2 – mos ravishda yoriq va bloklardagi bosim, ρ suyuqlik zichligi, μ – suyuqlikning qovushqoqligi, α – bloklar va yoriq orasidagi suyuqlik almashinuvini tavsiflaydigan o‘lchamsiz kattalik.

Suyuqlik kuchsiz siqiluvchan, qovushqoqlik o‘zgarmas, ikkala muhit ham elastik, ikkala muhit o‘tkazuvchanligi ham o‘zgarmas bo‘lganda yoriq-g‘ovak muhitda suyuqlik sizishi tekis-parallel holda quyidagi tenglamalar sistemasi ko‘rinishida yoziladi:

$$\begin{aligned} \beta_1^* \frac{\partial p_1}{\partial t} &= \frac{k_1}{\mu} \frac{\partial^2 p_1}{\partial x^2} + \frac{\alpha}{\mu} (p_2 - p_1), \\ \beta_2^* \frac{\partial p_2}{\partial t} &= \frac{k_2}{\mu} \frac{\partial^2 p_2}{\partial x^2} + \frac{\alpha}{\mu} (p_2 - p_1), \end{aligned} \quad (1)$$

bu yerda $\beta_i^* = \beta_{ci} + m_i \beta_f, (i = 1, 2), k_1$ - yoriqning o‘tkazuvchanligi, $m_i = m_{oi} + \beta_{ci} (p_i - p_0), (i = 1, 2)$. m_1 - yoriq g‘ovakligi, m_2 - bloklar g‘ovakligi.

Agar (1) sistemada $m_1 \ll m_2, \beta_{c1} \ll \beta_{c2}, k_2 \ll k_1$ bo‘lsa quyidagi soddalashgan tenglamalar sistemasiga kelamiz:



$$\frac{k_1}{\mu\beta_2^*} \frac{\partial^2 p_1}{\partial x^2} + \frac{\alpha}{\mu\beta_2^*} (p_2 - p_1) = 0 \quad (2)$$

$$\frac{\partial p_2}{\partial t} + \frac{\alpha}{\mu} (p_2 - p_1) = 0$$

(2) sistemaning birinchi tenglamasidan ikkinchisini ayirib quyidagi tenglamaga ega bo‘lamiz:

$$\frac{\partial p_2}{\partial t} = \frac{k_1}{\mu\beta_2^*} \frac{\partial^2 p_1}{\partial x^2}. \quad (3)$$

(2) sistema birinchi tenglamasidan t vaqt bo‘yicha hosila olsak, tenglama ushbu ko‘rinishni oladi:

$$\frac{k_1}{\mu\beta_2^*} \frac{\partial^3 p_1}{\partial x^2 \partial t} + \frac{\alpha}{\mu\beta_2^*} \left(\frac{\partial p_2}{\partial t} - \frac{\partial p_1}{\partial t} \right) = 0. \quad (4)$$

(4) ga (3) ni qo‘yib p_1 ga nisbatan quyidagi tenglamani hosil qilamiz:

$$\frac{\partial p_1}{\partial t} = \frac{k_1}{\alpha} \frac{\partial^3 p_1}{\partial x^2 \partial t} + \frac{k_1}{\mu\beta_2^*} \frac{\partial^2 p_1}{\partial x^2} \quad (5)$$

Matematik fizikaning teskari masalalarini samarali sonli yechish usullari [4-9] adabiyotlarda keltirilgan. G‘ovak va yoriq-g‘ovak muhitlarda suyuqliklar sizishining teskari masalalari [10-19] ishlarda yechilgan, g‘ovak muhitlarda massa ko‘chirilishining teskari masalalari esa [20-23] ishlarda yechilgan.

1. Teskari masalaning qo‘yilishi. (5) tenglamada $\frac{k_1}{\alpha} = \eta$, $p_1 = p$,

$\frac{k_1}{\mu\beta_2^*} = \chi_1$ almashtirishlarni kiritib quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\frac{\partial p}{\partial t} = \eta \frac{\partial^3 p}{\partial x^2 \partial t} + \chi_1 \frac{\partial^2 p}{\partial x^2}, \quad 0 < x < L, \quad 0 < t \leq T. \quad (6)$$

(6) tenglamani yechish uchun boshlang‘ich va chegaraviy shartlarni quyidagi ko‘rinishda olamiz:

$$p(0, x) = p_0 = \text{const}, \quad 0 \leq x \leq L, \quad (7)$$

$$Q = Q_0 = - \frac{k_1}{\mu} \left(\frac{\partial p}{\partial x} + \frac{\eta}{\chi_1} \frac{\partial^2 p}{\partial x \partial t} \right) \Bigg|_{x=0}, \quad p(t, L) = p_0, \quad Q_0 = \text{const}, \quad 0 < t \leq T. \quad (8)$$

Koeffitsientli teskari masalani yechish uchun boshlang‘ich va chegaraviy shartlardan tashqari, bizga quyidagi qo‘shimcha shart kerak bo‘ladi:

$$p(t, 0) = z(t) \quad (9)$$

Teskari masala quyidagi tarzda qo‘yiladi: (1) tenglamaning η koeffitsienti quyidagi funksional minimumidan izlanadi:

$$J(\eta) = \int_0^T [p(t,0) - z(t)]^2 dt. \quad (10)$$

Bu yerda $z(t)$ qo'shimcha shart, ya'ni $x=0$ nuqtada (quduqda) p bosimning kuzatish ma'lumotlari.

2. Teskari masalani yechishning 1-tartibli usuli.

(10) funksionalning statsionarlik sharti ushbu ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\frac{dJ}{d\eta} = 2 \int_0^T [p(t,0) - z(t)] w(t,0) dt \equiv F(\eta) = 0. \quad (11)$$

Bu yerda $w = \frac{\partial p}{\partial \eta}$ - sezgirlik funksiyasi.

p funksiyani η atrofida ikkinchi tartibli hadgacha aniqlikda quyidagicha qatorga yoyamiz[4-5]

$$p(t, x) \approx p(t, x) + \left(\eta^{s+1} - \eta^s \right) w(t, x). \quad (12)$$

(12) yoyilmani (11) munosabatga qo'yamiz va ushbu ifodaga ega bo'lamiz:

$$\int_0^T \left[p(t,0) + \left(\eta^{s+1} - \eta^s \right) w(t,0) - z(t) \right]^2 w(t,0) dt = 0.$$

Oxirgi munosabatdan η^{s+1} yaqinlashish $p(t,0)$ va $w(t,0)$ funksiyalar ma'lum bo'lsa quyidagi formula orqali topiladi:

$$\eta^{s+1} = \frac{\int_0^T \left[\eta^2 w(t,0) - p(t,0) + z(t) \right]^2 w(t,0) dt}{\int_0^T \left[w(t,0) \right]^2 dt} \quad (13)$$

(6)-(8) dan η bo'yicha hosila olib quyidagi masalani hosil qilamiz:


$$\frac{\partial w}{\partial t} = \eta \frac{\partial^3 w}{\partial x^2 \partial t} + \frac{\partial^3 p}{\partial x^2 \partial t} + \chi_1 \frac{\partial^2 w}{\partial x^2}, \quad 0 < x < L, \quad 0 < t \leq T, \quad (14)$$

$$w(0, x) = 0, \quad 0 \leq x \leq L \quad (15)$$

$$-\frac{k_1}{\mu} \left(\frac{\partial w}{\partial x} + \frac{\eta}{\chi_1} \frac{\partial^2 w}{\partial x \partial t} + \frac{1}{\chi_1} \frac{\partial^2 p}{\partial x \partial t} \right) \Big|_{x=0} = 0, \quad w(t, L) = 0. \quad (16)$$

η koeffitsientni aniqlashning sonli algoritmini quyidagi tarzda qurish mumkin:

1. η^0 boshlang'ich yaqinlashishni beramiz ($s=0$);
2. (6)-(8) masalani $t=0$ dan $t=T$ gacha yechamiz va p funksiyani aniqlaymiz. (14)-(16) masalani ham $t=0$ dan $t=T$ gacha yechamiz va w funksiyani aniqlaymiz;



3. (13) formula bo'yicha η yaqinlashish hisoblanadi;
4. 2- va 3- bosqichlar quyidagi shartlar bajarilguncha davom ettiriladi:

$$\left| \frac{J^{s+1} - J^s}{J^s} \right| \leq \varepsilon_1, \quad \left| \frac{\eta^{s+1} - \eta^s}{\eta^s} \right| \leq \varepsilon_2,$$

bu yerda ε_1 va ε_2 yetarlicha kichik miqdorlar.

3. Teskari masalani yechishning 2-tartibli usuli.

(11) formuladagi $F(\eta)$ funksiyadan η bo'yicha hosila olib quyidagi munosabatga ega bo'lamiz:

$$F(\eta) + \frac{dF}{d\eta} \left(\eta - \eta^s \right) = 0, \quad (17)$$

(17) dan η yaqinlashish ushbu ko'rinishda aniqlanadi:

$$\eta^{s+1} = \eta^s - F(\eta) \left[\frac{dF}{d\eta} \right]^{-1}. \quad (18)$$

Bu yerda

$$\frac{dF}{d\eta} = \int_0^T \left\{ [p(t,0) - z(t)] \omega(t,0) + [w(t,0)]^2 \right\} dt = 0, \quad \omega = \frac{\partial w}{\partial \eta} = \frac{\partial^2 p}{\partial \eta^2}. \quad (19)$$

(14)-(16) dan η bo'yicha hosila olib quyidagi masalani hosil qilamiz:

$$\frac{\partial \omega}{\partial t} = \eta \frac{\partial^3 \omega}{\partial x^2 \partial t} + \chi_1 \frac{\partial^2 \omega}{\partial x^2} + 2 \frac{\partial^3 w}{\partial x^2 \partial t}, \quad 0 < x < L, \quad 0 < t \leq T, \quad (20)$$

$$\omega(0, x) = 0, \quad 0 \leq x \leq L \quad (21)$$

$$-\frac{k_1}{\mu} \left[\frac{\partial \omega}{\partial x} + \frac{\eta}{\chi_1} \frac{\partial^2 \omega}{\partial x^2} + 2 \frac{\partial^3 w}{\partial x \partial t} \right]_{x=0} = 0, \quad \omega(t, L) = 0. \quad (22)$$

η koeffitsientni ikkinchi tartibli usul yordamida aniqlashning sonli algoritmi quyidagi bosqichlardan iborat:

1. η^0 $s = 0$ boshlang'ich yaqinlashishni beramiz;
2. $t = 0$ dan $t = T$ gacha (6)-(8), (14)-(16) va (20)-(22) masalalar sonli yechiladi va p , w , ω funksiyalar aniqlanadi. (10) funksional, (11) va (19) integrallar hisoblanadi.

3. (18) munosabat orqali keying η yaqinlashish hisoblanadi;
4. 2- va 3- bosqichlar quyidagi shartlar bajarilguncha davom ettiriladi:

$$\left| \frac{J^{s+1} - J^s}{J^s} \right| \leq \varepsilon_1, \quad \left| \frac{\eta^{s+1} - \eta^s}{\eta^s} \right| \leq \varepsilon_2,$$

bu yerda ε_1 va ε_2 yetarlicha kichik miqdordlar.

4. Ayirmali masala. (6)-(8), (14)-(16) va (20)-(22) masalalarni chekli ayirmalar usuli bilan sonli yechamiz [6-7]. Buning uchun $D = \{0 \leq x \leq L, 0 \leq t \leq T\}$ sohaga to'g'ri kiritamiz:

$$\Omega_{ht} = \left\{ (x_i, t_j), \chi_1 = ih, i = 0, 1, \dots, N, h = \frac{L}{N}, t_j = j\tau, j = 0, 1, \dots, M, \tau = \frac{T}{M} \right\}.$$

(6)-(8) masalani Ω_{ht} to'g'rida sof oshkormas sxema yordamida approksimatsiyalab quyidagi ayirmali masalaga ega bo'lamiz:

$$\frac{p_i^{j+1} - p_i^j}{\tau} = \eta \frac{1}{\tau} \left[\frac{p_{i-1}^{j+1} - 2p_i^{j+1} + p_{i+1}^{j+1}}{h^2} - \frac{p_{i-1}^j - 2p_i^j + p_{i+1}^j}{h^2} \right] + \chi_1 \frac{p_{i-1}^{j+1} - 2p_i^{j+1} + p_{i+1}^{j+1}}{h^2}, \quad i = 1, 2, \dots, N-1, j = 0, 1, \dots, M-1, \quad (23)$$

$$P_i^0 = P_0, \quad i = 0, 1, \dots, N,$$

$$Q = -\frac{k_1}{\mu} \left[\frac{p_0^{j+1} - p_1^{j+1}}{h} + \frac{\eta}{\chi_1 \tau} \left(\frac{p_0^{j+1} - p_1^{j+1}}{h} - \frac{p_0^j - p_1^j}{h} \right) \right], \quad p_N^{j+1} = p_0,$$

$$j = 0, 1, \dots, M-1.$$

Huddi shunday (14)-(16) masalani approksimatsiyalab ushbu ayirmali masalaga kelimiz:

$$\frac{w_i^{j+1} - w_i^j}{\tau} = \eta \frac{1}{\tau} \left[\frac{w_{i-1}^{j+1} - 2w_i^{j+1} + w_{i+1}^{j+1}}{h^2} - \frac{w_{i-1}^j - 2w_i^j + w_{i+1}^j}{h^2} \right] + \frac{1}{\tau} \left[\frac{p_{i-1}^{j+1} - 2p_i^{j+1} + p_{i+1}^{j+1}}{h^2} - \frac{p_{i-1}^j - 2p_i^j + p_{i+1}^j}{h^2} \right] + \chi_1 \frac{w_{i-1}^{j+1} - 2w_i^{j+1} + w_{i+1}^{j+1}}{h^2}, \quad i = 1, 2, \dots, N-1, j = 0, 1, \dots, M-1, \quad (24)$$


$$i = 1, 2, \dots, N-1, \quad j = 0, 1, \dots, M-1$$

$$w_i^0 = 0, \quad i = 0, 1, \dots, N,$$

$$-\frac{k_1}{\mu} \left[\frac{w_0^{j+1} - w_1^{j+1}}{h} + \frac{\eta}{\chi_1 \tau} \left(\frac{w_0^{j+1} - w_1^{j+1}}{h} - \frac{w_0^j - w_1^j}{h} \right) + \frac{1}{\chi_1 \tau} \left(\frac{p_0^{j+1} - p_1^{j+1}}{h} - \frac{p_0^j - p_1^j}{h} \right) \right] = 0$$

$$w_N^{j+1} = 0, \quad j = 0, 1, \dots, M-1.$$

(19)-(22) masalani approksimatsiyalab quyidagi ayirmali masalaga ega bo'lamiz:



$$\begin{aligned} \frac{\omega_i^{j+1} - \omega_i^j}{\tau} &= \eta \frac{1}{\tau} \left[\frac{\omega_{i-1}^{j+1} - 2\omega_i^{j+1} + \omega_{i+1}^{j+1}}{h^2} - \frac{\omega_{i-1}^j - 2\omega_i^j + \omega_{i+1}^j}{h^2} \right] + \\ &+ \frac{2}{\tau} \left[\frac{w_{i-1}^{j+1} - 2w_i^{j+1} + w_{i+1}^{j+1}}{h^2} - \frac{w_{i-1}^j - 2w_i^j + w_{i+1}^j}{h^2} \right] + \chi_1 \frac{\omega_{i-1}^{j+1} - 2\omega_i^{j+1} + \omega_{i+1}^{j+1}}{h^2}, \\ &i = 1, 2, \dots, N-1, \quad j = 0, 1, \dots, M-1, \\ &\omega_i^0 = 0, \quad i = 0, 1, \dots, N, \end{aligned} \quad (25)$$

$$\begin{aligned} -\frac{k_1}{\mu} \left[\frac{\omega_0^{j+1} - \omega_1^{j+1}}{h} + \frac{\eta}{\chi_1 \tau} \left(\frac{\omega_0^{j+1} - \omega_1^{j+1}}{h} - \frac{\omega_0^j - \omega_1^j}{h} \right) + \frac{2}{\chi_1 \tau} \left(\frac{w_0^{j+1} - w_1^{j+1}}{h} - \frac{w_0^j - w_1^j}{h} \right) \right] &= 0 \\ \omega_N^{j+1} = 0, \quad j = 0, 1, \dots, M-1. \end{aligned}$$

(23), (24) va (25) ayirmali masalalarni progonka usuli bilan yechishga qulay ko‘rinishga keltiramiz. Bu holda (23) ayirmali masalani quyidagi ko‘rinishda yozamiz:

$$\begin{aligned} Ap_{i-1}^{j+1} - Cp_{i+1}^{j+1} + Bp_{i+1}^{j+1} &= -F_i^j, \quad i = 1, 2, \dots, N-1, \quad j = 0, 1, \dots, M-1, \\ p_i^0 &= p_0, \quad i = 0, 1, \dots, N, \\ Q &= -\frac{k_1}{\mu} \left[\frac{p_0^{j+1} - p_1^j}{h} + \frac{\eta}{\chi_1 \tau} \left(\frac{p_0^{j+1} - p_1^j}{h} - \frac{p_0^j - p_1^j}{h} \right) \right], \\ p_N^{j+1} &= p_0, \quad j = 0, 1, \dots, M-1 \end{aligned} \quad (26)$$

bu yerda

$$A = \frac{1}{h^2} (\eta + \chi_1 \tau) = B, \quad C = 2A + 1, \quad F_i^j = P_i^j - \frac{\eta}{h^2} (p_{i-1}^j - 2p_i^j + p_{i+1}^j).$$

(26) ayirmali masalani progonka usuli bilan yechish algoritmi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\begin{aligned} \alpha_1 &= 1, \quad \beta_1 = -\frac{Q_0 \mu h \chi_1 \tau}{k_1 (\chi_1 \tau + \eta)} + \frac{\eta}{\chi_1 \tau + \eta} (p_0^j - p_1^j), \\ \alpha_{i+1} &= \frac{B}{C - \alpha_i A}, \quad \beta_{i+1} = \frac{A\beta_i + F_i^j}{C - \alpha_i A}, \quad i = N-1, \dots, 1, 0, \\ p_i^{j+1} &= \alpha_{i+1} p_{i+1}^{j+1} + \beta_{i+1}, \quad i = N-1, \dots, 1, 0. \end{aligned}$$

(24) ayirmali masala quyidagi ko‘rinishga keltiriladi:

$$\begin{aligned} Aw_{i-1}^{j+1} - Cw_{i+1}^{j+1} + Bw_{i+1}^{j+1} &= -W_i^j, \quad i = 0, 1, \dots, N-1, \quad j = 0, 1, \dots, M-1, \\ w_i^0 &= 0, \quad i = 0, 1, \dots, N, \end{aligned} \quad (27)$$

$$-\frac{k_1}{\mu} \left[\frac{w_0^{j+1} - w_1^{j+1}}{h} + \frac{\eta}{\chi_1 \tau} \left(\frac{w_0^{j+1} - w_1^{j+1}}{h} - \frac{w_0^j - w_1^j}{h} \right) + \frac{1}{\chi_1 \tau} \left(\frac{p_0^{j+1} - p_1^{j+1}}{h} - \frac{p_0^j - p_1^j}{h} \right) \right] = 0$$

$$w_N^{j+1} = 0, \quad j = 0, 1, \dots, M-1.$$

$$W_i^j = w_i^j - \frac{\eta}{h^2} (w_{i-1}^j - 2w_i^j + w_{i+1}^j) + \frac{1}{h^2} [(p_{i-1}^{j+1} - 2p_i^{j+1} + p_{i+1}^{j+1}) - (p_{i-1}^j - 2p_i^j + p_{i+1}^j)],$$

(27) ayirmali masalani progonka usuli bilan yechish algoritmi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\alpha_1^{(1)} = 1, \quad \beta_1^{(1)} = \frac{\eta}{\chi_1 \tau + \eta} (w_0^j - w_1^j) - \frac{1}{\chi_1 \tau + \eta} ((p_0^{j+1} - p_1^{j+1}) - (p_0^j - p_1^j)),$$

$$\alpha_{i+1}^{(1)} = \frac{B}{C - \alpha_i^{(1)} A}, \quad \beta_{i+1}^{(1)} = \frac{A\beta_i^{(1)} + W_i^j}{C - \alpha_i^{(1)} A}, \quad i = N-1, \dots, 1, 0$$

$$w_i^{j+1} = \alpha_{i+1}^{(1)} w_{i+1}^{j+1} + \beta_{i+1}^{(1)}, \quad i = N-1, \dots, 1, 0.$$

(25) ayirmali masalani quyidagicha yozamiz:

$$A\omega_{i-1}^{j+1} - C\omega_i^{j+1} + B\omega_{i+1}^{j+1} = -V_i^j, \quad (28)$$

$$\omega_i^0 = 0, \quad i = 0, 1, \dots, N$$

$$-\frac{k_1}{\mu} \left[\frac{\omega_0^{j+1} - \omega_1^{j+1}}{h} + \frac{\eta}{\chi_1 \tau} \left(\frac{\omega_0^{j+1} - \omega_1^{j+1}}{h} - \frac{\omega_0^j - \omega_1^j}{h} \right) + \frac{2}{\chi_1 \tau} \left(\frac{w_0^{j+1} - w_1^{j+1}}{h} - \frac{w_0^j - w_1^j}{h} \right) \right] = 0$$

$$\omega_N^{j+1} = 0, \quad j = 0, 1, \dots, M-1.$$



$$V_i^j = \omega_i^j - \frac{\eta}{h^2} (\omega_{i-1}^j - 2\omega_i^j + \omega_{i+1}^j) + \frac{2}{h^2} [(w_{i-1}^{j+1} - 2w_i^{j+1} + w_{i+1}^{j+1}) - (w_{i-1}^j - 2w_i^j + w_{i+1}^j)] = 0$$

(28) ayirmali masalani progonka usuli bilan yechish algoritmi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\alpha_1^{(2)} = 1, \quad \beta_1^{(2)} = \frac{\eta}{\chi_1 \tau + \eta} (\omega_0^j - \omega_1^j) - \frac{2}{\chi_1 \tau + \eta} ((w_0^{j+1} - w_1^{j+1}) - (w_0^j - w_1^j));$$

$$\alpha_{i+1}^{(2)} = \frac{B}{C - \alpha_i^{(2)} A}, \quad \beta_{i+1}^{(2)} = \frac{A\beta_i^{(2)} + V_i^j}{C - \alpha_i^{(2)} A}, \quad i = N-1, \dots, 1, 0,$$


$$\omega_{f_i}^{j+1} = \alpha_{i+1}^{(2)} \omega_{f_{i+1}}^{j+1} + \beta_{i+1}^{(2)}, \quad i = N-1, \dots, 1, 0.$$



1-rasm. $z_{\delta}(t)$ funksiya grafigi.

5. Sonli hisoblash natijalari. Ayirmali to‘r $[0, L]$ koordinata kesmasini 200 intervalga, $[0, T]$ vaqt kesmasini 4000 intervalga bo‘ladi. z_{δ}^j “o‘lchov ma’lumotlari” (25) bo‘yicha to‘rdagi yechimlar asosida 200 “vaqt” nuqtalarida tayyorlab olindi.



2-rasmda $\delta = 0$ da birinchi tartibli identifikatsiya usuli bilan olingan sonli natijalar keltirilgan. 2-rasmdan ko‘rinib turibdiki (a, b, c, d), har-xil η^0 boshlang‘ich yaqinlashishlarda ikki, uch iteratsiyada tiklanyapti. Boshlang‘ich η^0 yaqinlashishlar η^{exact} dan 10 baravar kichik, 6,5 baravar katta bo‘lganda ham yaxshi natija beryapti (2-rasm, a-d), η koeffitsiyentni deyarli 2-3 iteratsiyada tiklab beryapti. $\eta^0 = 0,687$ bo‘lganda iteratsion jarayon uzoqlashuvchi bo‘lyapti (2-rasm, d). Sonli natijalarning ko‘rsatishicha η^0 boshlang‘ich yaqinlashishlar $0,0001 \leq \eta^0 < 0,687$ diapozonda o‘zgarganda ham birinchi tartibli identifikatsiya usuli yaxshi natija beryapti.



2-rasm. Birinchi tartibli usul yordamida η koeffitsiyentning qo‘zg‘atilmagan berilgan ma’lumotlar asosida ($\delta = 0$ da) tiklanishi

3-rasmda $\delta = 0$ da ikkinchi tartibli identifikatsiya usuli bilan olingan sonli natijalar tasvirlangan. 3-rasmdan ko‘rinib turibdiki (a, b), har-xil η^0 boshlang‘ich yaqinlashishlarda uch, to‘rt iteratsiyada tiklanyapti. Sonli natijalarning ko‘rsatishicha (2-rasm, a-b) η^0 boshlang‘ich yaqinlashishlar $0,04 < \eta^0 < 0,34$ diapozonda o‘zgarganda η koeffitsiyent uch-to‘rt iteratsida tiklanyapti. Boshlang‘ich yaqinlashishlar $\eta^0 = 0,04$ (3-rasm, a) va $\eta^0 = 0,34$ (3-rasm, b) bo‘lganda iteratsion jarayon uzoqlashuvchi bo‘lyapti, ya’ni η koeffitsiyentni tiklab bo‘lmayapti.

2-3-rasmlardagi sonli natijalardan ko‘rinadiki, birinchi tartibli usul ikkinchi tartibli usulga nisbatan ancha yaxshi natija berar ekan. Bu hisoblash xatoliklari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, chunki birinchi tartibli usulni qo‘llaganda har iteratsiyada ikkita to‘g‘ri masala, ikkinchi tartibli usulni qo‘llaganda esa uchta to‘g‘ri masala yechiladi.



3-rasm. Ikkinchi tartibli usul yordamida η koeffitsiyentning qo‘zg‘atilgan berilgan ma’lumotlar asosida ($\delta = 0$ da) tiklanishi


Endi η koeffitsiyentning qo‘zg‘atilgan berilgan ma’lumotlar asosida ($\delta \neq 0$ da) tiklanishi masalasini qaraymiz. Yuqorida birinchi tartibli usulning ikkinchi tartibli usulga nisbatan afzalligi ko‘rsatildi. Shu sababli qo‘zg‘atilgan ma’lumotlar asosida η koeffitsiyentni tiklashda birinchi tartibli usuldan foydalanamiz. Sonli natijalar 1-jadvalda keltirilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, qo‘zg‘atilgan ma’lumotlar asosida η koeffitsiyentni tiklashdagi nisbiy xatolik 0,3373 % dan 31,9981 % gacha o‘zgaradi. Kichik xatoliklarda η koeffitsiyentni tiklash ancha yaxshi natija berishi 1-jadvaldan ko‘rinib turibdi.

1-jadval. η koeffitsiyentning qo‘zg‘atilgan berilgan ma’lumotlar asosida tiklanishi

δ	$\eta^0 = 0,01 \text{ m}^2$			$\eta^0 = 0,4 \text{ m}^2$		
	s	$\eta^s, \text{ m}^2$	Nisbiy xatolik, $\frac{ \eta - \eta^{\text{exact}} }{\eta^{\text{exact}}} \cdot 100,$ %	s	$\eta^s, \text{ m}^2$	Nisbiy xatolik, $\frac{ \eta - \eta^{\text{exact}} }{\eta^{\text{exact}}} \cdot 100,$ %
0,0	3	0,09999980	0,000200	3	0,10000000	0,000000
0,005	4	0,09957584	0,424160	4	0,10033725	0,337250
0,01	5	0,09630044	3,699559	5	0,10455201	4,552010
0,02	7	0,11177254	11,772542	6	0,10578710	5,787100
0,05	8	0,08595013	14,049868	8	0,13199806	31,998060

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Баренблатт Г.И., Желтов Ю.П. Об основных уравнениях фильтрации однородных жидкостей в трещиноватых породах // ДАН СССР. 1960. Т.132, №3. С. 545-548.
2. Баренблатт Г.И., Желтов Ю.П., Кочина И.Н. Об основных представлениях теории фильтрации однородных жидкостей в трещиноватых породах // ПММ. 1960. Т.24, вып. 5. С. 852-864.
3. Баренблатт Г.И., Ентов В.М., Рыжик В.М. Движение жидкостей и газов в природных пластах. Москва.: «Недра», 1984.
4. Бабе Г.Д., Бондарев Э.А., Воеводин А.Ф., Каниболотский М.А. Идентификация моделей гидравлики. Новосибирск: Наука, 1980.
5. Алифанов О.М., Артюхин Е.А., Румянцев С.В. Экстремальные методы решения некорректных задач. Москва: Наука, 1988.
6. Samarskii A.A., Vabishchevich P.N. Numerical Methods for Solving Inverse Problems of Mathematical Physics. Berlin: Walter de Gruyter, 2007. – 438 p.
7. Алифанов О.М. Обратные задачи теплообмена. Москва: Машиностроение, 1988.
8. Hao D. N. Methods for inverse heat conduction problems. – Lang. pub. Inc., Peter, 1998.
9. Beck J.V., Blackwell B., Clair C.R. Inverse Heat Conduction: Ill-Posed Problems. Wiley, 1985.
10. Хайруллин М.Х., Хисамов Р.С., Шамсиев М.Н., Фархуллин Р.Г. Интерпретация результатов гидродинамических исследований скважин методами регуляризации. Регулярная и хаотическая динамика, Ижевский институт компьютерных исследований, 2006.
11. Khairullin M.N, Abdullin A.I., Morozov P.E., Shamsiev M.N. The numerical solution of the inverse problem for the deformable porous fractured reservoir. Matem. Mod., 2008. Vol. 20. No. 11, pp. 35–40.
12. Khairullin M. N, et.al. Thermohydrodynamic studies of vertical wells with hydraulic fracturing of a reservoir. High Temperature, 2011. Vol. 49. No. 5, pp. 769–772.
13. Khuzhayorov B., Kholiyarov E. Inverse problems of elastoplastic filtration of liquid in a porous medium. Journal of Engineering Physics and Thermophysics, 2007. Vol.8., No.3, pp. 517-525.
14. Khuzhayorov B.K., Kholiyarov E.C., Mamatov S. Identification of the coefficients of relaxation filtration of a homogeneous liquid in porous media. AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – Vol. 2637. No. 1. 040009.
15. Хужаёров Б.Х., Холияров Э.Ч. Определение коэффициента перетока и проницаемости при фильтрации однородной жидкости в трещиновато-пористых средах // Проблемы вычислительной и прикладной математики. 2022. №1(38). С. 66-76.
16. Хужаёров Б.Х., Холияров Э.Ч., Эрназаров М.Ю., Тураев М. Обратная задача по определению коэффициента перетока в модели фильтрации Уоррена-Рута // Научный вестник СамГУ. 2022. №1(131). С.115-123.



17. Холияров Э.Ч., Шадмонов И.Э., Шерпулатов Ш.Ш. Определение коэффициента перетока в модели фильтрации Уоррена-Рута на основе решения обратной задаче // *Universum: технические науки : электрон. научн. журн.* 2022. №5(98). С. 51-58.
18. Kholiyarov E.Ch., Ernazarov M.Y., Jurayev O.A., et al. Coefficient inverse problem for a simplified model of filtration of a homogeneous fluid in fractured-porous medium. - *AIP Conference Proceedings* 2637, 040021 (2022)
19. Kholiyarov E.Ch., Ernazarov M.Y. Determination of Relaxation and Flow Coefficients During Filtration of a Homogeneous Liquid in Fractured-Porous Media // *Current Problems in Applied Mathematics and Computer Science and Systems.* – Cham : Springer Nature Switzerland, 2023. – P. 54-67.
20. Khuzhayorov B., Ali Md. F., Sulaymonov F., Kholiyarov E. Inverse coefficient problem for mass transfer in two-zone cylindrical porous medium // *AIP Conference Proceedings*, 2016. Vol. 1739. 020028.
21. Khuzhayorov B., Begmatov T., Kholiyarov E.Ch., Fayziev B. The inverse problem of determining the kinetic coefficients in the model of suspension filtration in a porous medium // *Eurasian Journal of Mathematical and Computer Applications.* 2022. Volume 10, Issue 4 (2022) P. 96-106.
22. Холияров Э.Ч., Бегматов Т.И., Файзиев Б.М. Идентификация коэффициента кинетики в модели фильтрации суспензии в пористой среде // *Проблемы вычислительной и прикладной математики.* 2022. №1(38). С. 9-17.
23. Khuzhayorov B., Kholiyarov E.Ch., Khaydarov O.Sh. Inverse Problem of Contaminant Transport in Porous Media // *Current Problems in Applied Mathematics and Computer Science and Systems.* – Cham : Springer Nature Switzerland, 2023. – P. 87-97.
24. Самарский А.А. Теория разностных схем. – М.: Наука. 1989. – 616 с.



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi”
ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Meyliqulov Shaxboz Xolmamovich,
Termiz iqtisodiyot va servis universitetining Raqamli Ta'lim Texnologiyalari markaz boshlig'i, Axborot texnologiyalari va aniq fanlar kafedrasini o'qituvchisi

ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION BULUTLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada bulutli texnologiyalar yaratilishi, evalutsiya jarayoni va ular to'g'risida batafsil yoritilgan. Bundan tashqari bulutli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, server xizmatlar, internet tarmog'i, bulutli texnologiya, bulutli hisoblash, shaxsiy kompyuter, infratuzilma.

ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ОБЛАЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В этой статье подробно рассказывается о создании облачных технологий, процессе эволюции и многом другом. Кроме того, анализируются преимущества и недостатки использования облачных технологий.

Ключевые слова: информационные технологии, серверные услуги, Интернет, облачные технологии, облачные вычисления, персональный компьютер, инфраструктура.

THE USE OF INNOVATIVE CLOUD TECHNOLOGIES IN THE MODERN EDUCATIONAL PROCESS

Annotation. This article details the creation of cloud technologies, the evolution process, and more. In addition, the advantages and disadvantages of using cloud technologies are analyzed.

Keywords: information technology, server services, Internet, cloud technology, cloud computing, personal computer, infrastructure.


KIRISH

Kompyuter va zamonaviy axborot texnologiyalarining kundankunga rivojlanib borishi, ulardan mamlakatimiz xalq xo'jaligining barcha sohalarida unumli foydalanish uchun zamin yaratib bermoqda. Yurtni obod, xalqimizni farovon qilish davlatimizning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ana shunday muhim masalalardan biri har tomonlama kamol topgan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdir.

Buning uchun shunga mos ta'lim va tarbiya ishlarini bajarish, o'quv jarayonini rivojlangan demokratik davlatlarda olib borilayotgan o'quv jarayoniga tenglashtirish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga kengroq tatbiq etish zarur.

“Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri shaxs manfaati va ta'lim ustivorligi” dir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratishni taqazo qildi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga tatbiq etish, iqtisodiy samara berishi bilan bir qatorda, o'quv jarayonida yangi o'qitish uslublarini qo'llashga keng imkoniyatlar ochadi. Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llash, asosan, shaxsiy kompyuterlar



va axborot texnologiyalarining pedagogik-dasturiy vositalari yaratilishi bilan bog'liq.

Jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yosh avlodni tarbiyalab voyaga etkazish bugun har bir pedagog oldidagi ulkan ma'suliyatli vazifadir.

Bulutli hisoblashga asoslangan texnologiyalar zamonaviy axborot olamining talab qilinadigan va faol rivojlanayotgan yonalishlaridan biridir. Bugungi kunda axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi sababli bulut texnologiyalaridan foydalanish doirasi kengayib bormoqda. Bu esa tashkilotlar, foydalanuvchilarga kerakli xizmatlarni bulutga ko'chirishga undamoqda. Bunga bulut texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari: moslashuvchanlik, operatsion xarajatlarning kamligi, ish vaqtining ixtiyoriy shakldaligi kafolati, guruh bo'lib ishlashdagi imkoniyatlar sabab bo'lmoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan va ayniqsa zamonaviy bulutli texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonida o'quvchilarni faqat nazariy bilimlari bilan cheklanib qolmasdan balki, amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda, ularning har tomonlama yetuk kadrlar qilib tayyorlashida muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'limdagi axborot texnologiyalari keng me'yoriy tushuncha bo'lib, olib borilayotgan har bir mavzu ana shu texnika, texnologiyadan foydalanishni taqazo etadi. Chunki, zamonaviy o'qitish texnikasidan

foydalanish ijobiy natijalar beradi.

Bugungi kunda ta'lim tizimidagi islohotlarning muammolari pedagog kadrlar salohiyati bilan bog'liq. O'rganish va tahlillar zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligi, ayniqsa axborot-texnologiyalari, ta'limda bulutli texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Bulutli dasturlar - bu turli xil Internet xizmatlarini bajarish. Bunday vazifalarga misol qilib, ma'lumotlarni saqlash, serverlar, ma'lumotlar bazalari, dasturlar va ijtimoiy tarmoqlar kiradi. Bulutli dasturlar ma'lumotlarni saqlashni kompyuter fayllariga yoki qattiq diskka emas, balki markaziy tarmoqda saqlashga imkon beradi. Ko'p sabablarga ko'ra, Cloud Computing - bu jismoniy shaxslar va kompaniyalar uchun mashhur variant, jumladan vaqtni tejash, samaradorlikni oshirish, tezlik va himoya.

Tadqiqot ishida ko'tarilayotgan muammoning dolzarbligi shundan iboratki, O'zbekistonda ta'lim sifatini raqamli texnologiyalardan foydalangan holda takomillashtirishni ta'minlash tizimlari bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rib chiqishda bulutli texnologiyadan foydalanib borilmoqda.

Bulutli dasturlar texnologiyasi - bu Internetga asoslangan platforma, bu resurslar serverdan mijozga tarmoqlar kanallari orqali ma'lumot yetkazadi. Shu sababli, texnologiya yorug'lik tezligida yangilanayotgan hozirgi dunyoda qaysi texnologiyaga o'tish kerakligini va texnologiyadan to'g'ri foydalanishni bilish juda muhimdir. Shunday qilib, bulutli texnologiyalarning mashhurligi va Internetning salbiy ta'siriga qaramay, u eng tezkor texnologiya bo'lib qoladi va u bugungi bozorning so'nggi tendentsiyasiga aylandi. Bulutlar va ularning turlarini maqsadli o'qitishda B.Blum taksanomiyasidan foydalanish bilim berishda yuqori natijalarga olib keladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida masofali o'qitishda bulutli texnologiyalar google bulutli xizmatlaridan foydalangan holda o'quv jarayonini va axborot resurslarni takomillashtirish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir.

Bulutli texnologiyalarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- deyarli har qanday joyda va qurilmada istalgan hujjat ustida ishlash imkoniyati
- ma'lumotlar uchun cheksiz bo'sh joy
- ma'lumotlarni uzatish qulayligi
- muhim ma'lumotlarning nusxalarini saqlash
- bulutli xizmatlardan foydalanuvchilar, barcha manbalari ishlatilmaydigan serverni ijaraga olish uchun emas, balki aslida foydalangan joy uchun haq to'laydi.
- tadqiqotning ob'ekti oliy ta'lim muassasalarida bakalvriatning Informatika va axborot texnologiyalari hamda barcha texnik yo'nalishlarda "Axborot texnologiyasi va jarayonlarni matematik modellashtirish" fanini o'qitishda talabalarni turli usullar bilan baholash jarayonining oson kechishi.

"Axborot texnologiyalari va jarayonlarni matematik modellashtirish" fanini o'qitishda takomillashgan mazmuni, zamonaviy usul va vositalarini qollagan holda bulutli texnologiyalarning qulayligi, talabalar bilan muloqot qilish, bajargan ishlarini tekshirish, baholash usullarini o'rgatadi.

Zamonaviy o'quv jarayonida bulutli hisoblash texnologiyalari haqida bilim olish, undan foydalanish va ushbu bulutli texnologiyada talabalarining bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash usullarini o'rganishdan iborat.

Demak, undan foydalanishning maqsadi butun dunyo bo'ylab xaridorlarni bir-biriga bog'lash orqali resurslarni diversifikatsiya qilish va o'z vaqtida kerakli resurslardan foydalangan holda ushbu sohadagi mijozlarini saqlab qolish orqali biznes foydalanuvchilariga o'z bozorlarini kengaytirishga imkon berishdir.

Bulut (Cloud) tushunchasi internetning

metafora tasviri bilan bog'liq bo'lib, u orqali ba'zi xizmatlar mavjud. Bulutli hisoblash (Cloud Computing) – bu g'oyani amaliy amalga oshirishdir. Bulutli hisoblash Internet orqali foydalanuvchilarga taqdim etiladigan va kuchli ma'lumotlar markazlari asosida amalga oshiriladigan miqyosli va virtualizatsiya qilingan manbalarga (data centers) asoslangan.

Bulutli hisoblash - bu turli xil apparat platformalarining IT resurslarini bir butunga birlashtirishga va foydalanuvchiga mahalliy tarmoq yoki global Internet orqali kirish imkoniyatini berishga imkon beradigan innovatsion texnologiyani anglatadi. Turli provayderlarning bulutli xizmatlari foydalanuvchilarga o'zlarining resurslariga Internet orqali bepul yoki bepul dasturiy ta'minotli bulutli dasturlar orqali kirishni taklif qiladi, ularning apparat va dasturiy ta'minot talablari foydalanuvchi yuqori mahsuldor va resurslarni sarflaydigan kompyuterlarga ega ekanligini anglatmaydi. Bulutli hisoblashlarning yuzaga kelishida virtuallashtirish texnologiyalarining ahamiyati juda katta hisoblanadi. Virtuallashtirish texnologiyalari ilk marta 1960 yil IBM kompaniyasi tomonidan taklif qilingan. 2006 yilda Microsoft kompaniyasi "Microsoft virtual PC" Windows versiyasini ishga tushirdi. Bulutli hisoblash - bu talabga ko'ra hisoblash xizmatlarini - ilovalardan saqlashgacha - odatda Internet orqali va "to'lash" asosida etkazib berish imkoniyatidir. Bulutli hisoblash xizmatlari hozirda saqlash, tarmoq va ishlov berish asoslaridan tortib, tabiiy tillarni qayta ishlash va sun'iy intellektgacha, shuningdek standart ofis ilovalari kabi keng imkoniyatlarni qamrab oladi. Siz ishlatayotgan Kompyuter uskunasi yaqin bo'lishingizni talab qilmaydigan har qanday xizmat hozir bulut orqali etkazib berilishi mumkin. Yuqori hisoblash imkoniyatlari, xarajatlar kamligi, yuqori ish unumdorligi, foydalanish imkoniyati, mavjudlik va miqyoslilik kabi bir qator afzalliklarga ega bulutli hisoblash hozirgi paytda ko'pchilik tashkilotlar uchun shunchaki tanlov yemas - zaruratdir. Bulutli xizmat ko'rsatuvchi provayderlar infratuzilmani boshidan oxirigacha boshqaradi, bu esa korxonalariga asosiy

biznes jarayonlarini boshqarishga va ishlarning natijasini umumlashtirishga yordam beradi.

Bulutli hisoblash ko'plab xizmatlarni qo'llab-quvvatlaydi. Bulutli hisoblash texnologiyalari: mohiyati, xususiyatlari va tuzilmasi Gmail kabi iste'molchi xizmatlari yoki smartfonlaringizdagi fotosuratlarining zaxira nusxasi kabi yirik xizmatlar kiradi, lekin yirik korxonalariga o'zlarining barcha ma'lumotlarini qabul qilish va barcha ilovalarni bulutda boshqarish imkonini beradigan xizmatlar kiradi.

Bulut texnologiyasi - bu ommabop texnologiya bo'lib, unda foydalanuvchilar Internet-platformada IT-resurslarda ma'lumot kiritish yoki olish uchun ishlatadilar. Bu texnologiya ma'lumotlar va resurslarni onlayn-serverda saqlaydigan va foydalanuvchi to'g'ridan-to'g'ri kompyuterning qattiq diskida saqlash o'rniga xavfsiz foydalanish uchun ishlatiladi. Bulutli texnologiyalarining yana bir yaxshi tarafi bu online serverlardan dunyoning xohlagan nuqtasida turib ma'lumotlarni kiritish yoki qabul qilish mumkin. Bulutli texnologiyalarning turli xil xizmatlari mavjud bo'lib, ular juda mashhur va bugungi kunda dunyoda keng qo'llanilayotgan katta hajmdagi saqlash va uni zaxiralash, dasturlarni sinash va texnik xizmat ko'rsatish, ma'lumotlarni tahlil qilish va kerakli dasturlarni yetkazib berish mumkin.

Bulutli hisoblash xizmatlari hozirda saqlash, tarmoq va ishlov berish asoslaridan tortib, tabiiy tillarni qayta ishlash va sun'iy intellektgacha, shuningdek standart ofis ilovalari kabi keng imkoniyatlarni qamrab oladi. Yuqori hisoblash imkoniyatlari, xarajatlar kamligi, yuqori ish unumdorligi, foydalanish imkoniyati, mavjudlik va miqyoslilik kabi bir qator afzalliklarga ega bulutli hisoblash hozirgi paytda ko'pchilik tashkilotlar uchun shunchaki tanlov emas - zaruratdir. Bulutli xizmat ko'rsatuvchi provayderlar infratuzilmani boshidan oxirigacha boshqaradi, bu esa korxonalariga asosiy biznes jarayonlarini boshqarishga va ishlarning natijasini umumlashtirishga yordam beradi. Bulutli hisoblash ko'plab xizmatlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Bunga Gmail kabi iste'molchi xizmatlari yoki smartfonlaringizdagi fotosuratlarining zaxira nusxasi kabi yirik xizmatlar kiradi, lekin yirik korxonalariga o'zlarining barcha ma'lumotlarini qabul qilish va barcha ilovalarni bulutda boshqarish imkonini beradigan xizmatlar kiradi.

Bulutli hisoblash konsepsiyasining mohiyati foydalanuvchilar xizmatlariga, hisoblash resurslariga va ilovalariga (operatsion tizimlar va infrastrukturani kiritgan xolda) internet orqali masofaviy dinamik ruxsatni taqdim etishdan iborat.

Bulutli hisoblash IT sohasidagi so'nggi tendentsiya hisoblanadi. Bulutli hisoblashning nisbiy yangiligi va tez sur'atlar bilan o'sishi, uni barcha uchun qiziqarli sohaga aylantirmoqda. Cloud computing tezkor ravishda ta'minlanadigan va foydalanuvchilar tomonidan minimal boshqarish va xizmat ko'rsatuvchi provayderlarning o'zaro ta'siri natijasida tez ta'minlanishi va chiqarilishi mumkin bo'lgan, sozlanadigan, hisoblash resurslarining umumiy, qulay va talabga binoan tarmoqqa ulanish uchun model sifatida belgilanadi. Bulutli hisoblash tashkilotning IT-infratuzilmasini qurish uchun yondashuvini o'zgartirish uchun yig'ilgan turli xil texnologiyalar bosqichi hisoblanadi. Aslida, Cloud da mavjud xizmatlarning har qanday yangi ko'rinishida texnologik biron-bir yangilik yo'q, bu texnologiyalarning aksariyati anchadan buyon foydalanib kelinmoqda. Bularning barchasini bulutli hisoblash nomi ostida ommaga xizmat ko'rsatish sifatida yagona platformaga birlashtirilgan va rivojlantirib kelinmoqda.

Bulutli hisoblash (Cloud computing) axborotlarni qayta ishlash modellini o'zida taqdim etadi, ya'ni masalalarni yechish jarayonida apparat va dastur resurslarini onlayn - xizmat sifatida foydalanuvchiga taqdim etadi.

Bulutli hisoblash texnologiyasidan foydalanishning asosiy afzalligi axborotlarga kirishni ta'minlaydigan yashirin murakkab infrastrukturaga egaligi va uni oxirgi foydalanuvchi tomonidan qayta ishlash vositasi hisoblanishida. Bu foydalanuvchilarga axborotlarni qayta ishlash texnologiyalarining nozik farqlari to'g'risida o'ylamasdan o'zlarining majburiyatlarini bajarish imkoniyatini beradi.

Bulut resurslarini tashkilot xodimlarining ishlarini tashkil qilinishiga o'xshash ko'rinishda tinglovchilarning o'qish jarayonini ratsional tashkil qilish imkoniga ega bo'lish maqsadida ta'limda samarali foydalanish mumkin.

Ta'limda bulut texnologiyasidan foydalanishga misol sifatida talabalar, professor-o'qituvchilar va boshqalar uchun shaxsiy kabinetlar, elektron kundalik va jurnallarni ko'rsatish mumkin. Bulutli texnologiya axborot texnologiyalarining barcha afzalliklaridan foydalanib turli xil ijtimoiy dasturiy ta'minotlarga kirishni tashkil qilish imkonini beradi, ular mobil o'qishni tashkil qilish uchun platforma sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu bois bulutli texnologiyadan foydalanish o'qish jarayoniga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish, o'quv materiallarini shakllantirish, unga kirishni ta'minlash, o'quv rejalarini tezkor o'zgartirish hisobiga o'qish sifatini oshirish imkonini beradi. Bulutli hisoblash IT sohasidagi so'nggi tendentsiya hisoblanadi.

Bulutli hisoblashning asosiy afzalliklari qanday? Bugungi kunda IT texnologiyalarning keskin rivojlanishi tufayli, xususan, bulut texnologiyalardan foydalanish miqyosi oshishi tashkilotlar, foydalanuvchilarni kerakli xizmatlarini bulutga ko'chib o'tishga undamoqda, chunki bulut resurslaridan foydalanishdagi moslashuvchanlik, operatsion xarajatlarning kamligi yoki boshqarilishdagi engillik, ish vaqtining ixtiyoriy shakldaligi va kafolati, qo'shma ishlab chiqarish, guruh bo'lib ishlashga imkoniyat va boshqalardir.

Bulutli hisoblashning ba'zi muhim afzalliklari:

1. Kapitalning harajatlari pastligi: Bulutli hisoblash mahalliy uskunalarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirganligi sababli, kompaniyalar ITxarajatlari va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarining kamaytirilishidan bahramand bo'lishlari mumkin.

2. Masshtablilik: Talab bo'yicha yuqori qobiliyat – bulutli hisoblashning eng katta afzalliklaridan biridir. To'g'ri amalga oshirilganda, har qanday hajmdagi tashkilotlar inson aralashuvisiz avtomatik tarzda ishlash imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin.

3. Qurilma va joylashuv mustaqilligi: bulutli hisoblashda barcha xizmatlar qurilmadan mustaqil bo'lib, zaruriy imkoniyatlar sizning qo'lingizda bo'lgan qurilma imkoniyati bilan cheklanmaydi. Bu shuningdek, joylashuvga bog'liq yemas, chunki siz Internetga ulangan holda istalgan joydan ma'lumotlarga kirishingiz, xizmatlardan foydalanishingiz mumkin.

4. Hamkorlikning kengayishi: bulutli hisob-kitob yordamida bir nechta foydalanuvchilar istalgan vaqtda, istalgan joydan hujjatlarni ko'rishi, tahrir qilishi va almashishi mumkin. Ushbu real vaqt rejimida fayl almashish va yangilanishlar ishning to'liq ko'rinishini ta'minlaydi va jamoalarga yanada yaxshiroq hamkorlik qilishga yordam beradi.

5. Xavfsizlik: bulutda saqlanadigan ma'lumotlar sizning shaxsiy qurilmalaringizga qaraganda xavfsizroqdir. Chunki agar siz aytaylik, fleshka yoki Kompyuteringizni xotirasida saqlayotgan ma'lumotingizni yo'qotib qo'yishingiz yoki qurilmangiz buzilib qolishi natijasida ma'lumot xavfsizligi bilan bog'liq muammoga duch kelishingiz mumkin, lekin bulut texnologiyasi beradigan imkoniyat yesa login yoki parolingizni unutsangiz qayta tiklashga yoki ma'lumotlaringizni yextiyotsizlik tufayli o'chirib yuborgan bo'lsangiz bir oy mobaynida qayta tiklashga(backuplar) olishga imkon beradi.

6. Ishonchlilik: bulutli hisoblash biznesning uzluksisligi uchun ma'lumotlar va manbalarning ko'proq mavjudligini ta'minlaydi. Ma'lumotlarning zaxira nusxasini yaratish va tabiiy ofatlardan qutqarish xizmatlari foydalanuvchilar uchun katta imkoniyatlarni beradi.

7. Oddiy yordamchi dasturga asoslangan: sozlash va boshqarish oson. Bundan tashqari, u iqtisodiy jihatdan tejamkor va mijoz sifanida taklif etilayotgan xizmat modellarga "foydalanganingizga to'lang".

8. Yuqori darajada avtomatlashtirilgan: cbpybyu bulutli ta'minot ta'minotchingiz muntazam dasturiy ta'minot, xavfsizlik yangilanishlari xaqida g'amxo'rlilik qiladi, shuning uchun tizimni boshqarish haqida qayg'urmaysiz va o'z biznesingizning boshqa muhim jihatlariga bemalol e'tabor qaratishingiz mumkin.

9. Zaxira nusxa ko'chirish (ma'lumotlar bulutda saqlanib qoladi, xatto kompyuter ishdan chiqqan taqdirda ham).

10. Saqlash (bulut foydalanuvchiga barcha turdagi ma'lumotlarni saqlash imkonini taqdim etadi).

11. Kirish huquqi (bulutdagi ma'lumotlarga kirish, mobil vositalaridan kirish).

12. Hamkorlik (bulut bir vaqtning o'zida bir necha foydalanuvchilarning birgalikda ishlashlariga imkon yaratadi, bu funksiya yordami bilan guruh bo'lib loyihalarni yaratish, mashg'ulotlarda professor-o'qituvchilar va talabalarning hamkorlikda ishlashlarini optimal rejalashtirish imkoni paydo bo'ladi).

13. Vaqtlar va resurslarga ongli munosabatning shakllanishi (professor-o'qituvchilarga o'quv materiallaridan nusxa olishga vaqt sarflashga zarurat bo'lmaydi, talabalar esa o'quv

materiallaridan onlayn foydalanish huquqiga ega bo'ladilar).

14. Topshiriqlar (talabalar bulutda o'zlarining topshiriqlarini saqlashlari, professor-o'qituvchilar sa o'zlariga ma'qul paytga ularga kirish huquqiga ega bo'ladilar). Bulutli hisoblashning muhim afzalliklari quyidagi sxemada keltirilgan:

Cloud computing ko'pgina kompaniyalarning an'anaviy, mahalliy ma'lumotlar markazlari orqali oladigan (yoki sotib oladigan) hajmidan ko'ra ko'proq miqyosda tejashga erishish uchun onlayn va osonlik bilan foydalanish mumkin bo'lgan IT-resurslaridan foydalanishga tayanadi. Bulutli hisoblash korxonalariga zudlik bilan ta'minlanishi mumkin bo'lgan saqlash, tarmoqlar, serverlar, dasturlar va xizmatlar kabi sozlanadigan hisoblash resurslarining umumiy resurslariga talab bo'yicha kirish huquqini beradi. Bulutga o'tish korxonalariga oldindan infratuzilma xarajatlarining oldini olishga va samaradorlikni oshirishga, qo'shimcha xarajatlarni kamaytirishga va infratuzilmani joylashtirishni avtomatlashtirishga yordam beradi. Bulutli hisoblash - bu tezkor ravishda ta'minlanishi va minimal boshqaruv kuchlari bilan bo'shatilishi mumkin bo'lgan sozlanadigan hisoblash resurslarining (masalan, tarmoqlar, serverlar, omborlar, dasturlar va xizmatlar) resursiga umumiy, qulay, talabga binoan kirish huquqini beradigan model hisoblanadi. Bulutli hisoblash, shubhasiz, biznesning har qanday turiga asoslangan oson ish oqimini yaratishda yordam beradigan tendensiya hisoblanadi.

Bulutli texnologiya - bu loyihalarni boshqarishning yangi usuli va loyiha bilan ishlashni tashkil qilishning an'anaviy usullariga alternativa taklif qiladi va jamoaviy ishlash uchun imkoniyat yaratadi.

Bulutli texnologiyalarni loyihalarni boshqarishda qo'llashning asosiy afzalligi - bu jamoaviy ishlash ko'nikmalarini egallash. Shu sababli, o'qituvchilar, tadqiqotchilar va biznes tuzilmalarni birlashtiradigan virtual bulutli infratuzilmani yaratish muhim vazifadir. Bunday infratuzilmani Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining xususiy buluti asosida qo'rish mumkin. Virtual bulutli infratuzilmani yaratish bir qator afzalliklarga ega:

Kamaytirilgan kapital xarajatlar. Resurslarni sotib olish, ularni joylashtirish va saqlash (elektr ta'minoti, sovutish, ta'mirlash va boshqalar) bilan bog'liq bo'lgan bir martalik katta xarajatlarni rad etishingiz mumkin.

Ta'limning samaradorligi va sezgirligini oshirish. Ushbu yechimlarni joylashtirish, ishlatish va boshqarish oson. Boshqaruv qobiliyatlari bilan IT mutaxassislari doimo o'zgarib turadigan ta'lim ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan resurslarni tezda taqsimlashi va boshqarishi mumkin. Ta'limning uzluksizligini ta'minlash. Jamoat buluti qurilgan texnologiyalar muhim dasturlar va ma'lumotlarni himoya qilishga yordam beradi, ta'lim va izlanishlarning uzluksizligini ta'minlaydi va AT xizmatlarini avariylarni avtomatik ravishda tiklash orqali texnik xizmatni yaratishga vaqt ajratadi.

Ilovalarni ishlab chiqarish muhitiga joylashtirishdan oldin ularni sinovdan o'tkazish. Virtual infratuzilma ishga tushirilgandan so'ng qiymat baho muammolardan qochib, minimal xarajat bilan joylashtirishdan oldin yechimlarni sinab ko'rish uchun ijodiy muhit yaratishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. PF-5847. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi. 08.10.2019 yil
2. Prezident Shavkat Mirziyoev olimlar, yosh tadqiqotchilar, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari va ishlab chiqarish sektori vakillari bilan uchrashuvi. 31.01.2020 yil. 3. YandexDisk. Yangi ma'lumotlar ombori. <http://www.seocafe.info/yandex/26702-yandexs-disk-novoe-hranilishe-failov.html>.
4. B. Walker Seidenberger M. P. Althoff UMTS The Fundamentals., Germany Translated by Hedwig Jourdan von Schmoeger, UK

2003 5. "DRMASS ko'p stansiyali kirishli raqamli radioaloqali abonent tizimi". NEC firmasi. 2006-yil.

6. Usmanova N.B. Ma'lumotlar uzatish tizimlari va tarmoqlari. O'quv qo'llanma. T: TUIT.2006.

7. Yemelyanova O. A. Primenenie oblacnyx texnologiy v obrazovanii // Molodoy uchenyy. – 2014. No3–b. 907-909.

8. Romanova I. Oblachnye texnologii i ix primeneniye // Molodoy uchenyy. 2016.–No17.1.–S.109

9. Miller, Ron (24 Nov 2015). "AWS Lambda Makes Serverless Applications A Reality". TechCrunch.

10 iyul 2016. 10. "FastConnect | Oracle Cloud Infrastructure". cloud.oracle.com. 2017-11-15.

11. Outline scope of services for the role of information management, CIC/INF MAN/S first edition 2013.

12. Bulutli hisoblash: Principles and Paradigms - Raj Kumar Buyya, James Bromberg, Andrzej M. Goscinski - John Wiley & Sons - 2010 - 664p.

13. Dwivedi, A., Pant, R. P., Pandey, S., Pande, M., & Mittal, A. K. (2019). Benefits of using big data sentiment analysis and soft computing techniques in E-governance. International Journal of Recent Technology and Engineering, 8(3), 1-.doi:10.35940/ijrte.C5124.098319

14. Dumbacher, B., Morris, D. S., & Hogue, C. (2019). Using electronic transaction data to add geographic granularity to official estimates of retail sales. Journal of BigData, 6(1) doi:10.1186/s40537-019-0242-z

15. Tarasova, T. M., Averina, L. V., & Pecherskaya, E. P. (2020). Digitalization of the public sector of the regional economy doi:10.1007/978-3-030-27015-5_32 Retrieved from www.scopus.com

An illustration at the top of the page shows a therapy session. On the left, a man in a green shirt sits on a chair, gesturing while talking to a woman in a green dress who is also seated. A thought bubble above the man shows a woman in a green dress. In the center, a woman in a green dress sits on a chair, talking to a man in a green shirt who is seated on a blue armchair. A thought bubble above the man shows a woman in a green dress. On the right, a man in a dark shirt and a woman in a blue shirt sit on a dark sofa, talking. The background is a solid blue color.

PSIXOLOGGIYA FANLARI

19.00.00

PSIXOLOGGIYA

FANLARI





“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi”
ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Almardanova Salomat Bobonazarovna

Termiz Davlat universiteti, Ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti
Psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

SHAXSNING PSIXOLOGIK TAFAKKURNING MA'NAVYI-PSIXOLOGIK SHAKLLANISHIDA TAFAKKURNING ROLINI O'RGANISH

Annotatsiya: Hozirgi davrda yoshlar tarbiyasi va ular hulq atvori ijobiy tarzda shakllantirishning dolzarbligidan kelib chiqib, biz maqolamiz asosiga inson bolasining shaxs sifatida shakllanishi, psixik rivojlanishi, o'quvchilik davriga to'g'ri kelishi haqida yoritilgan. Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak yoshlarimizni, qolaversa maktab o'quvchilarini har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashimiz uchun avvalo, ular tafakkurining psixologik xususiyatlarini mukammal bilishimiz haqida ma'lumotlar berilgan.

Tayanch so'zlar: o'smir, o'quvchi, o'spirin, shaxs, tafakkur, psixologik xususiyatlar, psixologik-pedagogik tadqiqotlar.

ИЗУЧЕНИЕ РОЛИ МЫШЛЕНИЯ В ДУХОВНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ

Аннотация: Исходя из актуальности воспитания молодежи и формирования ее характера в положительном ключе, наша статья посвящена становлению ребенка как личности, психическому развитию, периоду школьного обучения человека. Если мы посмотрим на это с этой точки зрения, то для того, чтобы воспитать нашу молодежь и школьников зрелыми личностями во всех отношениях, была дана информация, что мы должны прежде всего в совершенстве знать психологические особенности их мышления.

Ключевые слова: подросток, студент, подросток, личность, мышление, психологические особенности, психолого-педагогическое исследование.

THE ROLE OF THINKING IN SPIRITUAL AND PSYCHOLOGICAL FORMATION OF PERSONALITY

Abstract: Based on the relevance of youth education and the formation of their character in a positive way, our article focuses on the formation of a human child as a person, mental development, and the period of schooling. If we look at it from this point of view, in order to raise our young people and schoolchildren to become mature individuals in all aspects, information has been given that we should first of all know the psychological features of their thinking perfectly.

Key words: teenager, student, teenager, personality, thinking, psychological characteristics, psychological-pedagogical research.

Kirish. O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab jamiyatimizning barcha sohalarida, jumladan, ma'naviy-ma'rifiy hayotimizda ham ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bunday o'zgarishlar natijasida kelajagimiz vorislari hisoblangan yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, inson bolasining shaxs sifatida shakllanishi, psixik rivojlanishi, o'quvchilik davriga to'g'ri keladi. O'quvchilik davri o'zining serqirraligi bilan boshqa davrlardan farqlanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak yoshlarimizni qolaversa, maktab o'quvchilarini har



tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashimiz uchun, avvalo ular tafakkurining psixologik xususiyatlarini mukammal bilishimiz darkor.

Yoshlarning ma'naviy – psixologik shakllanishiga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham katta e'tibor qaratib, o'zlarining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining (Nyu-York shahri, 2017 yil 19 sentabr) 72-sessiyasidagi nutqida: -“Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir”, deb ta'kidladilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tafakkur va shaxsning ma'naviy shakllanishi muammosi bir nechta yo'nalishlarda talqin etiladi: faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlovchi individual psixologik xususiyat (L.S.Vigotskiy, L.S.Rubinshteyn, B.M.Teplov), faollik va o'z-o'zini boshqarish (B.F.Lomov, A.B.Brushlinskiy, N.S.Leytes, M.Xolodnaya) ta'lim va tarbiya ta'sirida o'zgaradigan va rivojlanadigan aqliy faoliyatning individual uslubi (V.S.Merlin, YE.A.Klimov N.I.Chuprikova), sifatida tadqiq etilgan. Shuningdek, bu boradagi mahalliy olimlar M.G.Davletshin, B.R.Qodirov, E.G'.G'oziyev, E.Z.Usmonova, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonovalarning izlanishlari hamda mutafakkirlarimiz Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Abdulla Avloniy va boshqalarning fikrlarida tafakkur, aqliy taraqqiyot, aql, aql imkoniyatlari va aqliy qobiliyatlar to'g'risidagi qarashlarlarida talqin etilgan.

Hozirgi davr talabi ma'naviy jihatdan yetuk har tomonlama bilimdon, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish bo'lib, bu muammo shaxslararo munosabat ya'ni muloqot jarayonida ham amalga oshirilishi mumkin. Shaxsning ma'naviy yetukligi, bilimdon, zehnliligi mana shu muloqot jarayonida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, kishilarni muloqot jarayonida teran fikrlilik, hozirjavoblik,

ta'sirchanlik, sezgirlik va muloqot jarayonidagi bilimdonlikni shakllantirish va rivojlantirish muhim. Inson bolasining shaxs sifatida shakllanishi, psixik rivojlanishi, o'quvchilik davriga to'g'ri keladi. O'quvchilik davri o'zining serqirraligi bilan boshqa davrlardan farqlanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, yoshlarimizni, qolaversa, maktab o'quvchilarini har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashimiz uchun avvalo ular tafakkurining psixologik xususiyatlarini mukammal bilish maqsadida shaxs ma'naviy-psixologik shakllanishida tafakkurning rolini psixologik jihatdan o'rganish va tadqiqotlar asosida ilmiy va amaliy jihatdan yoritib berishga harakat qildik. Tadqiqot ishlarini Termiz shahar 1-sonli hamda 2-sonli umum ta'lim maktablarining 60 nafar 11- sinf o'quvchilarida olib bordik.

Tadqiqot metodologiyasi. O'quvchilar tafakkuridagi individual farqlarni aniqlash maqsadida shaxsning bilish uslublaridagi farqlarni o'rganishda birinchi va ikkinchi signallar sistemasining faoliyatiga bog'liqligini inobatga olgan holda “Tafakkur stilini aniqlash usuli” dan foydalandik.

“Tafakkur stilini aniqlash usuli” testi

Differensial psixologiyada turli sohalarda individual farqlar tadqiq etiladi. Jumladan, 1911 yilda akademik I.P.Pavlov birinchi va ikkinchi signallar sistemasi haqidagi ta'limotini yaratib, uni insonlarning individualligini o'rganishga tadbiq etgan. I.P.Pavlovning fikriga ko'ra, birinchi signal sistemasini faoliyati ustun bo'lgan kishilar umumlashtirish xususiyatiga, ikkinchi signal sistemasini faoliyati ustunlik qilgan kishilar esa tahlil qilish xususiyatiga ega ekanligini asoslagan. Keyinchalik bu ta'limot yanada rivojlantirilib, shaxsning bilish uslublaridagi farqlarni o'rganishda qo'llanila boshlandi, ya'ni birinchi signal sistemasiga taalluqli kishilar badiiy tip, ikkinchi signal sistemasiga taalluqli kishilar fikrlovchi tip, har ikkala signal sistemasini teng faoliyat ko'rsatuvchi kishilar o'rta tipga taalluqli deb hisoblana boshlandi (ilova).

Test savolnomasi

1. Mening kayfiyatim doim yaxshi.
2. Men bir necha yillar avval o'rganganlarimni yaxshi eslayman.
3. Notanish kuyni bir marta eshitib takrorlay olaman.
4. Hikoya tinglayotganimda uni obrazlarda tasavvur qilaman.
5. Men xissiyot muloqot jarayonida faqat xalaqit beradi deb xisoblayman.
6. Men matematikaga qiynalaman.
7. Notanish kishini yengil eslab qolaman.
8. SHERIKLARIM guruhida gapni birinchilardan bo'lib boshlayman.
9. Kimningdir g'oyasini muxokama qilsalar, men asoslarni talab qilaman.
10. Mening kayfiyatim doimo yomon.

Tahlil va natijalar.

Qo'qon shahar _____-sonli maktabning _____-sinf o'quvchisi

(Familiyasi, ismi, otasining ismi)

JAVOB VARAQASI

1.	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
2.	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
3.	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
4.	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
5.	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
6.	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
7.	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
8.	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
9.	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
10.	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

Natijalar tahlili:

O'ng yarim sharhlar
3, 4, 6, 7, 10

Chap yarim sharhlar
1, 2, 5, 8, 9

O'quvchilar ma'naviy-psixologik shakllanishi tafakkurning xususiyatlariga bog'liqligini o'rganish maqsadida o'quvchilardan "Ijtimoiy-ma'naviy sifatlarni shakllanganlik darajasini o'rganish" savolnomasini oldik. So'rovnomaning to'liq shaklini va natijalarni tahlil qilish shakllarini to'liq keltiramiz.

Ijtimoiy-ma'naviy sifatlarni shakllanganlik darajasini o'rganish

Ko'rsatma: savollarni o'qing va o'zingizga ma'qul bo'lgan javob variantini belgilang.

1-bo'lim

1. Siz yoqtirmaydigan do'stingiz tug'ilgan kuniga taklif etsa, uni qabul qilasizmi?

- a) ha
- b) faqat ayrim hollarda
- v) yo'q

2. Davrada o'tirgan paytingizda qo'qqisdan boshingiz og'rib qolsa, u holda o'zingizni qanday t u t a s i z ?

a) yuzaga chiqarmaysiz.

b) biron kishidan bosh og'rig'ini qoldiruvchi dori so'raysiz.

v) davrani tashlab uyga ketasiz.

3. Uyingizda yaqinlaringizdan birining tug'ilgan kuni, do'stingiz sizni yordamga "hashar"ga taklif qildi, qanday yo'l tutasiz?

- a) taklifni bajonidil qabul qilasiz.
- b) uzr so'rab, bora olmasligingizni aytasiz.
- v) har ikkalasiga ham ulgurishga harakat qilasiz.

4. Guruhingizda kimlar bilan ko'proq do'stlashishni istar edingiz?

- a) guruh faollari bilan.
- b) faqat o'zimga yaqin bo'lgan tengqurlarim bilan.
- v) hammani bir ko'zda ko'raman.



5. Ko'chada bolalar to' dasida guruhdosh do'stingizni yoqalashib turganiga ko'zingiz tushib qoldi, Siz?

a) borib ajratib qo'yib, gap nimadaligini aniqlaysiz, kerak bo'lsa yordam berasiz.

b) noxush xodisalarga aralashishni yoqtirmaysiz.

v) shunchaki janjalning sababiga qiziqasiz.

2-bo'lim

1. Bo'sh vaqtingizni qanday o'tkazishni ma'qul ko'rasiz?

a) teleseriallar ko'rishni yoqtirasiz.

b) kitob o'qishni hush ko'rasiz.

v) sport bilan shug'ullanasiz.

g) yolg'iz qolishni yoqtiraman.

2. Tengqurlaringiz orasida ba'zan sigareta chekib turuvchi do'stlaringiz bormi?

a) yo'q, bu zararli odat ekanligini tushunishadi.

b) ba'zida bo'lib turadi.

v) faqat do'stlarimiz orasida bittasi doimiy ermak qilib turadi.

g) bilmadim, men ahamiyat bermaganman.

3. Internet klublariga munosabatingiz?

a) menga yoqadi, har xil kerakli ma'lumotlar olish imkonini beradi.

b) men asosan har xil klip, kino, lavhalarni tomosha qilaman.

v) bekorchilikdan zerikkan chog'imda borib turaman.

g) men uchun ahamiyati yo'q.

4. Tabiat mo'jizalariga munosabatingiz ya'ni, ob-havoning o'zgarishiga?

a) tabiatning har xil insonlarga uchun qilgan tuhfasidan ko'nglim ravshan tortadi. (quyoshning tafti, gullar, bog'lar, mevali daraxtlar).

b) ko'proq vaqtimni tabiat qo'ynida o'tkazgim keladi.

v) men ko'proq uyda bo'lishni yoqtiraman. (yomg'ir, qor, shamol, umuman ob-havoning o'zgarishini yoqtirmayman).

g) men uchun bu ahamiyatga ega emas.

5. Kiyinish bobida "Moda"ga ahamiyat berasizmi?

a) albatta, bu men uchun juda ahamiyatli.

b) men uchun qulay kiyim bo'lsa bas.

v) oilaviy sharoitimga to'g'ri kelmasada qarzga bo'lsa ham, olib kiyinishga harakat


Izoh: 2-bo'limning "g" varianti shaxsning hayotiy pozitsiyalarini belgilaydi. Shu variantni kamida 3 marta tanlagan shaxsning hayotiy pozitsiyalarini qayta o'rganib chiqish maqsadga muvofiq. Ularda hayotga befarqlik kuzatiladi, bu suitsidga moyillik alomatlarini bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy-ma'naviy sifatlarni shakllanganlik darajasini o'rganish anketa so'rovnomasini qayta ishlash.

Umumiy o'rta ta'lim maktabining 11-sinf o'quvchilaridan 60 nafar sinaluvchilarning natijalari yuqoridagi tadqiqot metodlari asosida o'rganilib tahlil qilindi. Natijalarni bir-biriga taqqoslaganda quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi.

T/R	1-BO'LIM Muomala madaniyati axloqiy xulq- atvor	2-BO'LIM Dunyovarash va ijtimoiy fikr, hayotiy pozitsiyasi	3-BO'LIM Din va diniy oqimlarga munosabat
1	a-5; 6-10; b-1	a-1; 6-5; b-5; r-0	a-3; 6-5; b-1
2	a-5; 6-10; b-1	a-5; 6-1; b-1; r-0	a-5; 6-3; b-1
3	a-5; 6-1; b-10	a-5; 6-3; b-1; r-0	a-1; 6-5; b-3
4	a-1; b-5; v-10	a-5; b-3; v-1; g-0	a-1; b-5; v-3
5	a-10; b-1; v-1	a-3; b-5; v-1; g-0	a-5; b-1; v-3

**“ТАФАККУР СТИЛИНИ АНИҚЛАШ УСУЛИ” ТЕСТИ
ВА “ИЖТИМОЙ-МАЪНАВИЙ СИФАТЛАРНИ
ШАКЛЛАНГАНЛИК ДАРАЖАСИНИ ЎРГАНИШ”
САВОЛНОМАСИНИНИНГ НАТИЖАЛАРИ**



Xulosa. O‘quvchilarning ma’naviy-psixologik jihatdan shakllanishi tafakkurning xususiyatlariga bog‘liqligini asoslagan holda ma’naviy sifatlarni shakllantirishda tafakkur xususiyatlariga e’tibor berib, har ikkala miya yarim sharlari faoliyati rivojlangan bo‘lsa, bunday holatda shaxs ham ma’naviy, ham aqliy jihatdan yaxshi rivojlangan bo‘lib, bu shaxsda psixologik korreksiya muhtoj insonlar soni juda kam bo‘ladi. Shuning uchun ham har ikkala miya yarim sharlari faoliyatini yaxshilashga, o‘quvchi hamda oliy ta’lim muassasasi talablari aqliy ko‘rsatkichlarini nostandart tafakkur qilish orqali rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion dastur ishlab chiqdik. Ushbu dastur yordamida tadqiqotlarimizni davom ettiramiz va bu haqida ma’lumotlarni yoritib boramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sesiyasidagi nutqi. Nyu-York shahari 2017 yil 19 sentabr. Ma’rifat gazetasi 2017 yil 20 sentabr №75 (9036)-1-2b.
2. M. Lafasov, M. Quronov, O‘. Nosirov, Sh. Jumayev, S. Ashirboyev, G. Lafasova. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va uni tashkil etish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2008 y.
3. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent. 2015. 186-228 b.
4. Usmonova E.Z. O‘quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday shakllantirish mumkin?. Toshkent. -2000.

5. Sharafutdinova X.G‘., Qodirova A.B. Psixologik trening. -Surxon-nashr. 2014 yil -79-92 b.

6. Mishina Y.V., Yusupov I.M. Faktori vozrastnoy dinamiki mishleniya // Psixologiya. Istoriko-kriticheskiye obzori i sovremenniy issledovaniya. 2016. № 3. S. 8-17.

7. Sharafutdinova X.G‘. // Aqliy qobiliyat psixokorreksiyasi // Sog‘lom avlod uchun – Toshkent, 2007. -№3. 12-14b.

8. Sharafutdinova X.G‘. // Aqliy qobiliyatning qisqa tanlov testi // Maktab va hayot – Toshkent, 2006. -№8. 26-28b.

9. Rubinshteyn S.L. Osnovi obshey psixologii M., 1976 g.

10. Almardanova S.B. Copping strategy for student professional formation // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 6. – S. 1536-1543.

“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali ilmiy maqolalariga qo‘yiladigan talablar

Termiz iqtisodiyot va servis universitetining “TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro‘yxatga olingan.

Jurnalga *iqtisodiyot, tarix, pedagogika, psixologiya, fizika-matematika, filologiya* fan sohalari (ruknlar) bo‘yicha maqolalar qabul qilinadi. Nashrga original, ilgari nashr qilinmagan maqolalar va jurnal rukniga mos keladigan maqolalar qabul qilinadi. Original maqolaning hajmi (annotatsiya, kalit so‘z va so‘z birikmalari hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati bundan mustasno) 1,15 intervalda 7-10 bet tavsiya etiladi (15 betdan oshmasligi kerak). Matn – Microsoft Word. Format – A4. Matnning ikki yonidan qoldiriladigan o‘lcham – 2 sm. Shrift – Times New Roman. Shriftning kattaligi – 14. Qatorlar oralig‘i – 1,15. Xat boshi (abzats) – 1,25. Maqolalar o‘zbek (lotin imlosida), rus, yoki ingliz tillarida taqdim etilishi mumkin.

Maqolaning tuzilishi quyidagicha tavsiya etiladi:

Muallif(lar): mualliflarning to‘liq nomlari quyidagi tartibda qayd etilishi kerak: familiyasi, ismi, otasining ismi, ikki yoki undan ortiq mualliflar bo‘lsa, vergul bilan ajratiladi.

Muallif(lar)ning ish joyi: Ushbu ma‘lumot quyidagi tartibda taqdim etilishi kerak: kafedra, OTM yoki ilmiy-tadqiqot instituti, shahar va mamlakat, elektron pochta manzili, telefon raqami keltirilgan bo‘lishi kerak.

Maqolaning nomi: maqola va boshqa materiallar sarlavhasi qisqa, mazmunga muvofiq va 12 so‘zdan oshmasligi kerak (bosh harflarda). U o‘zbek, rus hamda ingliz tillarida taqdim etilishi kerak.

Annotatsiya: Maqolalarning qisqacha annotatsiyasi 10-12 qatordan oshmagan holda o‘zbek, rus va ingliz tillarida beriladi. Unda tadqiqot muammosi, uning dolzarbligi, tadqiqot muammosini ochib berish uchun qo‘llanilgan metodologiya, tadqiqot natijalari, maqolaning to‘la mazmunidan kelib chiqqan holda muallifning ilmiy va

Kirish:

amaliy hissasining qisqacha bayoni yoritiladi.

Annotatsiyada maqolaning asosiy jihatlarini bayon etishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- tadqiqotning asosiy ma'lumotlarini qamrab olishi va ishda mavjud bo'lmagan faktlar bo'lmasligi lozim;

- maqolaning tuzilishi annotatsiyada takrorlanadi: kirish, maqsad va vazifa, usullar, natija/muhokama, xulosa/mulohaza;

- natijalar aniq va lo'nda bo'lib, uzviylikda beriladi;

- annotatsiyada maqola sarlavhasi takrorlanmaydi, keraksiz izohlar, "kirish jumalari" (muallif maqolada shuni nazarda tutadiki...) bo'lmasligi lozim;

- annotatsiyada iqtibos keltirilmaydi;

- annotatsiya matnining hajmi 150-200 so'zdan iborat bo'lishi tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: maqola mazmuni va maqsadini eng qisqa mazmunda ochib beruvchi kalit so'zlar hisoblanadi. Annotatsiya ostida «Kalit so'zlar» (8-10 ta) yozuvi joylashtiriladi. Kalit so'zlar maqolaning asosiy mazmunini ifodalab, asosan, sohaga doir muhim tushunchalardan tashkil topgan bo'lishi lozim. scholar.google.com yoki google.com qidiruv tizimida maqola oson va eng birinchi sahifalarda topilishi uchun tayanch so'zlarning har biri asosiy matn tarkibida o'rtacha 6-8 marta takrorlanishi tavsiya etiladi.

Matn – Microsoft Word. Format – A4. Matnning ikki yonidan qoldiriladigan o'lcham – 2 sm

maqolada tadqiqotning maqsadi va maqola yozilish vaqti-da ilmiy muammoning holati aks etishi kerak. Kirish qismida asosan tadqiqot muammosi, uning maqsad va vazifalari yoritiladi. Mazkur qism tadqiqot mavzusining tanlanish asosi, uning dolzarbligi va ilmiy ahamiyatini tushuntirib beradi (ushbu qismda Prezident asarlari va ma'ruzalariga murojaat qilinishi tavsiya etiladi).

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

mavzuga oid adabiyotlar tahlili tadqiq etilayotgan muammo yuzasidan muallifning bilim va tasavvurlarga ega ekanini namoyon etuvchi qism hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili mavjud intellektual hudud doirasini baholash va shu asosda ma'lum xarita yaratishni anglatadi. Adabiyotlarning tanqidiy tahlilidagi urinishlar mazkur mavzu doirasidagi bilimlarni kuchaytiradi va tadqiqot savollarini yanada oydinlashtirishga yordam beradi. O'z mazmuniga ko'ra har qanday tadqiqot ayni shu sohada yaratilgan avvalgi bilimlar negiziga quriladi. Adabiyotlar bo'yicha tahlil asosan sohadagi eng yangi jurnal maqolalari va boshqa turdagi ma'lumot manbalari asosida amalga oshadi.

Tadqiqot metodologiyasi:

tadqiqot metodologiyasi tadqiqotning eng muhim qismlaridan biri bo'lib, u o'tkazilayotgan tadqiqotning umumiy xaritasi, tadqiqot yo'li va manzilga (natijaga) olib boruvchi xaritaviy chizgilari hisoblanadi. Maqola metodologiyasi tadqiqot falsafasi va yo'nalishini (deduksion yoki induksion) belgilash, tadqiqot dizayni, ya'ni tadqiqot muammosining yechimiga olib boruvchi bosh rejasini tuzish, tadqiqot uchun zarur axborotni olish yo'llari va tadqiqot etikasini belgilash, tadqiqot ob'ektining tanlovi (sampling), birlamchi yoki ikkilamchi ma'lumot manbalaridan foydalanish to'g'risidagi qarorlar, tadqiqot strategiyasini (kuzatish, eksperiment, keys-stadi, savolnoma, etnografik, arxiv tadqiqot va h.k.) aniqlash bo'yicha ratsional qaror qabul qilish asosida qo'yilgan muammoning aniq yechimiga olib chiquvchi yo'lni belgilashni anglatadi. Metodologiya qismining mukammalligi tadqiqot uchun belgilangan yo'lning ishonchliligi (reliability) va aniqliligini (validity) asoslash orqali namoyon bo'ladi.

Tahlil, natijalar va mulohaza:

maqolaning tahlil qismi tadqiqot metodologiyasida avvaldan belgilab olingan tahlil usullari (matematik modellar va boshqalar) orqali yig'ilgan ma'lumotlarning tahlilini amalga oshiradi. Bunda faqatgina tahlil usulining natijalari ifoda etiladi; topilgan natijalar bo'yicha muhokama maqolaning keyingi qismining vazifasi hisoblanadi.

Xulosa va takliflar:

kirish qismida qo'yilgan savollarga javoblar xulosalarda aniq ko'rsatilishi kerak. Shu bilan birga, takliflar va ayni tadqiqotdan kelib chiqqan holda kelajak tadqiqot ishi yo'nalishlari maqola xulosa va takliflari qismining asosini tashkil etishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlarning berilish tartibi:

Maqolada foydalanilgan barcha adabiyotlarning ro'yxati maqolaning oxirida matnda foydalanilganlik ketma-ketligi bo'yicha beriladi (1. ... 2. ...). Maqola iqtiboslari esa matn ichida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ketma-ketligida adabiyotning foydalanilgan sahifasi bilan yoziladi ([1, B.72-73] yoki [2, C. 153], [3, P. 25]).

Jurnal maqolalarining berilishi:

Дульзон А.П. Этнолингвистическая дифференциация тюрков Сибири // Структура и история тюркских языков. – Москва: Наука, 1971. – С. 198 – 208.

Elektron jurnalidagi maqolalarning berilishi:

Allamuratov Sh.A. Markaziy Osiyo xalqlari madaniy-diniy aloqalarida Amudaryo suv yo'lining o'rni // O'tmishga nazar. №24. 2019. – B. 23-29. URL: <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2019-24> [murojaat qilingan sana: 15.02.2023]

Konferensiya materiallarining berilishi:

Allamuratov Sh.A. Amudaryo bo'ylab Buxoro amirli-gi qishloq xo'jalik mahsulotlarining tashilishi // "Buxoro tarixi masalalari" (eng qadimgi zamonlardan hozirgi davrgacha). Respublika ilmiy-amaliy (onlayn) konferen-siyasi materiallari. – Buxoro, 2021. – B. 72-76.

Kitoblar (monografiya, to'plam)larning berilishi (adabiyotning umumiy beti shu joyda yoziladi):

Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё (тарихий-географик лавҳалар). – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 186 б.

Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. – Москва –

Ленинград: АН СССР, 1951. – 451 с.

Tarjima kitoblarning berilishi:

Абу-л-Аббос Аҳмад ибн Яҳё ал-Балозурий. Футуҳ ал-булдон (Хуросоннинг фатҳ этилиши) / Сўз боши, араб тилидан таржима, шарҳлар, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи Ш.С.Камалиддин. – Тошкент: ТошДШИ, 2017. – 440 б.


Низами Арузи Самарканди. Собрание редкостей или Четыре беседы / Пер. с перс. С.И.Баевского и З.Н.Ворожейкиной под ред. А.Н.Болдырева. М.: ИВЛ, 1963. – 174 с.

kirish qismida qo'yilgan savollarga javoblar xulosalarda aniq ko'rsatilishi kerak

Internet-resurslarning berilishi:

Лапишин Р.В. Флотилии в Туркестане периода гражданской войны (Прислала В.Лаврова) // <https://mytashkent.uz/2018/01/24/flotilii-v-turkestane-perioda-grazhdanskoj-vojny/> [murojaat qilingan sana: 15.03.2022]

Амударьинская военная флотилия (Материал из Википедии — свободной энциклопедии)[элект.рес.]/https://ru.wikipedia.org/wiki/Амударьинская_военная_флотилия [murojaat qilingan sana: 01.02.2022]



TISU ILMU TADQOTLARIXABARNOMASI

№4/2024



TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI




TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
ISSN 2992-9016

№4/2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI



TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ВЕСТНИК НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ТУЭС
TUES BULLETIN OF SCIENTIFIC RESEARCH



“TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI”
ILMIY-USLUBIY JURNALI

№ 3/2023

Offline ISSN 2992-9113
Online ISSN 2992-9156



Dissertatsiya va avtoreferatning berilishi:

Qobulov E.A. XVIII asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Surxon vohasi xo'jaligi. Tarix fanlari doktori (DSc) ... diss. – Toshkent, 2019. – 284 b.

Юсуфи Шодинур. История путей сообщения и транспорта Таджикистана во второй половине XIX – начале XX в. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Душанбе, 1992. – 21 с.

Jadvallar: maqolada jadval nomlari uning yuqori qismida, chizma yoki rasm nomlari esa ularning quyi qismida yozilishi hamda ularning manbasi aniq ko'rsatilishi lozim. Jadvallar raqamlanadi va maxsus nomlanadi. Jadvaldagi har bir ustun qisqa nomga ega bo'lishi kerak (qisqartma so'zlardan foydalanish mumkin). Har bir jadval matnda izohlanadi. Chizmalarining elektron versiyalari alohida fayllarda taqdim etiladi. Tasvirning tavsiya etilgan kengligi 14 smdan oshmasligi kerak, balandligi 18 smdan oshmasligi tavsiya etiladi. Skanerlash materiallari kamida 300 dpi bo'lishi kerak.

O'zbek tilidagi o', g', q, h kabi harflar ilmiy maqola matnida gaplar tarkibida to'liq yozilishi shart.

Ilmiy maqola tahririyat tomonidan ko'rib chiqiladi. Tahririyat a'zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko'rsatilgan talablarga mos bo'lmagan maqolalarni qabul qilmaslik huquqi bor.

Yuborilgan maqolalarning barchasi "Antiplagiat" tizimida tekshiriladi.

Jurnal bosma shaklda chop etiladi. Jurnalning elektron shakli– Termiz iqtisodiyot va servis universitetining rasmiy web saytiga joylashtiriladi (<https://scientific.tu>). Maqolalar bosqichma-bosqich google scholar da indekslanadi.

Tasvirning tavsiya etilgan kengligi 14 smdan oshmasligi kerak, balandligi 18 smdan oshmasligi tavsiya etiladi. Skanerlash materiallari kamida 300 dpi bo'lishi kerak

Tahririyat joylashgan manzil (pochta manzili):
Termiz shahri, Bog'ishamol MFY, Faravon massivi 4b-uy.
Tahririyat to'g'risidagi boshqa ma'lumotlar:
Pochta indeksi: 190101.

E-mail: eshbolta.kabulov@mail.ru allamuratovs@tersu.uz
Tel.: 91-966-00-44, 91-518-66-88.